



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT  
IQTISODIYOT UNIVERSITETI

90 *yil*  
TDIU

AKBAROVA B.SH.

# XALQARO STATISTIKA


O'quv qo'llanma

IQTISODIYOT»

511(07)

A12

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**




**AKBAROVA B.SH.**

# **XALQARO STATISTIKA**

*O'quv qo'llanma*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi  
tomonidan oliy o'quv yurtlarining "230000– Iqtisod" ta'lim  
sohasining va "5231400 – Statistika (tarmoqlar va sohalar  
bo'yicha)" ta'lim yo'nalishlarining talabalari uchun  
o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

**TOSHKENT – 2022**



O'zbekiston Respublikasining xalqaro statistika sohasida xalqaro me'yorlarga standartlarga, o'tishini umumlashtiruvchi iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash va tahlil qilish statistikaning metodologik tamoyillarini o'rganishni taqozo etadi.

Ushbu "Xalqaro statistika" o'quv qo'llanmasi tashqi savdo, eksport, import, ishsizlik, ishlab chiqarish omillari, aholining tabiiy xarakati va migratsiyasi, tashqi savdo narxlari, investitsiya va boshqa bir qancha savollarga javob beradi.

O'quv qo'llanmadan oliy o'quv yurtlarining talabalari, magistrarlari, doktorantlari, statistika va tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi amaliyot xodimlari ham foydalanishlari mumkin.

Tarizchilar: TMI "Statistika va ekonometrika"  
kafedrasida dosenti, i.f.n.,  
Mamatqulov B.X.;

TDIU "Statistika" kafedrasida kat.  
o'qt., Axmedova M.SH.

ISBN 978-9943-7330-5-3

© "IQTISODIYOT", 2022.  
© B.SH. Akbarova, 2022.

## MUNDARIJA

Kirish.....	4
1-mavzu. Xalqaro statistikaning predmeti va metodi.....	9
2-mavzu. Xalqaro statistik tashkilotlar va chet el mamlakatlarida statistikaning tashkil etilishi.....	12
3-mavzu. Xalqaro aholi statistikasi.....	22
4-mavzu. Xalqaro mehnat resurslari statistikasi.....	34
5-mavzu. Milliy hisoblar tizimi.....	50
6-mavzu. Valyutaning harid qilish qobiliyati asosida mamlakatlarda ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulotlarni halqaro taqqoslash.....	57
7-mavzu. Xalqaro makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi....	77
8-mavzu. Tashqi iqtisodiy aloqalar statistikasi.....	85
9-mavzu. Xalqaro amaliyotda milliy boylik statistikasi...	112
10-mavzu. Xalqaro statistikada iqtisodiy faoliyat samaradorligi ko'rsatkichlari.....	124
11-mavzu. Xalqaro aholi turmush darajasi statistikasi.....	146
Adabiyotlar ro'yxati.....	154
«Xalqaro statistikasi» fani bo'yicha testlar.....	156

## KIRISH

Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev tomonlaridan oliy ta'limni yanada rivojlantirish bo'yicha bir qator qarorlar va farmonlar qabul qilindi: "Keyingi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga hamda xalqaro standartlar talablariga mos keladigan oliy ta'lim tizimini yaratish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amala oshirilmoqda.

Hududlarda yangi oliy ta'lim muassasalarining tashkil etilishi, kadrlar tayyorlashning zamonaviy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari hamda sirtqi va kechki bo'limlarning ochilishi, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarining oshirilishi mazkur yo'nalishdagi muhim islohatlar hisoblanadi. Avvalgi uchrashuvlarda talim va ilm-fan, davlatning yoshlarga doir siyosatini amalga oshirish, talimning yangi, zamonaviy usullarini, jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish sohasidagi ishlar ahvoli tanqidiy tahlil qilib berilgan edi"<sup>1</sup>.

Shuningdek, tajribali pedagog va mutaxassislarni jalb etgan holda, o'quv reja va dasturlarini tubdan qayta qurib chiqish zarur. Oldimizda yoshlarga tarbiya berish, psixologiya va boshqa turli sohalarda kadrlarni tayyorlash bo'yicha murakkab vazifalari turibdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'isblangan tantanali marosimidagi ta'kidlaganlaridek: "Ishonchim komil, mehnatsevar, tadbirkor va uddaburon xalqimiz erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida samarali mehnat qilishga va munosib hayot kechirishga albatta qodir. Xabaringiz bor, bu yil mamlakatimiz aholisi 33 million kishidan oshdi. Bu, albatta kichkina raqam emas.

Yurtimizda amalga oshirilgan keng qo'llamli islohatlar natijasida fuqarolarimizning o'rta umr ko'rish davomiyligi 1990 yildagi 67 yoshdan 2017 yilda 74 yoshni tashkil etdi. Bolalar o'limi 3 barobar kamayishiga erishildi. Biz bu boradagi natijalarimizni

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2018 yil 5 iyundagi №PQ-3775 qarori.

yanada mustaxkamlashimiz zarur. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan birga iqtisodiyotning real sektoridagi talabni kamida 10-15 yil oldin prognoz qilib, shunga qarab mutaxassis tayyorlash choralarini ko'rish zarur":

- Mamlakatimizda so'ngi yillarda oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ilm-fanni rivojlantirish, o'qitishning zamonaviy shakl va texnologiyalarini joriy etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

- O'tgan davr mobaynida iqtisodiyotning real sektori va ijtimoiy soha ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda hududlarda yangi, shu jumladan, etakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalari tashkil etildi, zamonaviy o'quv bosqichlari joriy etilib, talab yuqori bo'lgan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha kadrlarni tayyorlash yo'lga qo'yildi.

- Shu bilan birga, mamlakatimizda jadal sur'atlar bilan amalga oshirilayotgan ijtimoiy – siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa sohalaridagi isloqotlar Vatanimiz istiqboli uchun ma'suliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan, yurt ravnaqi yo'lida munosib hissa qo'shuvchi malakali kadrlar tayyorlashni ustuvor vazifalardan biri etib belgilamoqda.

- Oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, sohada davlat boshqaruvi samaradorligini yanada oshirish, tizimdagi muassasalarning sifatli faoliyat yuritishini ta'minlash orqali yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni tashkil etish hozirgi kunda asosiy maqsad hisoblanadi.

- Ushbu maqsadga erishish uchun mos ravishda, shuningdek, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasidan ko'zlangan holda bir qator muhim vazifalar qo'yilgan. Jumladan:

- Ilg'or xalqaro tajribalar asosida ta'lim tizimini takomillashtirish, xalqaro aloqalarni kengaytirish va mustaxkamlash, hamkorlikdagi qo'shma oliy ta'lim sohasida erishilgan yutuqlarni xalqaro miqiyosida keng yoritish;

- Zamonaviy o'quv adabiyotlarini yaratish orqali ta'lim jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish hamda o'qitishning ilg'or shakllari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

- Ish beruvchilarning ehtiyojlari va takliflaridan qamda xorijiy tajribadan kelib chiqib mehnat bozoridan talab etiladigan mutaxassislarni tayyorlash uchun o'quv rejaları va dasturlar ishlab chiqishni tashkil etish.<sup>2</sup>

Yaqinda Mustaqillikning 29 yilligini nishonlash arafasida turgan O'zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyotini bosqichma-bosqich, oldindan puxta ishlangan model asosida qurayotganligi natijasida, mustahkam moliyaviy, iqtisodiy, byudjet, bank kredit tizimi, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydigan resurslar zahirasi yaratildi. Bugungi kunda respublikamiz tashqi iqtisodiy aloqalar sohasida taraqqiy etgan etakchi davlatlar bilan hamkorlikda ish olib borayotgani, yurtimizga investisiyalar orqali yangi texnika va texnologiyalarning kirib kelayotgani hech kimga sir emas. Shunga qaramasdan, O'zbekiston ham inqirozni bartaraf etishning zaruriy chora tadbirlarini ishlab chiqishi zarur.

Yurtimizda 2017-2021 yillarda mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasini beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Xarakteristik strategiyasini Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yilida amalga oshirishga oid Davlat dasturiga muvofiq oliy ta'lim tizimida ham bir qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni yaxshilash va kengaytirish bilan bir vaqtda oliy ta'lim tizimini isloh qilishni talab qiladi. Buning uchun, birinchi navbatda, oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha Davlat standartlarida ko'zlangan fanlarning mazmuni va o'quv dasturlarini xalqaro andozalarga moslashtirib takomillashtirish zarur.

---

<sup>2</sup> Mirziyoev Sh.M. Oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Xalq so'zi gazetasi, 12.07.2019 №142

Ushbu o'quv qo'llanma oliy ta'limning "Statistika" ta'lim yo'nalishi bo'yicha tahsil oluvchi talabalar uchun Davlat ta'lim standartlari talablarida ko'zlangan "Xalqaro statistika" fanining O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan Namunaviy Dasturiga muvofiq tayyorlangan.

Mazkur o'quv qo'llanma xalqaro statistikaning muhim masalalarini ko'rib chiqishga bag'ishlangan. Unda ilg'or pedagogik texnologiyalaridan va interaktiv ta'lim usullaridan foydalanilgan. Har bir mavzu masalalarini bayon etishda dasturlangan o'quv texnologiyasi tamoyillari qo'llanilgan. Jumladan, asosiy ilmiy tushuncha va kategoriyalar hamda nazariy masalalar mazmunini oydinlashtirish uchun dastlab ular muhim mantiqiy tuzilmaviy elementlar va xarakterli jihatlarga ajratilib, sxema – tarhlar, chizma va boshqa ko'rgazmali shakllar orqali tasvirlangan. So'ngra ular har taraflama izohlanib, hayotiy misollar yordamida tushuntirib berilgan.

Mamlakatimizdagi ko'plab korxonalar va tashkilotlarning tashqi bozorga chiqishi, hamda ularda faoliyat ko'rsata oladigan tashqi iqtisodiy aloqalar bo'yicha mutaxassislarining zarurligi iqtisodiy yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlarida «Xalqaro statistika» fanini o'qitilishini zaruriyat qilib qo'ydi.

Korxonalar va tashkilotlarning tashqi iqtisodiy faoliyati ayniqsa bozor iqtisodiyoti sharoitida alohida ahamiyatga egadir.

«Xalqaro statistika» fanini o'rganish, talabalardan o'qish jarayonida statistika nazariyasi, makroiqtisodiy statistika, tashqi iqtisodiy faoliyat, iqtisodiy nazariya va boshqa fanlarni chuqur va mukammal bilishlarini taqozo etadi.

Har bir mavzu qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati, qisqacha xulosalar, asosiy atama va tushunchalar, mustaqil ishlash uchun savollar va topshiriqlar bilan yakunlangan. Shu sababli ushbu o'quv qo'llanma talabalar statistik bilimlarni mustaqil o'rganishi uchun ko'maklashadi degan umiddamiz.

O'quv qo'llanmada Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida ko'p yillar davomida fanni o'qitish jarayonida

to'plangan tajribalar umumlashtirilgan. Ushbu o'quv qo'llanma kamchiliklardan holi emasligini mualliflar oldindan e'tirof etib, uning mazmuni bo'yicha qilingan holisona taklif va maslahatlarini bajonidil qabul qilishini bildiradi va sezgir kitobxonlar o'z fikrlarini quyidagi manzilgohga yozib yuboradilar deb umid qiladi: Toshkent - 700063, Chilonzor tumani, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy, TDIU, Statistika kafedrası .

*Mualliflar*



# 1-MAVZU: XALQARO STATISTIKANING PREDMETI VA METODI

## 1. Qisqacha metodik ko'rsatmalar

Xalqaro statistika tushunchasi bir necha jihatlarga ega.

Birinchidan, bu mamlakatning ko'plab davlatlari va turli xalqaro tashkilotlarning milliy statistika organlari tomonidan chop etilgan mamlakatga o'xshash ma'lumotlarni jamlamasi;

Ikkinchidan, bu statistika nazariyasi va metodologiyasini ishlab chiqish, statistika sohasida xalqaro hamkorlik, metodologik va amaliy masalalarni hal qilishda ilg'or tajriba almashish va axborot almashishning rivojlanishiga yordam berish uchun mo'ljallangan xalqaro tashkilotlarning (BMT ichida va undan tashqarida) statistik ko'rsatkichlarini xalqaro taqqoslanishini ta'minlash, ijtimoiy-iqtisodiy statistika turli bo'limlari uchun xalqaro standartlarni ishlab chiqish, manfaatdor davlatlarga zamonaviy statistika usullarni yaratish bo'yicha yordam berish, xalqaro munosabatlarda taqqoslanadigan statistik taqsimotdir;

Uchinchidan, ijtimoiy-demografik va iqtisodiy statistikaning turli yo'nalishlari bo'yicha yagona xalqaro tushunchalar, ta'riflar, tasniflar va ko'rsatkichlar mavjud bo'lgan xalqaro standartlar tizimidir.

Xalqaro statistikaning asoschisi deb haqli ravishda belgiyalik olim Adolf Ketleni (1796-1874) hisoblash mumkin. Chunki u birinchilardan ho'lib to'plangan statistik ma'lumotlarga statistik usullar yordamida ishlov berishni qo'lladi. U shuningdek ilk bor Belgiyada Markaziy statistik komissiyani tashkil qilishda taniqli matematik olimlar bilan jonbozlik qildi. A. Kettle matematik bo'lgani uchun u o'z tahlillarida matematik tamoyillariga suyanadi. Ushbu holat statistikani vujudga kelishida boshqa mamlakatlarda statistik tashkilotlarning shakllanishida ham o'z ifodasini topdirlab chiqarishet el mamlakatlarida hozirgi kunda xalqaro statistikasi matematikaning alohida qismi sifatida tashkil topdi.

Xalqaro statistika sohasida ayrim olimlar olib borgan ishlari tahsinga va e'tiborga loyiqdir. Masalan, Buyuk Britaniyalik Florens

Naytingeyl (1820-1910), o'zining tibbiyot sohasidagi ishlarida statistika usullaridan keng ko'lamda foydalandi va ulardan foydalanishni siyosatchilar, huquqshunoslar va ishbilarmonlar o'rtasida targ'ib qilishga e'tibor berdi.

Statistika rivojiga ingliz olimi Karl Pirson (1857-1936) xam ma'lum darajada o'z hissasini qo'shdi. Uni biz «Pirson mezoni» bo'yicha yaxshi bilamiz.

Statistikada korrelyasion usulning ravnaqida ingliz Frensis Galtonning (1822-1911) xizmatlari kattadir.

Keyinchalik statistika rivojiga o'zining salmoqli hissasini qo'shgan olimlardan biri Ronald Fisher (1890-1962) bo'ladi.

Xalqaro statistika ham o'z ob'ektini xususiy metodlari yordamida o'rganadi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Ommaviy statistik kuzatish metodi;
2. Kuzatish ma'lumotlarini jamlash va guruhlash;
3. Turli umumlashtiruvchi ko'rsatkichlarni (masalan, mutloq va nisbiy miqdor, o'rtacha miqdor, indeks va hakoza) hisoblash;
4. Tanlanma kuzatish usuli, statistik ma'lumotlarni jadval va grafiklar ko'rimishda ifodalash.

Ushbu metodlardan foydalanish ushbu qo'llanmaning tegishli mavzularida keng yoritiladi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xalqaro statistika oldida quyidagi muhim vazifalar turadi:

1. Tashqi iqtisodiy faoliyatni, boshqarishni va keng jamoatchilikni haqqoniy statistik ma'lumotlar bilan ta'minlash.
2. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xalqaro iqtisodiy aloqalarni har tomonlama keng qamrovli ifodalovchi yangi statistik ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish.
3. Mamlakatimiz turli tarmoqlari iqtisodiy faoliyatini chet el mamlakatlari iqtisodiyoti bilan muvofiqlashtirish yordamida yuzaga keladigan iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash va tahlil qilish
4. Chet el mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalar samaradorligini oshirish manbalarini va omillarini aniqlash.

### **Mustaqil nazorat savollar:**

1. Xalqaro statistikaning predmeti deganda nimani tushinasiz?
2. Xalqaro statistika metodologiyasini tushuntirib bering?
3. Xalqaro statistikaning vazifalari nimalardan iborat?
4. Xalqaro statistika qanday tashkil etilgan?
5. Xalqaro statistikaning tuzilishi deganda nimani tushunasiz?

## **2-MAVZU. XALQARO STATISTIK TASHKILOTLAR VA CHET EL MAMLAKATLARIDA STATISTIKANING TASHKIL ETILISHI**

### **1. Qisqacha metodik ko'rsatmalar**

Xalqaro statistika 1842 yili xalqaro statistiklar anjumani ko'rinishida yuzaga kelgan bo'lsada, Ikkinchi Jahon urushidan keyin xalqaro statistikaning rivojlanishida yangi bosqich boshlanadi. Uning asosiy sababi statistik ma'lumotlarni to'plash, ularga ishlov berish, saqlash ishlari xalqaro miqyosida keng quloch yozdi. 1946 yili BMT qoshida statistika komissiyasi faoliyat ko'rsata boshladi. Ushbu komissiyaga quyidagi ishlarni amalga oshirish yuklatildi:

- 1) xalqaro statistikaning rivojlanishiga va uni taqqoslash ishlarini olib borishlariga ko'maklashish;
- 2) ixtisoslashgan tashkilotlarning statistik ishlarini muvofiq-  
lashtirishda ko'maklashish;
- 3) BMTning turli tashkilotlari statistik ma'lumotlarni to'plash va tarqatish bo'yicha ko'maklashish;
- 4) xalqaro miqyosida statistika ishining hamda statistik metodlarning yaxshilanishiga ko'maklashish.

BMTning statistika komissiyasi o'zining asosiy ish faoliyati shaklida har 2 yilda bir marotaba yig'ilishib turadigan sessiyalarini hisoblaydi. Uning tarkibi doimo yangilanib turadi.

AQSH, Angliya, Fransiya, Xitoy, Hindiston va Rossiya vakillari, doimiy a'zo hisoblanadi. Jami 24 ta mamlakat vakill komissiya tarkibiga kiritiladi. Bu komissiya tarkibida, shuningdek statistika byurosi ham faoliyat ko'rsatadi. Uning zimmasiga xalqaro savdo statistikasi, demografik va sotsial statistika, milliy hisoblar tizimi, xalqaro aloqalar va boshqa statistika tarmoqlari bo'yicha ma'lumotlar to'plash va ularga ishlov berish vazifalari yuklangan.

BMTning xalqaro statistik standartlarining ishlab chiqarish quyidagi tamoyillarga asoslanadi.

*Birinchi bosqichda*, yangi yoki xarakterda bo'lgan xalqaro tavsiyalarining mukammalligini ishlab chiqish, masalan: nomoddiy faoliyatlar ko'rsatkichlarini hisohlashda yangi standartlarni ishlab chiqish uchun talablar aniqlanadi.

*Ikkinchi bosqichda*, BMT SK ekspertlar taklifini to'playdi va umumlashtirib loyihani milliy statistika organlariga baho va mulohaza qilishga yuboradi.

*Uchinchi bosqichda*, BMT SK ushbu tavsiya loyihasi bo'yicha aniq mulohazalarni olgandan keyin, u ushbu fikr, mulohaza va tuzatishlarni umumlashtirib BMT xujjatining yagona loyihasi shakliga keltiradi.

*To'rtinchi bosqichda*, BMT SK bu fikr – mulohaza va tuzatishlarni BMT xujjatining loyihasiga kiritadi, shu bilan birga uni BMT SKga taqdim etadi.

*Beshinchi bosqichda*, BMT SKga taqdim etilgan BMT xujjatining loyihasini har tomonlama muhokama qiladi va zaruriyat paytida tuzatishlar yoki aniqliklar kiritadi. Bundan keyin xujjat loyihasi EKOSOSga topshiriladi.

*Oltinchi bosqichda*, BMTning statistik standart tavsiyasi EKOSOSning majlislaridan birida ko'rib chiqib tasdiqlanadi va keyin xalqaro tashkilotlar va mamlakatlarning statistik organlari qo'llaydigan BMTning rasmiy xujjati bo'ladi.

2018 yildan boshlab, Davlat statistika qo'mitasi tomonidan quyidagi 6 ta mezon asosida hududiy statistika organlarining statistika faoliyati samaradorligini baholash joriy etildi:

*ma'lumotlarning aniqligi va ishonchliligi* – birlamchi ma'lumotlarning to'liq yig'ilishi, xolisligi va haqqoniyligi, tanlab olishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatolarni minimallashtirish;

*o'z vaqtidalik va puxtalik* – statistik ma'lumotlarni Davlat statistika ishlari dasturi, xalqaro tavsiyalar va foydalanuvchilarning ehtiyoji bilan belgilangan muddatlarga qat'iy amal qilgan holda chiqarish;

*o'zaro bog'liqlik va qiyosiylik* – yagona metodologiya, statistik ko'rsatkichlarning talab qilingan ma'lum vaqt davomida, hududlar kesimida va xalqaro miqyosda qiyosiyligi;

*qulaylik va ochiq-oydinlik* – Internet tarmog‘ida va ommaviy axborot vositalarida statistika yo‘nalishlari bo‘yicha statistik ko‘rsatkichlar to‘plamidan, tegishli tahliliy va vizual materiallardan, ma‘lumotlar tavsifi, usullar va uslubiyatdan erkin foydalanish imkomiyati;

*hisobot taqdim etuvchi sub'ektlarga hisobot yuklamasining mo'tadilligi* – ma‘lumot yig‘ish uchun axborot texnologiyalaridan foydalanish, sub'ektlarning davlat statistika kuzatuvlari shakllarini to‘ldirish vaqtini minimallashtirish, boshqa davlat boshqaruvi organlari bilan idoralararo axborot almashish;

*statistik instrumentariydan puxta foydalana olish* – xodimlarning kasbiy tayyorgarlik darajasini doimiy oshirib borish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, kasbiy odob-ahloq tamoyillariga rioya qilish.

BMT SK tomonidan rasman e’tirof etilgan “shahar” guruhlarini quyidagilar:

- **Vorburg guruhi.** Faoliyat yo‘nalishi: xizmatlar statistikasi. Tashkilotchilar: BMT Kotibiyatining Statistika bo‘limi, Kanada statistika boshqarmasi;

- **Ottava guruhi.** Faoliyat yo‘nalishi: narxlar statistikasi. Tashkilotchilar: BMT Kotibiyatining Statistika bo‘limi, Kanada statistika boshqarmasi;

- **London guruhi.** Faoliyat yo‘nalishi: ekologiya hisob-kitobi. Tashkilotchilar: BMT Kotibiyatining Statistika bo‘limi, Evrostat;

- **Parij guruhi.** Faoliyat yo‘nalishi: mehnat va ish haqi statistikasi. Tashkilotchilar: BMT Kotibiyatining Statistika bo‘limi, Fransiya statistika va iqtisodiy tadqiqotlar milliy instituti;

- **Dehli guruhi.** Faoliyat yo‘nalishi: norasmiy sektor statistikasi. Tashkilotchilar: BMT Kotibiyatining Statistika bo‘limi, Hindiston statistika Departamenti;

- **Kanberra guruhi.** Faoliyat yo‘nalishi: uy xo‘jaliklari daromadlari statistikasi. Tashkilotchilar: BMT Kotibiyatining Statistika bo‘limi, Avstraliya statistika byurosi;

- **Sien guruhi.** Faoliyat yo‘nalishi: ijtimoiy statistika. Tashkilotchilar: BMT Kotibiyatining Statistika bo‘limi, Evrostat;

- **Rio guruhi.** Faoliyat yo'nalishi: qashshoqlik statistikasi.  
Tashkilotchilar: BMT Kotibiyatining Statistika bo'limi;

- **«Davra stoli».** Faoliyat yo'nalishi: tashkilotlar reestri va biznes kuzatuvlari. Tashkilotchilar: BMT Kotibiyatining Statistika bo'limi.

Shu kabi funksiyalar BMT SK qarorlari asosida yaratilgan ekspertlarning maqsadli guruhlarini tomonidan ham amalga oshiriladi.

Statistika nazariyasi va amaliyotini takomillashtirish borasida o'z ish faoliyatini quyidagi seksiyalar bo'yicha tashkil etib boradigan Xalqaro statistika instituti (XSI) muhim o'rin tutadi:

- Matematik va ehtimollar statistikasi bo'yicha Bernulli jamiyati;
- Rasmiy statistika xalqaro assotsiatsiyasi;
- Statistik kuzatuvlar xalqaro assotsiatsiyasi;
- Statistika kompyuterlashtirish xalqaro assotsiatsiyasi;
- Statistik ta'lim xalqaro assotsiatsiyasi.

2018 yilda O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tomonidan xalqaro tashkilotlarning 23 ta savolnomasi bo'yicha so'ralgan ma'lumotlarni taqdim etib borish rejalashtirilgan. Bularning asosiylari quyidagilar:

#### 1. **BMT Kotibiyati Statistika bo'limi:**

- sanoat ishlab chiqarish statistikasi bo'yicha yilnomaga oid savolnoma;
- sanoat ishlab chiqarish indekslari bo'yicha so'rovnomalalar;
- xizmatlar xalqaro savdosi bo'yicha so'rovnoma;
- Demografiya yilnomasi bo'yicha savolnomalar (aholi sonini baholash; xalqaro migratsiya va sayohatlar; aholining tabiiy harakati).

#### 2. **BMT Evropa Iqtisodiy Komissiyasi:**

- alohida makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha savolnoma (narxlar indeksi, sanoat ishlab chiqarish indeksi, ish haqi, bandlik, ishsizlik, ichki va tashqi savdo);
- BMTning milliy hisoblar bo'yicha savolnomasi.

#### 3. **BMT Osiyo va Tinch okeani mintaqasi iqtisodiy-ijtimoiy komissiyasi (ESKATO):**

– “Osiyo va Tinch okeani mintaqasi raqamlarda” nashrini chop etish bo‘yicha savolnoma (aholi statistikasi, ijtimoiy statistika, bandlik, energetika, milliy hisoblar, tashqi savdo, moliyaviy statistika, narxlar indeksi, sanoat ishlab chiqarish, yerlardan foydalanish, transport, turizm);

– ESKATO yilnomasi bo‘yicha savolnoma (aholi statistikasi, bandlik, ishsizlik, ish haqi, energetika, tashqi savdo, moliyaviy statistika, narxlar indeksi, sanoat ishlab chiqarish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, yerlardan foydalanish, o‘g‘itlar, baliqchilik, sanoat ishlab chiqarish, transport, yo‘l-transport hodisalari).

#### **4. BMT Ta‘lim, ilm-fan va madaniyat masalalari bo‘yicha tashkiloti (YUNESKO):**

– tadqiqot va eksperimental ishlanmalar bo‘yicha savolnoma;  
– film va kinoteatrlar yuzasidan statistik ma‘lumotlar savolnomasi;

- savodxonlik statistikasi bo‘yicha savolnoma;
- innovatsiyalar statistikasi bo‘yicha savolnoma;
- ta‘lim bo‘yicha savolnoma;
- ta‘lim bo‘yicha savolnoma (milliy ta‘lim tizimi);
- ta‘lim bo‘yicha savolnoma (TQST 0-4);
- ta‘lim bo‘yicha savolnoma (TQST 5-8).

#### **5. BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO):**

– qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish statistikasi bo‘yicha savolnoma.

#### **6. BMT Xalqaro bolalar favqulodda jamg‘armasi (YUNISEF):**

- CRING ma‘lumotlar banki bo‘yicha axborotlar;
- TransMonEE ma‘lumotlar banki bo‘yicha axborotlar.

#### **7. Evrostat, Xalqaro Transport Jamg‘armasi (XTF), BMT EIK:**

- transport statistikasi bo‘yicha umumiy savolnoma.

#### **8. Xalqaro elektraloqa ittifoqi (XEI):**



– uy xo'jaliklarida AKTlardan foydalanish holati bo'yicha savolnoma.

**9. MDH Statistika qo'mitasi:**

– MDH mamlakatlarida davlatlararo statistik ma'lumot almashish yuzasidan savolnoma.

**10. Osiyo Taraqqiyot Banki (OTB):**

– Osiyo va Tinch okeani mintaqasida barqaror rivojlanish maqsadlari va gender tenglik masalalari bo'yicha savolnoma.

**11. Xalqaro Valyuta Jang'armasi (XVJ):**

– XVJning k-MTUT (e-GDDS) doirasida Yig'ma ma'lumotlar milliy sahifasida ma'lumotlarni e'lon qilib borish.

Shu bilan birga, Davlat statistika qo'mitasi tomonidan boshqa xalqaro tashkilotlar, iqtisodiy va moliyaviy institutlar va boshqa tashkilotlarning ham so'rovlari asosida zarur ma'lumotlar taqdim etib boriladi.

**Halqaro tashkilotlarga axborot tarqatish**

BMT Kotibiati	YUNESKO	Evrostat	XVJ
BMT EIK	YUNISEF	XEI	OTB
ESKATO	FAO	MDH Statistika qo'mitasi	boshqalar

**Mustaqil nazorat savollar:**

1. BMTning qanday statistik tashkilotlari mavjud?
2. Rivojlangan mamlakatlarda statistik xizmatni tashkil etilishining asosiy tamoyillari nimalardan iborat?
3. MDH mamlakatlarida statistika xizmatining tashkil etilishi haqida nimalarni bilasiz?

TDIU



4. Boshqa xalqaro tashkilotlarda statistik xizmatning tashkil etilishi.
5. BMTning ixtisoslashgan tashkilotlari.
6. BMT qoshidagi Statistika Komissiyasi faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
7. Xalqaro statistika instituti faoliyati.
8. Evrostat faoliyati to'g'risida nimalarni bilasiz?
9. Chet el mamlakatlarida statistik xizmatning tashkil etilishi.
10. Xalqaro statistika instituti ish faoliyatining tashkil etilish tamoyillari.

### 3-MAVZU. XALQARO DEMOGRAFIK STATISTIKA

#### 1. Qisqacha metodik ko'rsatmalar

Xorijiy mamlakatlardagi innovatsion tendensiyalarning ta'siridagi demografik jarayonlar etakchi mutaxassislar tomonidan hozirgi davrda insoniyatning eng muhim va dolzarb omillar sifatida tan olinmoqda. O'zbekistonda ham keyingi yillari bu masalalar, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etmoqda. Aholi miqdorining o'zgarish dinamikasi, barcha hududlarda mutanosib joylashuvi, tarkibiy tuzilishi ko'pincha davlatimizning iqtisodiy rivojlanishning strategik omillari va uning kelajak uchun ijtimoiy-iqtisodiy parametrlarini shakllantirishiga ta'sir etuvchi asosiy omil hisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, O'zbekistonning demografik jarayonlari hozirgi xalqaro demografik nizomlarga muvofiq sog'lom tarzda rivojlanib bormoqda.

Dunyo tajribasidan kelib chiqib ta'kidlaydigan bo'lsak, bugungi rivojlanish davrida dunyoning barcha davlatlari kabi O'zbekiston ham demografik sohasida evolyusion jarayonlarni, ya'ni demografik o'tishning muayyan bosqichlarini ko'rish muqarrardir. Ma'lumki, ularning birinchisi yuqori darajadagi tug'ilish va o'lim miqdori bilan bog'liq bo'lib, ko'p sonli katta oilalar va avlodlarning tez o'zgarishi bilan ajralib turadi. Ikkinchi bosqichda ijtimoiy taraqqiyot va sog'liqni saqlash sohasidagi muvaffaqiyatlar tufayli o'lim darajasi keskin kamayishi, ammo tug'ilishning yuqori darajasi saqlanib qolishi bilan ajralib turadi, bu aholi miqdorining keskin va nazoratsiz o'sishiga olib keladi. O'zbekiston dunyoning ko'plab davlatlari singari o'zining demografik rivojlanishida ikkinchi bosqichdan o'tib, hozirgi davrda tarkibida yosh aholi o'sib borishi tufayli va umumiy o'lim ko'rsatkichi tug'ilish darajasidan yuqoriroq bo'lgan uchinchi bosqichda amal qilmoqda.

Jahon amaliyotida demografik rivojlanishning to'rtinchi bosqich o'lim ko'rsatkichi tug'ilishdan oshib ketishi bilan ifodalinishi va depopulyasiya jarayoni kirib kelishi bilan xarakterlidir, ya'ni aholining tabiiy o'sishi tarkibida tez sur'atlar

bilan demografik qarishi tufayli aholining mutlaq kamayishiga olib kelishini belgilab beradi. Tabiiyki, zamonaviy sharoitlarda depopulyasiya jarayoni davlatning demografik va ijtimoiy xavfsizligiga tahdid soluvchi va xavf tug'diradi, chunki bu resursni manba jihatidan sezilarli darajada zaiflashtiradi va mehnat resurslari shakllanishida va aholining ish bilan bandlik darajasida boshqa mamlakatlarga qaram bo'lib qolishiga sabab bo'lib qoladi. Bu jarayon hozirgi bosqichda ko'plab Evropa davlatlari hamda MDHda — Rossiya, Ukraina, Boltiqbo'yi respublikalarida avj surmoqda.

Aholi statistikasida kuzatish ob'ekti bo'lib esa turli xil yig'indilar: butun aholi, aholining alohida guruhleri, mehnat resurslari va xakozolar bo'lishi mumkin.

Ro'yxatga olishlar orasida jamiyatda yuz bergan demografik va ijtimoiy jarayonlar haqidagi ma'lumotlarni olish uchun, odatda, tanlama kuzatish o'tkaziladi.

Aholini ro'yxatga olish aholi soni haqidagi aniq sana va aniq davrga doir ma'lumotlarni beradi. Aholini ro'yxatga olishlar o'rtasidagi aholi sonini aniqlash boshlang'ich ma'lumotlar va aholini tabiiy va mexanik harakati haqidagi joriy statistik ma'lumotlar asosida hisoblash yo'li bilan aniqlanadi: *yil boshidagi aholining soni + shu yilda tug'ilganlar soni + shu yilda kelganlar soni - shu yilda o'lganlar soni - shu yilda chiqib ketganlar soni = yil oxiridagi aholi soni.*

Alohida aholi yashash joylaridagi aholining ma'lum muddatdagi sonini aniqlashda aholining shu joyda doimiy yashovchi va hisobga olinadigan vaqtda mavjud bo'lgan sonini z'tiborga olish lozim.

Yashash joyining doimiy aholisiga hisobga olish davrida shu yerda yashayotgan shaxslar, mavjud aholiga esa hisobga olish davrida shu erda bo'lgan barcha shaxslar kiradi. Bunda ularning bir joyga vaqtincha yoki doimiy kelmagani hisobga olinadi.

Har qanday joyning aholisi yil davomida o'zgarib turadi, shuning uchun umumiy ko'rsatkichlarni hisoblash uchun statistikada aholining yil mobaynidagi harakati e'tiborga olinadi.

$$DA = MA + VY - VYA$$

$$MA = DA - VY + VYA$$

Bunda: DA - doimiy axoli soni;  
 MA - mavjud aholi soni;  
 VY - vaqtincha yo'q bo'lgan aholi soni;  
 VYA - vaqtincha yashayotgan aholi soni.

Aholining o'rtacha yillik soni odatda oddiy o'rtacha arifmetik formula bo'yicha aniqlanadi. Bunda aholining muayyan davr boshidagi va davr oxiridagi soni ko'rsatkichlari qo'shib ikkiga bo'linadi:

$$\bar{s} = \frac{(S_1 + S_2)}{2}$$

Aholi soni xaqidagi ma'lumotlar bir iecha teng oraliqli sanalarga, masalan, har bir oyning birinchi kuniga nisbatan berilgan bo'lsa, aholining o'rtacha yillik soni o'rtacha xronologik formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\bar{s} = \frac{(\frac{1}{2} \cdot S_1 + S_2 + \dots + S_{n-1} + \frac{1}{2} \cdot S_n)}{n-1}$$

Mamlakat aholisi uning hudud bo'yicha joylashishi nuqtai nazaridai shahar aholisi va qishloq aholisiga bo'linadi. SHahar aholisiga shaharlarda va shahar ko'rinishidagi posyolkalarda yashovchi, qishloq aholisiga esa qishloq joylarida yashovchi barcha shaxslar kiradi.

O'zbekiston Respublikasi aholisi soni 2000 yil I aprelda 24 548 ming kishini tashkil etadi. Ularning 60%dan ziyodrog'i qishloqlarda yashaydi. Aholi soni bo'yicha O'zbekiston MDXda Rossiya va Ukrainadan cho'ng uchinchi o'rinda turadi. Aholi zichligi 1 kv. km ga 53,3 kishini (1998y) tashkil etadi. O'zbekistonda Markaziy Osiyo mintaqasining 40%i aholisi yashaydi.

Aholidan murakkab majmuani alohida guruhlar va guruhchalarga bo'lmasdan o'rganib bo'lmaydi. Bu amal avvalo

aholi tarkibi haqidagi turli xil ko'rsatkichlar bo'yicha muayyan tasavvur beradi.

Aholi statistikasida aholini guruhlash quyidagilar bo'yicha olib boriladi: jinsi, yoshi, oilaviy aholi, millati.

Ma'lumki, aholi soni muttasil o'zgarib turadi. Aholi sonining tug'ilishlar va o'lishlar hisobiga o'zgarishi *aholining tabiiy harakati* deb ataladi.

Aholning tabiiy harakatini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar tug'ilish, o'lish, tabiiy o'sish ko'rsatkichlari, shuningdek, ular bilan bog'liq bo'lgan nikohdan o'tish va ajralishlar soni hisoblanadi.

Aholining tug'ilish, o'lish, tabiiy ko'payish ko'rsatkichlari mutloq ifodalarda hisobga olinadi. Aholining tabiiy o'sishi bu tug'ilganlar bilan o'lganlar orasidagi farqqa teng. Lekin aholining tabiiy xarakati ko'rsatkichlari to'g'rilish, o'lish, tabiiy o'sish darajalarini ifodalay olmaydi, bu aholning umumiy soniga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun aholining tabiiy harakatini ifodalash uchun qayd etib o'tilgan ko'rsatkichlar 1000 kishiga nisbatan hisoblanadi, ya'ni nisbiy ko'rsatkich promille (‰)da hisoblanadi.

Aholi tabiiy harakatining asosiy nisbiy ko'rsatkichlar quyidagilar hisoblanadi: tug'ilish koeffitsienti, o'lish koeffitsienti, tabiiy o'sish koeffitsienti, nikohdan o'tish koeffitsienti, ajralish koeffitsienti. Nikohdan o'tish koeffitsientini aniqlash uchun joriy yildagi nikohlar soni aholining o'rtacha yillik soniga bo'linadi, ajralish koeffitsientini esa, shu yilda bekor qilingan nikohlar sonini aholining o'rtacha yillik soniga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

Tug'ilish va o'lish orasidagi farqni aniqlash uchun aholi statistikasida hayotiylik ko'rsatkichiga tayaniladi. U o'zida tug'ilganlar soni bilan o'lganlar soni orasidagi farqni ifoda etadi.

Aholning tabiiy xarakatini ifodalovchi barcha ko'rsatkichlar odatda bir yilga nisbatan hisoblanadi. Lekin ayrim hollarda u bir muncha uzoqroq davr oralig'ida nisbatan ham hisoblanishi mumkin.

Aholi statistikasida quyidagi maxsus koeffitsientlar ham hisoblanadi:

a) ayollarning alohida yoshlari bo'yicha guruhlari uchun tug'ilish koeffitsienti;

$$b) K_{\max.tug} = (T * 1000) / S_{15-49} \text{ yosh ayollar}$$

Bu erda T – tug'ilgan bolalar soni;  $\bar{S}$  – 15-49 yoshgacha bo'lgan ayollarning o'rtacha yillik soni;

v) vafot etish koeffitsienti;

g) tabiiy o'sish koeffitsienti;

d) nikox qurish va ajralish koeffitsienti;

e) xayotiylik koeffitsienti.

Aholi soni o'zgarimasdan doimiy bir xil bo'lib qolmaydi. Aholi soni tug'ilish, vafot etish hisobiga o'zgarib turadi. Tabiiy harakatni ifodalovchi ko'rsatkichlar bu tug'ilish, vafot etish va tabiiy o'sish koeffitsientlaridir.

### I. Aholining umumiy tug'ilish koeffitsienti.

Bir yilda tug'ilganlar sonini 1000 ga ko'paytiriladi. Hosila aholining o'rtacha yillik soniga nisbatiga teng bo'ladi, ya'ni:

$$K_{\text{tug'lish}} = (T * 1000) / \bar{S}$$

Bu erda T – tug'ilgan bolalar soni;

$\bar{S}$  – aholining o'rtacha yillik umumiy soni.

### 2. Vafot etish koeffitsienti.

Vafot etish koeffitsienti yil davomida vafot etganlar sonini 1000 ga ko'paytirilgach, olingan natija aholini yillik o'rtacha soni nisbatiga teng:

$$K_{\text{vafot}} = (V * 1000) / \bar{S}$$

Bu erda V – vafot etganlar soni.

### 3. Tabiiy o'sish koeffitsienti. $K_{\text{tab.us}} = K_{\text{tug}} - K_{\text{vafot}}$

### 4. Nikox qurish koeffitsienti:

$$K_{\text{nikox}} = (N * 1000) / \bar{S}$$

N – nikoh ko'rganlar soni.

5. Tug'ilish va vafot etish orasidagi nisbat hayotiylik koeffitsientini hisoblaydi.

### 6. Ajralish koeffitsienti:

$$K_{\text{ajralish}} = (A * 1000) / \bar{S}$$

Bu yerda A – ajrashganlar soni.

Alohida aholi punktlari, hududlari aholining soni faqat tabiiy xarakat natijasida o'zgarimasdan, balki mexanik xarakat natijasida

yoki alohida shaxslarning xududiy ko'chishi natijasida, ya'ni aholi migratsiyasi ham o'zgaradi.

Aholining mamlakat ichkarisida u erdan bu erga ko'chishi ichki migratsiya, bir mamlakatdan boshqa mamlakatga ko'chishi esa tashqi migratsiya deb ataladi. Ichki va tashqi migratsiya har xil sabablardan kelib chiqishi mumkin: masalan, ish qidirish sababli.

Har bir aholi punkti va umuman mamlakat uchun aholi migratsiyasining asosiy ko'rsatkichlari quyidagilar hisoblanadi: kirib kelganlar soni, chiqib ketganlar soni va ularning koeffitsientlari.

Kirib kelish koeffitsienti quyidagicha hisoblanadi:

$$K_{\text{kirib kelish}} = (\text{kirib kelganlar soni} / \bar{s}) \cdot 1000$$

Chiqib ketish koeffitsienti quyidagicha hisoblanadi:

$$K_{\text{chiqib ketish}} = (\text{chiqib ketganlar soni} / \bar{s}) \cdot 1000$$

$$K_{\text{mex.o's}} = (\text{kirib kelganlar soni} - \text{chiqib ketganlar soni}) / \bar{s} \cdot 1000$$

Kirib kelganlar va chiqib ketganlar soni mamlakat bo'yicha hisoblanadi, shuningdek, u jinsi, yoshi migratsiyasi sabablari bo'yicha taqsimlanadi.

Migratsiya haqidagi ma'lumotlarning tahlili aholining davlatning qae'riga va qae'ridan, qanday miqdorda ko'chishi yuz berayotganligini ko'rsatadi, bu esa o'z navbatdagi ko'plab xo'jalik va boshqa tadbirlarni rejalashtirishda muhim hisoblanadi.

Aholining kelajakda ma'lum vaqt oralig'idan keyin bo'ladigan sonini turli xil usullar yordamida aniqlash mumkin.

Aholi sonining umumiy istiqbolini ma'lum tahlil qilinayotgan ma'lum davrda aholi sonining tabiiy va mexanik o'sishi haqidagi ma'lumotlar asosida aniqlanadi. Masalan, agar aholining soni muayyan davr boshiga ma'lum bo'lsa va umumiy o'sish koeffitsienti hisoblangan bo'lsa, u holda aholi sonining t yildan keyin bo'ladigan istiqbolini quyidagi formula bilan hisoblash mumkin.

$$S_{b+t} = S_b (1 + K_{\text{um.o's}})^t \cdot 1000$$

$S_b$  – rejalashtirilayotgan davr boshiga aholi soni;

$T$  – bashorat qilinayotgan yillar soni;

$K_{\text{um.o's}}$  – shu davrga aholining umumiy o'sish koeffitsienti.

Umumiy aholi sonini bashorat qilishning boshqa usuli ham mavjud. U dinamika qatorlarini ekstropoliyasiya qilishga asoslanadi.

Aholi soni istiqbolini alohida yosh bo'yicha guruhlarga ajratib ham hisoblash mumkin. Buning uchun aholi soni va yosh strukturasi haqida, yoshi bo'yicha tug'ilish koeffitsientlari haqida ma'lumotlar va xakozolar bo'lishi kerak.

**Demografik jarayonlar** — bu aholining vaqt va makonlarda rivojlanishini aks ettiradigan hodisalar bo'lib, uning ko'payishi, o'limi, jinsi va yosh tarkibi hamda mehnat resurslarining miqdor jihatidan o'zgarishlari bevosita jamiyatning hamda milliy iqtisodiyotning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi hodisa hisoblanadi. Ma'lumki, jamiyatdagi demografik voqealar umumiy va muayyan individual tasodifiy sabablar ta'siri ostida amal qiladi. Bu jarayondagi ayrim voqeliklar vujudga kelishi ba'zi sabablarga ko'ra individual va noyobdir, lekin demografik jarayonda ular ketma-ketlik voqealardan iborat bo'lib, ular muntazam ravishda o'zgarib turadi.

O'zbekistonda aholining tabiiy o'sish sur'atlarining beqaror o'smayotganligi sababli demografik rivojlanish ham notekis rivojlanmoqda. Shu munosabat bilan jahon demografik ko'rsatkichlari bilan taqqoslaganda, O'zbekiston tabiiy ravishda o'sish sur'ati 25 promilledan 15 promillegacha tushgani sabab dunyoning rivojlangan mamlakatlari o'rtasida o'rtacha ko'rsatkichga ega.

Milliy iqtisodiyotimizda va jamiyatimizda quyidagi tashkiliy, qonuniy va moliyaviy o'zgarishlarni amalga oshirishni taqozo etadi:

Birinchidan, mamlakatdagi aholi tarkibida mehnatga layoqatli darajadagilar miqdori ko'p bo'lishiga qaramasdan ularning o'rtacha daromad miqdorlari hali baland darajada bo'lmaganligini hisobga olib, pensiya tizimining barqaror faoliyat ko'rsatishi uchun institutsional, qonunchilik va moliyaviy mexanizmlarni tubdan isloh qilish, shu jumladan, 2026 yildan boshlab pensiya yoshini



(ayollarga -60, erkaklarga 65 yosh) bosqichma-bosqich amalga oshirishga kirishish zarur.

Ikkinchidan, aholi turmush darajasi va sifatining oshishi, innovatsion texnologiyalarga xos ish o'rinlarini tashkil etish va faoliyatini yuritish, ishchi xodimlar uchun munosib mehnat sharoitlari yaratish bilan jamiyatda ijtimoiy-mehnat munosabatlarining mazmun-mohiyatini sifat jihatidan o'zgartirish, aholi hayotining umumiy umr ko'rish davomiyligini ko'paytiradi. Jamiyatda tibbiy va ma'rifiy xizmatlarning sifatini yaxshilash aholining ijtimoiy va iqtisodiy madaniyatini oshirishga yordam beradi, bu shubhasiz aholining demografik tuzilmasini barqarorlashtirishga va chaqaloqlarning tug'ilish sur'atlarini nisbatan pasayishiga olib keladi.

Uchinchidan, "2050 yilgacha O'zbekiston aholisining demografik rivojlanish prognozi"ni ishlab chiqish va milliy ma'naviyatning tarixiy an'analari va urf-odatlarini talablarini hisobga olingan holda "O'zbekiston demografik siyosati konsepsiyasi"ni qabul qilish, yosh oilalarning reproduktiv salomatligini saqlashdagi salbiy tendensiyalarning oldini olish zarur.

To'rtinchidan, O'zbekistonda demografik jarayonlarining tezkor kuzatish uchun zamonaviy elektron tizimni yaratish, ularning haqqoniyligini oshirish va umum statistik shakllariga solish uchun 2022 yilda O'zbekistonda aholini umumiy ro'yxatdan qayta ro'yxatdan o'tkazishni amalga oshirish zarur.

Beshinchidan, mamlakat mehnat resurslarining mavjud potensialini taqsimlash va ulardan foydalanish samaradorligini tubdan oshirish maqsadida "O'zbekiston tarmoqlari va hududlari mehnat resurslari balansi"ni tahlilini qilish va 2050 yilgacha bo'lgan mehnat resurslarining prognozini ishlab chiqish.

Oltinchidan, milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning innovatsion shakllari va usullariga keng o'tish istiqbollarini hisobga olgan holda, oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish, barcha oliy ta'lim tizimini markazlashtirilgan ma'muriy tizimdan shartnomaviy ijtimoiy sheriklar shakllariga haqiqiy iqtisodiyot vakillari (universitetlarning buyurtma portfelini

shakllantirish), ta'lim sohasida aralash moliyaviy (byudjet, kontrakt va buyurtma) mexanizmi joriy etish zarur.

**1-masala.** Yaponiya aholisi soni to'g'risida quyidagi ma'lumotlar berilgan. Yaponiya aholisining o'rtacha yoshini va berilgan yillar bo'yicha dinamikasini aniqlang:

Yillar	Aholi soni	Shu jumladan.			
		15 yoshgacha	15-65 yosh	65-80 yosh	80 yoshdan katta
2012	117,06	26,03	82,51		2,22
2015	121,05		85,90	9,70	2,96
2018	123,61	20,41		12,45	3,72
2021	125,57	19,96	86,93		4,00

### Masala yechimi

$$\bar{A}_{\text{yaponiya}}^{2012} = \frac{7,5 \cdot 26,03 + 40 \cdot 82,51 + 72,5 \cdot 6,30 + 87,5 \cdot 2,22}{117,06} = 35,4$$

$$\bar{A}_{\text{yaponiya}}^{2015} = \frac{7,5 \cdot 22,49 + 85,9 \cdot 40 + 9,7 \cdot 72,5 + 2,96 \cdot 87,5}{121,05} = 37,7$$

$$\bar{A}_{\text{yaponiya}}^{2018} = \frac{7,5 \cdot 20,41 + 40 \cdot 87,03 + 72,5 \cdot 12,45 + 97,5 \cdot 3,72}{123,61} = 39,3$$

$$\bar{A}_{\text{yaponiya}}^{2021} = \frac{7,5 \cdot 19,96 + 40 \cdot 86,93 + 72,5 \cdot 15,66 + 87,5 \cdot 4,00}{125,57} = 40,7$$

**2-masala.** 2021 yil uchun Yaponiya aholisi soni to'g'risida quyidagi ma'lumotlar berilgan (ming kishi): yil boshidagi aholi soni 125 573, yil mobaynida 1221, tug'ilib 924 o'ldi. Mutloq mexanik qo'shimcha o'sish -50 ming kishi. Aholining tabiiy va mexanik xarakati ko'rsatkichlari aniqlansin:

### Masala yechimi

1. Yil oxiridagi aholi soni:

$$A_1 = 125573 + 1221 - 924 - 50 = 125820 \text{ ming kishi.}$$

2. O'rtacha aholi soni:

$$\bar{A} = \frac{A_1 + A_n}{2} = \frac{125573 + 125820}{2} = 125696,5 \text{ ming kishi.}$$

3. Tug'ilish koeffitsienti:

$$K_{\text{tug'ilish}} = \frac{1221}{125696,5} = 0,0097 \text{ yoki } 9,7 \%$$

$$K_{\text{ju}} = \frac{924}{125696,5} = 0,00735 \text{ yoki } 7,35 \%$$

$$K_{\text{natavajin}} = \frac{1221}{924} = 1,32$$

$$K_{\text{natavajin}} = \frac{125820 - 125573}{125696,5} = 1,93 \%$$

$$K_{\text{natavajin}} = 9,7 - 7,35 = 2,35 \%$$

$$K_{\text{natavajin}} = 1,93 \% - 2,35 \% = -0,42 \%$$

**3-masala.** Yaponiya bo'yicha 2021 yil uchun quyidagi ma'lumotlar berilgan (ming kishi.): 1.01.2020 – 125032; 1.03 – 125132; 1.08 – 125372. 1.10 – 125484; 1.01.2021 – 125573. Yil mobaynida 1229 ming bola tug'ilib, 877 ming kishi o'ldi.

Aniqlang:

1. O'rtacha aholi soni ;
2. Tug'ilish, o'lish va tabiiy o'sish koeffitsientlarini.
3. Mexanik o'sish koeffitsientini.
4. Aholining hayotiylik koeffitsientini.

**Masala yechimi**

$$1. \bar{A}_{2020} = \frac{2 \cdot 125032 + 125132 \cdot 5 + 125372 \cdot 2 + 125484 \cdot 3}{2 + 5 + 2 + 3} = 1253208 \text{ ming}$$

kishi

$$2. K_{\text{tug'ilish}} = \frac{1229 - 1000}{1253208} = 9,8 \%$$

$$3. K_{\text{ju}} = \frac{877 - 1000}{1253208} = 7,0 \%$$

$$4. K_{\text{natavajin}} = K_T - K_{\text{ju}} = 9,8 - 7,0 = 2,8 \%$$

$$5. K_{\text{natavajin}} = \frac{1229}{877} = 1,401$$

$$K_{\text{natavajin}} = \frac{125573 - 125032}{1253208} - 2,8 \% = 4,5 \% - 2,8 \% = 1,5 \%$$

**4-masala.** Quyidagi aholi soni to'g'risida berilgan shartli ma'lumotlar asosida va yoshlar bo'yicha yashash koeffitsientlari asosida, mehnatga layoqatli yoshga kiruvchi aholining kelgusi 3 yildagi soni aniqlansin:

Yosh, yil	Shartli yoshlar bo'yicha yashash koeffitsienti	Aholi soni, kishi
13	0,996148	5320
14	0,995800	5028
15	0,995560	4180

**Masala yechimi:** Aholining istiqboldagi soni quyidagicha aniqlanadi:

Birinchi yil uchun:

$$A_{14} = 5320 \cdot 0,996148 = 5299$$

$$A_{15} = 5028 \cdot 0,995800 = 5007$$

$$A_{16} = 4180 \cdot 0,995560 = 4161$$

Ikkinchi yil uchun:

$$A_{15} = 5299 \cdot 0,995800 = 5277$$

$$A_{16} = 5007 \cdot 0,995560 = 4985$$

Uchinchi yil uchun:

$$A_{16} = 5277 \cdot 0,995560 = 5254$$

Demak, mehnatga layoqatli yoshga kiruvchi aholi soni: birinchi yili – 4161, ikkinchi yili – 4985, uchinchi yili – 5254, jami – 14400 kishi.

## 2. Mustaqil ishlash uchun savollar

1. Aholi statistikasining o'rganish ob'ekti nima?
2. Aholi statistikasida kuzatish birligi deganda nimani tushunasiz?
3. Aholini ro'yxatga olish qanday amalga oshiriladi va uning ahamiyati haqida nima bilasiz?
4. Doimiy aholi va mavjud aholi ko'rsatkichlari qanday aniqlanadi?

5. Aholining o'rtacha yillik soni qanday hisoblanadi?
6. Aholning tabiiy harakatini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar sanab o'ting.
7. Aholining mexanik xarakatini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlarga izoh bering.
8. Aholining istiqbolidagi soni qanday aniqlanadi?

### 3. Masalalar

**3.1-Masala.** Shahar aholisi soni to'g'risida quyidagi ma'lumotlar berilgan:

1.01.2020 yil -80510 kishi.	1.08.2020-81050 kishi
1.02.2020 yil -80750 kishi	1.12.2020- 81800 kishi
1.04. 2020 yil -80900 kishi	1.01 2021 yil -82000 kishi

Shahar aholisining 2020 yil uchun o'rtacha yillik soni aniqlansin.

**3.2-Masala.** Tuman aholisi soni to'g'risida quyidagi ma'lumotlar berilgan. O'rtacha yillik tuman aholisi soni aniqlansin:

1.01.-2019 yil -40300 kishi	1.10. 2019 -40840 kishi.
1.04.- 2019 yil -40550 kishi	1.01 2020 yil - 41000 kishi
1.07.-2019 yil -40700 kishi	

**3.3-Masala.** Mamlakat aholisi soni 2020 yil boshida 35,4 mln. kishini tashkil etdi. Yil mobaynida 690 300 bola tug'ilib, 32000 kishi o'ldi.

1. 2020 yildagi o'rtacha aholi soni aniqlansin.
2. Tug'ilish, o'lish, tabiiy o'sish koeffitsientlari aniqlansin.

**3.4-Masala.** 15-49 yoshdagi ayollar salmog'i 0,44 va tug'ilish koeffitsienti -19‰. Maxsus tug'ilish koeffitsienti aniqlansin.

**3.5-Masala.** Mamlakat bo'yicha quyidagi ma'lumotlar berilgan. 2015-2020 yillar uchun bolalar o'limi koeffitsientini aniqlang.

Yillar	Tug'ilgan bolalar soni	1 yoshgacha yoshda o'lgan bola
2015	422,5	-
2016	437,1	9,9
2017	440,4	10,9
2018	438,8	11,6
2019	454,6	12,6
2020	459,1	13,5

**3.6-Masala.** Mamlakatning 3 iqtisodiy rayonidagi aholi soni to'g'risida quyidagi ma'lumotlar berilgan:

Ko'rsatkichlar	A	B	V
Doimiy aholi soni, ming kishi:			
Yil boshida	4110	6720	7500
Yil oxirida	4200	6850	7700
Tug'ilish koeffitsienti, ‰	22	18	21
O'lish koeffitsienti, ‰	8	7	9

Aholining mexanik xarakati koeffitsientini aniqlang.

**3.7-Masala.** Fransiyadagi uch shahar bo'yicha doimiy aholi soni to'g'risida quyidagi ma'lumotlar berilgan:

Ko'rsatkichlar g' shaharlar	K	N	M
Doimiy aholi soni, ming kishi:			
Yil boshida	230	420	84
Yil oxirida	270	460	90
Yil maboynida tug'ildi, kishi	6000	10120	2083
15-49 yoshdagi ayollarning umumiy aholi sonidagi salmog'i	0,3	0,28	0,3

Maxsus tug'ilish koeffitsienti aniqlansin.

**3.8-Masala.** Shahardagi aholining o'rtacha yillik soni va qayd etilgan nikohlari va ajralishlar to'g'risida quyidagi ma'lumotlar berilgan:

Yillar	2000	2015	2020
Ko'rsatkichlar			
O'rtacha yillik aholi soni, ming kishi.	180,5	180,0	247,5
Nikohlar soni.	2093	2080	2333
Ajralishlar soni.	72	241	645

Nikohdan o'tish va ajralishlar koeffitsientlari aniqlansin.

**3.9-Masala.** Tuman aholisi soni to'g'risida 2020 yil uchun quyidagi ma'lumotlar berilgan (kishi):

- 1. 01 – 76200
- 1.04 – 76500
- 1.07 – 76700
- 1.10 – 76900
- 1.01.2021 – 77400

2020 yil 24600 bola tug'ildi, 690 kishi o'ldi, 2600 kishi keldi va 1950 kishi ketdi. 15-49 yoshdagi ayollar soni 2100 kishini tashkil etdi. 1200 nikohlar qayd etilib, 700ta ajralish hisobga olindi. Tuman hududi – 8600 km<sup>2</sup>.

**Aniqlang:** Tug'ilish, o'lish, nikohdan o'tish, ajralish, tabiiy, mexanik va umumiy o'sish koeffitsientlarini, maxsus tug'ilish koeffitsientini va aholi zichligini.

**3.10-Masala.** 2020 yilda tug'ilish koeffitsienti tumanda 26,5‰ ni tashkil qildi. 15-49 yoshdai ayollar soni 28% ni tashkil qildi.

2020 yili 962 ta boli tug'ildi. Maxsus tug'ilish koeffitsientini va o'rtacha yillik aholi sonini aniqlang.

**3.11-Masala.** 2020 yil uchun A mamlakat aholisisoni to'g'risida quyidagi ma'lumotlar berilgan (ming kishi): yil boshidagi aholi soni 25 573, yil mobaynida 1001, tug'ilib 724 o'ldi. Mutloq mexanik qo'shimcha o'sish –10 ming kishi. Aholining tabiiy va mexanik xarakati ko'rsatkichlari aniqlansin:

**3.12-Masala.** N mamlakati bo'yicha 2020 yil uchun quyidagi ma'lumotlar berilgan (ming kishi): 1.01.2020 – 25032; 1.03 – 25132; 1.08 – 25372. 1.10 – 25484; 1.01.21 – 25573. Yil mobaynida 229 ming bola tug'ilib, 87 ming kishi o'ldi.

Aniqlang:

1. O'rtacha aholi soni.
2. Tug'ilish, o'lish va tabiiy o'sish koeffitsientlarini.
3. Mexanik o'sish koeffitsientini.
4. Aholining hayotiylik koeffitsientini.

**3.13-Masala.** Quyidagi aholi soni to'g'risida berilgan shartli ma'lumotlar asosida va yoshlar bo'yicha yashash koeffitsientlari asosida, mehnatga layoqatli yoshgakiruvchi aholining kelgusi 3 yildangi soni aniqlansin:

Yosh, yil	Shartli yoshlar bo'yicha yashash koeffitsienti	Aholi soni, kishi
13	0,996148	1520
14	0,995800	1828
15	0,995560	2580

**3.14 – Masala.** Fransiya aholisi haqida quyidagi ma'lumotlar berilgan (ming kishl):

	2010-2020	shu jumladan:	
		2010	2020



Jami tug'ilganlar soni	8154	835	745
Jami o'lganlar soni	5536	5534	535
Tashqi migratsiya saldosini	+842	+103	0

2020 yil 1 yanvar holatiga Fransiya axolisi 57650 ming kishini tashkil etdi.

Topish kerak:

1) 2020 va 2010 yillardagi Fransiya aholisining tug'ilish, o'lish, umumiy, tabiiy va mexanik o'sish koeffitsientlarini;

2) 2010 va 2020 yillar davomidagi o'rtacha yillik tug'ilish, o'lish, umumiy tabiiy va mexanik o'sishi, koeffitsientlarini;

3) Aholining 2010-2020 yillardagi tug'ilish va o'lish absolyut, nisbiy dinamika ko'rsatkichlarini aniqlang.

Olingan natijalarni tahlil qiling va xulosalar chiqaring.

**3.15 – Masala.** «A» mamlakatda yil oxirida axoli soni 9600 ming kishini tashkil etdi. O'tgan davrda 150 ming kishi tug'ilib, 82 ming kishi o'ldi. Tashqi migratsiya saldosini 12 ming kishini tashkil etdi. O'rtacha yillik ishsizlik koeffitsienti jami axolining 2,2% ini va faol axolining 5%ni tashkil etdi.

Aniqlang:

1) aholining tabiiy va mexanik xarakati ko'rsatkichlarini;

2) faol aholi va faol aholi koeffitsienti;

3) band aholining o'rtacha yillik sonini.

## **4-MAVZU. XALQARO MEHNAT RESURSLARI STATISTIKASI**

### **1. Qisqacha metodik ko'rsatmalar**

Ishlab chiqarish kuchining rivojlanishi, yalpi ichki mahsulot barpo etilishi jamiyat a'zolarining moddiy va madaniy talablarini qondirish asosida iqtisodiy samaradorlikni oshirish yotadi. Ishlab chiqarish vositalari va ularni harakatga keltiruvchi ish kuchi – ishlab chiqarish kuchini tashkil etadi. Samaradorlik muammosini hal etish, potensial imkoniyatlardan – ishlab chiqarish fondlaridan, mehnat resurslaridan maksimal foydalanish asosida, sifat tarkibini oshirish hisobiga davlat iqtisodiy potensialini ko'paytirish, ratsional foydalanish yordamida bajariladi.

Jamiyat hayotining muhim tomonidan biri bo'lib ish kuchini takror ishlab chiqarish hisoblanadi va shu munosabat bilan bu nafaqat iqtisodiy muammo bo'lib, balki yangi ijtimoiy munosabatlarni shakllanishiga ta'sir ko'rsatib, o'z ichiga sotsiologik, demografik, ruhiy, siyosiy aspektlarni qamrab oladi. Iqtisodiyotning rivojlanishi muhim omillardan biri bo'lib, mehnat resurslaridan samarali foydalanish, iqtisodiy mehnat faolligini osbirish hisoblanadi.

Mehnat resurslari jamiyat ishlab chiqarishning asosiy kuchi bo'lib, ishlab chiqarish vositalari, moddiy boyliklar yaratishda bevosita ishtirok etadi.

Bugungi kunda davlat mehnat resurslaridan foydalanishga ikki xil yondashish mumkin. Birinchisi, jamiyat ishlab chiqarishida iqtisodiy faoliyat bilan band bo'lganlardan to'laroq foydalanish bo'lsa, ikkinchidan iqtisodiy faoliyat bilan band bo'lishga mumkin qadar ko'proq aholi potensial mehnat resurslarini jalb etishdir.

Ish kuchi ishlab chiqarish kuchlarining sub'ektiv elementi va uning ishlab chiqarishda tutgan o'rni salmoqlidir. Ishlab chiqarish vositalari eng so'nggi, zamonaviy, yuqori unumli bo'lmasin, ish kuchisiz ulardan hech qanday naf bo'lmaydi. Ikkinchidan, shu ishlab chiqarish vositalari, ishlab chiqaruvchi kuchlarning moddiy buyum qismi ilgari jonli mehnat mahsulidir.

Inson mehnat qilish qobiliyati moddiy ne'mat yoki xizmatlar yaratishda o'ziga o'rinbosar topadi.

Ishlash qobiliyatiga ega bo'lgan shaxslar, ya'ni ishchi kuchining yig'indisi mehnat resurslarini tashkil etadi, bularga nafaqat iqtisodiy faol aholi, balki boshqa kategoriyalari ham, shu jumladan, ishdan ajralgan holda o'qiyotganlar va ayni daqiqada ishlamayotgan va ish qidirayotganlar ham kiritiladi.

Mehnat resurslari haqida ikki xil tushuncha mavjud:

- potensial mehnat resurslari;
- haqiqiy mehnat resurslari.

**Potensial mehnat resurslariga** mehnat yoshidagi mehnatga layoqatlilar kiritiladi. Mehnat qilish yoshi dinamikada o'zgaruvchan bo'lib, bu o'zgarish davlat rivojlanish darajasi, iqtisodiyot krizisi yoki rivojlanishi, mehnat resurslariga bo'lgan talab kabilar ta'sir ko'rsatadi.

Mamlakatimizda mehnat resurslar yoshining quyi chegarasi 16 yosh bo'lib, yuqori chegarasi ayollar uchun 55 yoshgacha, erkaklar uchun 60 yoshgacha hisoblanadi.

Mehnat yoshi chegarasi har bir davlat qonunlari bilan belgilanib, davlat milliy xususiyatlarini hisobga oladi. Shuning uchun mehnat qilish qobiliyati yoshi davlatlararo ham turlichadir. Masalan, AQSH, Shvetsiyada mehnat qilish qobiliyati quyi chegarasi 16 yosh, Fransiya, Yaponiyada – 15 yosh, Italiya, Gretsiyada – 14 yosh, Argentina, Braziliya, Pokistonda – 10 yosh, Polshada – 18 yosh. Yuqori chegarasi esa ko'pgina davlatlarda erkak va ayollar uchun bir xil bo'lib: AQSH, Kanada, Shvetsiya, Yaponiyada – 65 yosh, Norvegiyada – 70 yosh, Fransiyada – 60 yosh, Estoniyada esa ayollar uchun – 65 yosh, erkaklar uchun – 60 yosh. Potensial mehnat resurslari davlatda mehnat qilish imkoniyatiga ega bo'lganlar qanchani tashkil etishini ko'rsatib beradi.

**Haqiqiy mehnat resurslari** deganda, o'rganilayotgan davrda aholining o'z mehnatiga o'rin topgan qismi tushuniladi. Haqiqiy mehnat resurslari potentsiali mehnat resurslariga qaraganda ko'proqdir:

- ishlaydigan o'smirlar: ishlaydigan o'smirlar soniga turli xil omillar ta'sir ko'rsatadi, eng ko'proq ta'sir ko'rsatadigan omil ijtimoiy-iqtisodiy omildir. Bunga oila iqtisodiyoti va farovonligi ham kiradi.

- ishlaydigan pensionerlar: ishlaydigan pensionerlar soniga, ayniqsa, demografik omil ta'sir ko'rsatadi, ya'ni aholining eng tez ko'payib boruvchi qismi katta yoshdagi kishilar, hozirgi davrda aholining qarish jarayoni va bular soni qancha tez ko'paysa, ijtimoiy-iqtisodiy omilga ta'sir etuvchilar, o'z iqtisodiyotini yaxshilashga intiluvchilar soni ham oshib boradi. Ta'sir etuvchi omillardan yana biri ma'naviy omil bo'lib, mehnat qilishga o'rgangan insonning mehnati jamiyatga kerak emasligi tushkunlikka olib keladi.

Mehnat resurslari aholining bir qismi bo'lib, aholi sonining o'zgarishiga ta'sir etadigan omillar, mehnat resurslari o'zgarishiga ham ta'sir ko'rsatadi.

**1-Masala.** Mamlakat bo'yicha quyidagi ma'lumotlar berilgan (ming kishi):

O'rtacha yillik ishsizlar soni – 600

Yildagi o'rtacha bo'sh o'rinlar soni – 200

Band bo'lganlar soni:

1.01.2020 – 5000

1.04.2020 – 5200

1.07.2020 – 5800

1.10.2020 – 6000

1.01.2021 – 4800

Aniqlang:

1. O'rtacha band aholi sonini.

2. O'rtacha yillik iqtisodiy faol aholi sonini.

3. Ishsizlik darajasini:

a) band bo'lganlar soniga nisbatan;

b) iqtisodiy faol aholi soniga nisbatan.

4. Mehnat bozorida kuchlanish koeffitsientini.

**Masalani yechimi**

$$1. \bar{M} = \frac{\frac{1}{2}M_0 + M_1 + M_2 + M_3 + \frac{1}{2}M_4}{5-1} = \frac{2500+5200+5800+6000+2400}{4} = \frac{21900}{4} = 5475$$

ming kishi.

$$2. I_F = 600 + 5475 = 6075 \text{ ming kishi.}$$

$$3. a) \frac{600}{5475} = 10,96\% \quad b) \frac{600}{6075} = 9,87\%$$

$$4. \frac{600}{200} = 3 \text{ kishi 1 bo'sh o'ringa.}$$

## 2-masala.

Quyidagi ma'lumotlar berilgan:

	2019 yil	2020 yil
1. Iqtisodiyotda band bo'lganlarning o'rtacha yillik soni (ming kishi)	6835	6876
2. Ishsizlar soni (ming kishi)	256	262
3. Harbiy xizmatchilar soni (ming kishi)	309	306
4. 2019 yil narxlarida ishlab chiqarilgan YAIM (mlrd. milliy valyutada)	268	274
5. Qayta tiklanadigan yalpi kapital (mlrd. milliy valyutada)	1076	1102

Aniqlansin:

1. Mehnat unumdorligi darajalari va dinamikasi.
2. Ishsizlik sababli yo'qotishlar.
3. Faol aholi soni.
4. Mehnatni fondlar bilan qurollanish darajasi va uning dinamikasi.
5. Fondlar qaytimi va uning dinamikasi.

6. YAIMni mehnat unumdorligi va band xodimlar soni hisobiga qo'shimcha o'sishi.

7. Mehnat unumdorligining fondlar qaytimi va fondlar bilan qurollanish hisobiga qo'shimcha o'sishi.

*Echish:*

	2019 yil	2020 yil	O'sishi, %
6. Mehnat unumdorligi (ming m.v.) (gr.4 : gr.1)*1000	39,21	39,85	101,6
7. Ishsizlik sababli yo'qotishlar (mln. m.v) (gr.6*gr.2)	10037,76	10440,70	104,0
8. Faol aholi soni (ming kishi) (gr.1+gr.2+gr.3)	7400	7444	100,6
9. Mehnatni fondlar bilan qurollanish darajasi (ming m.v/kishi) (gr.5 : gr.1)*1000	157,42	160,27	101,8
10. Fondlar samarasi (m.v.) (gr.4 : gr.5)	0,2491	0,2486	99,8
11. YAIMning qo'shimcha o'sishi:			
band xodimlar sonining oshishi hisobiga (mln.m.v.)	-	(6876-6835)*39,21= 41*39,21= 1607,6	-

mehnat unumdorligining oshishi hisobiga (mln. m.v.)	-	(39,85-39,21) *6876= 0,64*6876= 4400,64	-
12. Mehnat unumdorligi-ning qo'shimcha o'sishi:			
fondlar bilan qurollanish hisobiga (ming m.v.)	-	(160,27-157,42)*0,2491 =2,85*0,2491 =0,71	
fondlar samarasi hisobiga (mig m.v.)	-		

**3-masala.** Quyidagi ma'lumotlar berilgan:

	<b>Bazis davri</b>	<b>Joriy davr</b>
1. Iqtisodiyotda band bo'lganlarning o'rtacha yillik soni (ming kishi)	7387	7428
2. Ishsizlar soni (ming kishi)	227	253
3. Harbiy xizmatchilar soni (ming kishi)	285	310
4. Umumiy aholi soni (ming kishi)	18250	18690
5. Bazis davri narxlarida ishlab chiqarilgan YAIM (mlrd. milliy valyutada)	296	311

6. Qayta tiklanadigan yalpi kapital (mlrd.milliy valyutada)	1237	1310
---	------	------

*Aniqlansin:*

1. Band, ishsiz va faol aholi soni dinamikasi.
2. Bandlik, ishsizlik va faollik koeffitsientlari.
3. Band ishsiz va faol aholi dinamikasi.
4. Fondlarga talabchanlik, fondlar bilan qurollanish va fondlar samarasi koeffitsientlari dinamikasi.

*Echish:*

	<b>Bazis davri</b>	<b>Joriy davr</b>	<b>O'sishi, %</b>
7. Faol aholi soni (ming kishi) (1+2+3)	7899	7991	101,2
8. Faollik koeffitsienti (7 : 4)	0,4328	0,4275	98,77
9. Ishsizlik koeffitsienti (2 : 7)	0,0287	0,0317	110,45
10. Bandlik koeffitsienti ((1+3) : 7)	0,9713	0,9683	99,69
11. Qo'shimcha o'sish sur'ati:			
Faol aholining	-	-	1,16
ishsizlarning	-	-	11,4
bandlarning	-	-	0,6
12. Mehnatning fondlar bilan qurollanish koeffitsienti, ming m.v./kishi, (6:1)	167,45	176,36	105,3



13. Fondlarga talabchanlik (6:5)	4,18	4,21	100,7
14. Fondlar samarasi (5:6)	0,2393	0,2374	99,21

## 2. Mustaqil ishlash uchun savollar

1. Ish kuchining ijtimoiy ishlab chiqarishda tutgan o'rni deganda nimani tushunasiz?
2. Potensial mehnat resurslari haqida tushuncha va uning mohiyati to'g'risida nimani bilasiz?
3. Mehnat yoshidagi aholi chegaralari nima?
4. Mehnat resurslari deganda nimani tushunasiz?
5. Mehnat resurslarini o'rganish muammolari nimalardan iborat?
6. Mehnat resurslarining soniga ta'sir etuvchi omillar qaysilar?
7. Mehnat resurslarining o'rtacha yillik soni qanday aniqlanadi?
8. Mehnat resurslarining xarakatini ifodalovchi qanday ko'rsatkichlarni bilasiz?

## 3. Masalalar

**4.1 – Masala.** Viloyatdagi mehnat resurslari soni to'g'risida quyidagi ma'lumotlar berilgan:

1.01.2020 – 1352,5 ming kishi; 1.02.2020 – 1380,7; 1.06.20 – 1402,3; 1.09.20 – 1400,2; 1.12.20 – 1398,0; 1.01.2021 – 1395,8 ming kishi.

2020 yil uchun viloyatdagi mehnat resurslarining o'rtacha yillik soni aniqlansin.

**4.2 – Masala.** Hududdagi mehnat resurslari haqida quyidagi ma'lumotlar berilgan:

1.01.2020– 320,4 ming kishi; 1.04.2020 – 336,5; 1.07.20 – 353,0; 1.10.20 – 368,8; 1.01.2021 – 384,7 ming kishi.

2020 yil uchun hududdagi mehnat resurslarining o'rtacha yillik soni aniqlansin.

**4.3 – Masala.** Iqtisodiy tumandagi aholi tarkibi to'g'risida quyidagi ma'lumotlar berilgan:

№	YOshi	Aholi soni, ming kishi	
		1.01.2015	1.01.2020
1	Ishchi yoshigacha (0 – 15)	30,2	37,4
2	Mehnatga layoqatli yosh (erkaklar – 16-59)	12,3	18,2
3	Ishchi yoshidan keyingi (60 yoshdan katta erkaklar va 55 yoshdan katta ayollar)	12,3	18,2
	<b>Jami</b>	<b>101,2</b>	<b>121,3</b>

Har bir yil uchun aniqlang:

1. mehnatga layoqatli yoshdagi aholi salmog'ini;
2. mehnat qilish yoshida bo'lmagan aholi salmog'ini;
3. mehnat resurslarining o'rin egallash koeffitsientini.

**4.4 – Masala.** Viloyatdagi aholi soni to'g'risida quyidagi ma'lumotlar berilgan:

№	Ko'rsatkichlar	Aholi soni, ming kishi	
		1.01.2015	1.01.2020
1	Viloyatdagi aholi soni	746	785
2	Mehnatga layoqatli yoshdagi aholi	403	411
3	Shu jumladan mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga layoqatsiz shaxslar va imtiyozli shartlarda nafaqa oladigan shaxslar	10	11,5
4	Mehnat qiluvchi nafaqaxo'rlar va 16 yoshgacha bo'lgan o'smirlar	12	13

5	Ushbu viloyatdaxalq xo'jaligi tarmoqlarida band aholi	380	387
6	O'quv yurtlari talabalari	12	13,4
7	Uy yumushlari va bolalar tarbiyasi bilan band aholi	13	13,7

Har bir yil uchun aniqlang:

1. mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga layoqatli aholi sonini;
2. mehnat resurslarining umumiy sonini;
3. viloyat aholisining bandlik koeffitsientini.

**4.5 – Masala.** Tumandagi mehnat resurslari soni 2020 yil 1-kvartal boshida 571,0 ming kishini, 2-kvartalda 573,0, 3-kvartal – 575,0, 4-kvartal – 576,0 va 2020 yil boshida – 578,0 ming kishini tashkil etadi. Tumandagi mehnat resurslarining har bir yarim yil va bir yil uchun o'rtacha sonini aniqlang.

**4.6 – Masala.** Viloyatdagi mehnat qilish yoshidagi aholi soni 1 iyulda tashkil qildi (ming kishi): erkaklar – 140,0, ulardan ishlamaydigan 1-guruh nogironlari – 0,6, 2-guruh nogironlari – 0,7, 3-guruh – 0,1; ayollar – 150,0 ulardan ishlamaydigan 1 va 2 guruh nogironlari – 0,4. imtiyozli sharoitda nafaqa olganlar – 3,0 ming kishi, shu jumladan 0,5 ming ishlamaydiganlar.

Ishlamaydigan 16 yoshgacha bo'lgan o'smirlar 0,4 ming kishi, nafaqa shidagi ishlamaydigan shaxslar – 5,3 ming kishi. Viloyatdagi 1 iyuldagi resurslari soni aniqlansin.

**4.7 – Masala.** Viloyatdagi mehnat resurslarining o'rtacha yillik soni 1,7 mln. kishini, shu jumladan mehnat qilish yoshidan yosh bo'lganlar – 0,8 mln. va mehnat qilish yoshidan katta bo'lganlar esa – 0,1 mln. kishi.

Aniqlang:

1. mehnat qilish yoshidagi aholining o'rnini egallash koeffitsienti;

2. mehnat qilish yoshidagi aholining umumiy va nafaqa yuklamasi koeffitsientlari.

**4.8 – Masala.** Ikki korxonaga bo'yicha quyidagi ma'lumotlar berilgan: ishchilarning o'rtacha tarif razryadini va o'rtacha tarif koeffitsientini hisoblang.

Tarif setkasi razryadi	Tarif koeffitsienti	Ishchilar soni, kishi	
		1-zavod	2-zavod
1	1,0	80	120
2	1,13	200	350
3	1,29	400	620
4	1,48	400	630
5	1,72	600	580
6	2,0	480	250

**4.9 – Masala.** Viloyatda aholining o'rtacha yillik soni 2,7 mln. kishini tashkil etib, shundan 1,8 mln. kishi mehnatga layoqatli yoshdan kichik bo'lib, 0,17 kishi esa mehnatga layoqatli yoshdan kattadir.

Aniqlang:

1. mehnatga layoqatli yoshdagi aholining o'rin egallash koeffitsientini.
2. mehnatga layoqatli yoshdagi aholining umumiy va nafaqa yuklamasi koeffitsientlari.

**4.10 – Masala.** Shaharda 1 yanvar 2020 yili 14 – 17 yoshdagi aholi soni to'g'risida berilgan quyidagi ma'lumotlar asosida 1 yanvar 2025 yildagi 17 – 20 yoshdagi aholining istiqboldagi soni aniqlansin:

Yosh, yil	Yoshlar bo'yicha yashash koeffitsienti	Aholi soni, kishi
14	0,9958	20000
15	0,9956	18000

16	0,9953	10000
17	0,9951	6000
18	0,9950	-
19	0,9949	-

**4.11 – Masala.** Viloyatlardan biri bo'yicha quyidagi ma'lumotlar berilgan: 1 yanvar 2021 yili 12 yoshdagi bolalar bolalar 13500 kishi bo'lgan. Kutilayotgan yashash ehtimolligi quyidagicha:

Yosh, yil	Kelgusi yoshgacha yashash ehtimolligi
12	0,99884
13	0,99863
14	0,99851
15	0,99843

2020 yilda mehnatga layoqatli yoshga qadam qo'yuvchi aholi soni aniqlansin.

**4.12 – Masala.** Viloyatlardan birida mehnat resurslari soni to'g'risida quyidagi berilgan ma'lumotlar asosida o'rtacha yillik mehnat resurslari soni aniqlansin (ming kishi):

1.01.2020 – 763,5	1.10.2020 – 764,3
1.03.2020 – 763,7	1.12.2020 – 764,7
1.06.2020 – 763,9	1.01.2021 – 764,9

**4.13 – Masala.** Mamlakat iqtisodiy faoliyatining turli sohalaridagi ishchilarning soni xaqida shartli ma'lumotlar keltirilgan (ming kishi)

Ko'rsatkichlar	Mln.so'm
Qayta ishlash sanoatida	-5620
Konchilik sanoatida	-1740
El. energiya, gaz va suv ishlab chiqarishda	-180
Matbuotda	-70
Avtomobil, maishiy texnika, mebel, kiyim,	-35

poyafzal ta'miri va kimyoviy sanoatda	
Qazish ishlari	-8
Davlat sanoat korxonalari, bosmaxona, elektrostansiya va suv quvurlarida	-820
Magistral gaz quvurlarida	-29
Iste'mol mahsulotlarini aholiga etkazibda	-70
Tashkilotlardagi ilmiy-tadqiqot laboratoriyalarida	-10
Paxta tozalashda	290
Temir yul va ta'mirlash ustaxonalarida	-18
Korxonalaridagi xo'jalik qurilishlarida	-95
Metalni qayta ishlashda	-22
Sanoat korxonalaridagi jamoat ovqatlanishida	143
Baliqchilikda	-92

Topish kerak: sanoatda band bo'lganlar sonini:

- 1) O'zbekiston uslubiyati bo'yicha;
- 2) AQSH uslubiyati bo'yicha.

**4.14 – Masala.** Iqtisodiy faoliyatning turli soxa va tarmoqlaridagi band bo'lganlar haqida shartli ma'lumotlar berilgan (mln. kishi):

Ko'rsatkichlar	Mln.so'm
Pudrat qurilishida	-650
Qazish ishlarida	-8
Loyiha-izlanish ishlarida	-42
Davlat qurilishida	-70
Korxonalaridagi xo'jalik o'sulidagi qurilishlarda	-95

Qurilishda band bo'lganlarni hisoblang

**4.15 – Masala.** Iqtisodiy faoliyatning turli – soxa va tarmoqlarida band bo'lganlar haqida shartli ma'lumotlar berilgan (ming kishi):

Ko'rsatkichlar	Mln.so'm
Qishloq xo'jaligi	-1720
Yordam beruvchi oila a'zolari, ya'ni xaftasiga 15 soatdan kam ishlovchilar	-108
Fermerlar	-170
Baliqchilik	-92
Paxta tozalash	-10
Donni tozalash va quritish ishlari, ularni tashish hamda ishlab chiqarish anjomlarini xo'jaliklarga etkazish	-72

Qishloq xo'jaligida band bo'lganlarni hisoblang.

**4.16 – Masala.** Ish faoliyatining turli soha va tarmoqlarida band bo'lganlar haqida quyidagi shartli ma'lumotlar berilgan (ming kishi):

Ko'rsatkichlar	Mln.so'm
Magistral gaz quvurlari	-29
Avtomobillarni ta'mirlashda	-15
Jamoat foydalanishidagi shaxsiy transportda	-960
Shaxsiy telegraf, telefon, radio va telekompaniya	-425
Avtomobil yoqilg'isini quyish shaxobchalari	-270
Avtobuslarda bolalarni maktabga tashish va avtomobil ijarasi	-70
Yo'llarni saqlash va ta'mirlash	-93
Davlat tayyoragoxlariga xizmat ko'rsatish	-17
Davlat pochta ishchilari	-170
Temir yo'l ustaxonalari	-18
Ombor xo'jaliklari	-58
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va	-32

mollarni tashish  
Transport va aloqada band bo'lganlarni hisoblang.

**4.17 – Masala.** «A» mamlakat aholisining turli guruhlarini aholi soni bo'yicha quyidagi shartli ma'lumotlar berilgan (ming kishi):

Ko'rsatkichlar	Mln.so'm
Mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni	-3520
Haqiqatda iqtisodiyotda band bo'lgan mehnatga layoqatli yoshdan o'tgan aholi soni	-320
Mehnatga layoqatli yoshda ishlamaydigan nogironlar soni	-95
Tashqi davlat iqtisodiyotida band bo'lgan aholi soni (320-ta oila a'zolari bilan)	-180
Ushbu mamlakat iqtisodiyotida band bo'lgan chet el fuqarolari soni	-220
O'zining davlati iqtisodiyotida band bo'lgan aholi soni	-2970
Ish qidirayotgan va mehnat birjasida ro'yxatda turgan aholi soni	-240
Ish qidirayotgan va mehnat birjasida ro'yxatdan o'tmagan aholi soni	-70

**Aniqlang:**

- 1) Mamlakatning mehnat resurslari sonini;
- 2) Aholining faollik koeffitsientini, bandlik va ishsizlik koeffitsientini. Agar aholining umumiy soni 7050 ming kishini, chet el fuqarolari esa 400 ming kishini tashkil qilishini hisobga olgani holda, yuqoridagilarni toping. Ko'rsatkichlarni ushbu mamlakat aholisi uchun va chet el migratsiyasini hisobga olgan holda aniqlang.

**4.18 – Masala.** Fransiya aholisi bandligini xarakterlovchi quyidagi ma'lumotlar berilgan (ming kishi)

Ko'rsatkichlar	2000	2019
O'rtacha ishsizlar soni	476,8	990,4
O'rtacha faol aholi soni	20730,9	22042,1
Jami aholining o'rtacha soni	55140	57690

Topish kerak: 1) Jami va faol aholining bandlik koeffitsient dinamikasini; 2) ishsizlar dinamikasini; 3) ijtimoiy mehnat unumdorligi darajasi 2000 yilda 55000, 2019 yilda 93000 frankni tashkil etishni hisobga olib, ishsizlikdan iqtisodiyotning yo'qotishlarini hisoblang; (joriy baholarda).

**4.19 – Masala.** Quyidagi ma'lumotlar berilgan (ming kishi):

2019 yil 1 yanvarga AQSH aholisining jami soni – 258063

Tashqi migratsiya saldosini +395

1 yilda tug'ilganlar soni -3170

1 yilda o'lganlar soni -1930

Iqtisodiyotda band bo'lganlar soni -85892

Mehnat birjasida ro'yhatda turgan ishsizlar soni – 5036

2019 yilda AQSH YAIM ning hajmi (joriy baholarda, mlrd. dollarda) -2397

Aniqlash kerak:

1) AQSH aholisining 2019 yilda tabiiy va mexanik harakati koeffitsientlari

2) AQSHning jami va faol aholisining to'liq ish bilan band bo'lishligidagi milliy iqtisodiyotning yo'qotishlarini.



## 5-MAVZU. MILLIY HISOBLAR TIZIMI

### 1. Qisqacha metodik ko'rsatmalar

**MILLIY HISOBLAR TIZIMI** — mamlakat iqtisodiy rivojlanishining xalqaro statistika amaliyotida qabul qilingan umumlashtiruvchi ko'rsatkichlari tizimi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatlarning makrodarajadagi milliy mahsulotini va milliy daromadini hisoblash metodologiyasi. Ishlab chiqarish jarayonlarining turli bosqichlarini va iqtisodiyotdagi eng muhim o'zaro aloqalarni aks ettiradigan hisoblamalar va balans jadvallari to'plamidan iborat. Uning muhim belgisi iqtisodiy faoliyati yakunlarida moddiy ishlab chiqarishdan tashqari nomoddiy xizmatlar sohalarini ham aks ettirishidir. Bunday yondoshuvda butun mamlakat iqtisodiy faoliyatining umumlashtiruvchi tavsiflariga erishiladi. Milliy hisoblar tizimi negizini ishlab chiqarish., iste'mol, jang'arish va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasidagi real munosabatlar jarayonida qayta taqsimlash tamoyili tashkil etadi. Bu tizim yer va kapitalni mehnat bilan teng darajada qiymatni yaratishda qatnashuvchi omillar tarzida qaraydigan konsepsiyaga asoslanadi. Milliy hisoblar tizimida iqtisodiy faoliyatni umumlashtiruvchi ko'rsatkichi yalpi ichki mahsulot (YAIM) dir. Uning asosida qo'shilgan qiymat, ya'ni shu jarayonda iste'mol etilgan mahsulotlar va xizmatlar qiymatiga («oralik iste'mol» qiymatiga) qo'shilgan qiymat turadi. Milliy iqtisodiyot darajasida ichki iqtisodiyot faoliyati natijalarining jamlanma hisoblamalari tuziladi: YAIM ning shakllanishi va undan foydalanishning jami bosqichlarini nazarda tutishga imkoniyat yaratadigan (har bir hisoblamada, bir tomondan, ko'rilayotgan ko'rsatkichni tashkil etadigan resurslar, ikkinchi tomondan — ulardan foydalanish keltiriladi) to-varlar va xizmatlar hisobi; ishlab chiqarish. hisobi; daromadlarning hosil bo'lish hisobi; daromadlarning taqsimlanishi hisobi; daromadlardan foydalanish hisobi; kapital xarajatlar hisobi; moliyaviy hisob. Ular tashqi iqtisodiy aloqalar hisobi, boshqa hisoblar va balanslar bilan to'ldiriladi. Bu hisoblarda kengaygan takror ishlab chiqarish.

jarayonining hamma bosqichlari aks etishi tufayli, yalpi ichki mahsulot hajmini uch xil: ishlab chiqarish, taqsimot va pirovard foydalanish usullarini qo'llab aniqlash imkoniyati yaratiladi. Milliy hisoblar tizimida iqtisodiy faoliyatning barcha turlari foydali natija hilan tugallanadi, deb qaraladi, demak iqtisodiyotdagi barcha mehnat xarajatlari foydali mehnatdir. Milliy hisoblar tizimi ishlab chiqarishdan boshlanib, daromadlarning shakllanishi, ularning taqsimlanishiga o'tadi va mavjud pul qiymati (zargarlik mahsulotlarisiz), turli qimmatbaho qog'ozlar, o'rta va qisqa muddatli zayomlar ko'rinishida iqtisodiyotni moliyaviy nuqtai nazardan ifodalash bilan yakunlanadi. Ma'muriy buyruqbozlik tizimi davrida, makroiqtisodiyotni o'rganish va tahlil qilish uchun xalq xo'jaligi balansini t ko'rsatkicblar tizimidan foydalanilgan. Ularning asosida A. Smit, K. Marksning siyosiy iqtisod ta'limotlari: xalq xo'jaligini moddiy ne'mat ishlab chiqaradigan va ishlab chiqarmaydigan sohalarga ajratish, umumli va unumsiz mehnat, ja'mi ijtimoiy mahsulot, milliy daromadni yaratish, uni taqsimlash va pirovard foydalanish nazariyalari yotar edi. Unda xo'jalik yurituvchl sub'ektlar orasidan mavjud aloqalar, aholi farovonligi va turmush darajasiga baho berish, mehnatga haq to'lash, davlat byudjeti, kredit, to'lov balans kabi tushunchalar va tasniflashlar yetarlicha yoritilmas edi. Milliy hisoblar tizimi esa bu kamchiliklarni bartaraf etib, bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotni har taraflama boshqarish imkoniyatini yaratadi.

Zamonaviy Milliy hisoblar tizimini yaratish va uni takomillashtirishga iqtisodchi olimlardan J. Keyns, V. Leontev, S. Kuznets, R. Stoun, K. Klark va boshqalar katta hissa qo'shdilar. Butun dunyo kapitalistik davlatlar iqtisodiyotini qamrab olgan 1929—1933 yillardagi inqiroz davlat ijtimoiy bozor faoliyatini bir tomonlama, faqat kuzatib turish emas, balki uning ichki mohiyatni tahlil qilib muvofiqlashtirib turishi lozimligini ko'rsatdi. Shundan kelib chiqib «davlatlarning aktiv iqtisodiy roli»ni bajarish uchun mamlakatlarning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini hisoblaydigan tizimni — Milliy hisoblar tizimini yaratish zaruriyati tug'ildi. Dastlabki vaqtda Milliy hisoblar tizimi milliy daromad

ko'rsatkichini hisoblashga qaratildi. 20-asrning 30-yillarida Angliya, Avstriya, Fransiya, Norvegiya, Germaniya va AQSHda milliy daromad ko'rsatkichi hisoblandi. 40—50 yillarda kapitalistik mamlakatlarda Milliy hisoblar tizimini qo'llash kengaya bordi va ikkinchi jahon urushi yakunlangandan so'ng davlatni boshqarish tizimida Milliy hisoblar tizimini qo'llash zaruriyati yanada kuchaydi. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar — milliy mahsulot, milliy daromad, iste'mol, jamg'arma (kapital qo'yimlar) va hokazolar hisoblana boshlandi. 1951 yilda Parijda Evropa iqtisodiy hamjamiyatiniig Milliy hisoblar tizimi standarti loyihasi qabul qilindi. 1953 yil BMT ning statistika bo'limi tomonidan amaliyotga tadbqiq etish uchun Milliy hisoblar tizimining andozasi qabul qilindi. 1968 yil BMTning statistika komissiyasi 15 yillik tajriba asosida Milliy hisoblar tizimining yangi xalqaro andozasini ishlab chiqdi va u 1993 yilning fevralga qadar qo'llanildi. 1993 yil. fevralida BMT statistika komissiyasining navbatdagi sessiyasida Milliy hisoblar tizimining yangi xalqaro andozasi qabul qilindi, undagi yangiliklardan biri sifatida makro-iqtisodiy statistikaning ko'rsatkichlari qatoriga to'lov balanslari, davlat byudjeti ko'rsatkichlari kiritildi.

Milliy hisoblar tizimi (MHT) — 2008 standarti Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning Statistika komissiyasi rahbarligida ishlab chiqilgan va jahon iqtisodiyotining oxirgi yo'nalishlari (tendensiyalari)ni hisobga oladi. Ushbu MHT-2008 ga Evropa ittifoqi, AQSH, Kanada mamlakatlari to'liq o'tgan. Shuningdek, Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarining ushbu standartni joriy etish bo'yicha amalga oshirilgan bir qator ishlari va alohida rejalarini mavjud. MHT-1993ga nisbatan yangilangan standartda qator muhim iqtisodiy operatsiyalarni yangicha talqin qilish ko'zda tutilgan. Bular ayniqsa, ilmiy tadqiqot faoliyati xarajatlari, harbiy xarajatlar, moliyaviy vositachilik xizmatlari va xususiy uy-joyda yashash bo'yicha xizmatlarda aks etadi. Hozirga qadar MHT-93 xalqaro standarti O'zbekiston Respublikasining milliy hisoblar tizimi uchun metodologik asos bo'lib hisoblanadi. Yangi MHT-2008 standartini joriy etish YAIMni hisoblashning har

uchala usuliga – ishlab chiqarish usuli, daromadlardan foydalanish usuli va xarajatlar bo'yicha YAIMni shakllantirish usuliga ma'lum o'zgarishlar ta'sir qiladi

O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgandan so'ng, birinchi navbatdagi asosiy vazifalaridan biri o'z iqtisodiyotini ma'muriy boshqarishdan bozor munosabatlariga asoslangan boshqarishga o'tkazishdan iborat bo'lib qoldi. Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o'tish ob'ektiv zaruriyat sifatida davr taqozosi bo'lib qoldi. Faqat bozor munosabatlarigina mamlakat ishlab chiqaruvchi kuchlari zaminidagi ulkan imkoniyatlardan biri xalq baxt-saodati yo'lida, uning turmush darajasini oshirish maqsadida samarali foydalanishni ta'minlashi mumkin.

O'zbekiston iqtisodiyotini bozor munosabatlariga o'tkazishda davlat statistikasi organlarining roli kattadir.

Bozor munosabatlari sharoitida statistika sohasidagi yangi muammolarini hal etish, uning nazariy asosini qaytadan ko'rib chiqishni, mavjud statistika amaliyotida keskin o'zgartirishlar bo'lishini taqozo etadi.

Shu maqsadda makroiqtisodiy statistik rivojlanishning asosiy yo'nalishlarida tub o'zgarishlar hosil qilish uchun xalq xo'jaligi Balansini (XXB) saqlab qolgan holda, mahalliy sharoitlariga moslashgan milliy hisoblar tizimini (MHT) xalqaro standartini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zarur bo'ladi.

Milliy hisoblash tizimida ijtimoiy takror ishlab chiqarishning barcha jarayonlari ikki yoqlama operatsiyalar to'plami sifatida talqin etiladi va bu operatsiyalar tomonlarning hisoblarida qiymat ko'rinishida daromad yoki xarajat sifatida ko'rsatiladi.

MHT – avvalombor makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tizimining har tomonlama rivojlanishi natijasida yuzaga keldi.

1934 yill etakchi iqtisodchi olim S.Kuznets mamlakat bo'yicha 1929-1934 yillar uchun milliy daromad hajmini hisoblagan. 1929-1933 yillarda g'arb davlatlari uchun o'z boshidan juda ham murakkab bo'lgan iqtisodiy inqiroz davrini kechirdilar va ularni iqtisodchilari iqtisodiy rivojlanishining «ayrim nazariyalari»ni qayta ko'rib chiqishga majbur bo'ldilar. Rivojlangan

mamlakatlarda balans tuzulmalarining zarurligi ob'ektiv omillar va eng avvalo davlat-monopolistik rivojlanishi hamda iqtisodiy rivojlangan davlatlar iqtisodiyotini tartibga solishning amaliy ehtiyoji bilan vujudga keldi. Ikkinchi jahon urishi tugagandan so'ng kapitalistik mamlakatlar davlatni boshqirish tizimida MHTning qo'llanilishning zarurligini yanada chuqurroq tushinib etdilar.

1951 yilda Parijda Evropa Iqtisodiy hamjamiyatining milliy hisoblar bo'icha konfrensiyasi bo'lib, unda Evropa Iqtisodiy Hamjamiyatiga a'zo bo'lgan mamlakatlar uchun MHTning standarti loyihasi qabul qilindi. Bu loyiha R.Stoun rahbarligidagi bir guruh iqtisodchilar tomonidan ishlab chiqildi.

1952 yilda bir guruh iqtisodchi-statistiklar BMTning Statistika byurosi topshirig'iga binoan «Milliy hisoblar va o'tish jadvallari» deb nomlangan metodologiyani tayyorladilar. Bunda Angliya va AQSH ning milliy hisoblar bo'yicha asosiy ishlari asos qilib olindi.

1968 yili BMTning Statistika komissiyasi tomonidan qo'llab-quvvatlangan halda uning a'zolari tomonidan «Yashil Kitob» nomini olgan yana bir yangi standart ishlab chiqildi. 1968 yilda tadbiq etilgan MHT 25 yil mobaynida 1993 yilning fevraliga qadar xizmat qildi.

1993 yil fevral oyida BMTning Nyu-Yorkdagi statistika komissiyasining navbatdagi sessiyasida MHTning yangi standarti qabul qilindi.

Ushbu MHT-93 standart eski 1968 yildagi standartdan asosiy yutuqlaridan foydalanish ko'rsatib o'tilgan. Bunda eng asosiy xususiyatlaridan biri makroiqtisodiy statistikaning ko'rsatkichlaridan keng ko'lamda foydalanishdan iborat edi. Ushbu standartga 2008 yilga kelib o'zgartirishlar kiritildi.

Yangi MHT halqaro iqtisodiy hamkorlikda muhim makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni halqaro taqqoslashni yanada yuksaltirish maqsadida tashkil etildi.

MHTda quyidagi asosiy hisoblarni o'z ichiga oladi

- ishlab chiqarish hisobi (yalpi mahsulotning tarkibiy qismlari)
- daromadlarni birlamchi taqsimlash hisobi (ishlab chiqarish natijasida hosil bo'lgan daromadlar)

- transferlar (qayta taqsimlash) hisobvaragi (shu jumladan ijtimoiy xarajatlar)
  - uy xo'jaliklari xarajatlari hisobi
  - kapital hisobi
  - (ichki) moliyaviy operatsiyalar hisobvaragi ("mablag'lar oqimi")
  - aktivlar qiymatidagi o'zgarishlar
  - aktivlar va passivlar hisobi (balans)
  - tashqi operatsiyalar hisobvaragi (to'lov balansi)
- Ushbu schyotlar turli xil qo'shimchalar va sub-schyotlarni o'z ichiga oladi, shuningdek ishlab chiqarish tarmoqlari o'rtasidagi operatsiyalarni ko'rsatadigan kirish-chiqarish jadvallari uchun standartlar taqdim etiladi.

Birlashtgan Millatlar Tashkilotining deyarli barcha a'zo davlatlari taqdim etiladigan standart buxgalteriya ma'lumotlari uchun daromadlar va mahsulotlar bo'yicha hisob-kitoblarni taqdim etishlari shart, ammo standart hisoblarining to'liq to'plami yoki to'liq ma'lumotlar to'plami shart emas. Masalan, uy xo'jaliklari uchun standartlashirilgan aktivlar va passivlar deyarli mavjud emas va ishlab chiqilishi kerak.

Ma'mulakanni boshqa davlatlar bilan iqtisodiy munosabatlari o'rganishda tashqi iqtisodiy aloqalar (tashqi dunyo) hisobidan foydalaniladi.

Bu hisob qo'yidagi 3 hisobda ifodalanaadi:

- joriy operatsiyalar hisobi;
- kapital xarajatlar hisobi;
- moliya hisobi.

«Tashqi dunyo» sektori – shu chegarada chet el iqtisodiy birliklari (uy xo'jaligi, birlashtirilgan, korxonalar)ni qamrab oladi va shu chegarada mamlakat rezidentlari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar (transport va sug'urtalash sohasi xizmatlari, ya'ni import tovarlar bilan bo'ladigan operatsiyalar, turli xil sektorlarga tegishli bo'lgan chet el aktivlari bilan rezidentlar o'rtasida bajariladigan operatsiyalar, turli xil mintaqalarga tegishli bo'lgan davlat majburiyatlari bilan rezidentlar o'rtasida bajariladigan

operatsiyalar, kapital qo'yilmalar, joriy operatsiyalar, moliyaviy operatsiyalarni tasvirlaydi).

## 2. Mustaqil ishlash uchun savollar

1. BMTning milliy hisoblar tizimi haqida nimalarni bilasiz?
2. MXT sektorlari haqida nimalarni bilasiz?
3. «Tashqi dunyo» sektori haqida tushuncha, uning vazifalari va asosiy hisoblari.
4. Joriy operatsiyalar hisobi va uning asosiy ko'rsatkichlari to'g'risida nimalarni bilasiz?
5. Moliyaviy hisob to'g'risida nimalarni bilasiz?
6. Kapital harajatlar hisobi va uning ahamiyati nimaдан iborat?
7. Milliy hisoblash tizimida ijtimoiy taktor ishlab chiqarishning gandy aks ettiriladi?
8. «Milliy hisoblar va o'tish jadvallari» deb nomlangan metodologiyani nechanchi yili tayyorladilar?
9. MHTning yangi standartlari nechanchi yili qabul qilindi?

## 3. Masalalar

- 5.1-Masala. «A» mamlakat bo'yicha quyidagi shartli ma'lumotlar berilgan (mln. frank)
- |  |      |
|--|------|
| Ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati                                      | -550 |
| Oraliq iste'mol qiymati  | -310 |
| Ishlab chiqarishga berilgan davlat subsidiyalari                         | -30  |
| Ishchilarning ish haqi   | -120 |
| Korxonalarining ijtimoiy sug'urta fondiga qilgan baddallari-30           |      |
| Ishlab chiqarishga egri solliqlar, qo'shilgan qiymat solig'idan tashqari | -20  |
- Quyta ishlashga qo'shilgan qiymatini va ishlatishning yalpi natijasini aniqlang. Mahsulot ishlab chiqarish va ishlatilishi hisobini tuzing.

**5.2-Masala.** Quyidagi shartli ma'lumotlar berilgan (mln. frank)

Ishlatishning yalpi natijasi	-800
Olingan foizlar	-40
To'langan foizlar	-30
Olingan dividendlar	-90
To'langan dividendlar	-85
To'lab qo'yilgan joriy transfertlar	-50
To'langan (berilgan) joriy transfertlar	-40

Daromad hisobini tuzing va yalpi omonatlar ulushini aniqlang (yalpi mavjud daromadni).

**5.3-Masala.** Mamlakat sektori bo'yicha quyidagi shartli ma'lumotlar berilgan (mln. frankda):

Yalpi omonatlar (jimg'armalar)	-450
Asosiy kapitalga qo'yilgan sarmoyalar	-4000
Olingan kapital transportlar	-30
Zahiraning ortib borishi	-40

Bo'limdagi korxonalar qarzlarning ortib borishi -20

Bo'lim korxonalarining moliyalashga moyilligini yoki moliyalashga ehtiyojini aniqlang. Kapital hisobini va bo'limning moliyaviy-xisobini tuzing.

**5.4-Masala.** «A» mamlakat bo'limidaga korxonalar haqida quyidagi shartli ma'lumotlar berilgan (mln. frankda):

Ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati	-1200
Ishlatishga qilingan davlat subsidiyalari	-70
Oraliq iste'mol mahsulotlari	-720
Olingan foizlar va dividendlar	-120
Olingan joriy transfertlar	-30
To'langan joriy transfertlar	-40
To'langan ish xaqi	-270
Ijtimoiy sug'urtaga va egri soliqlarga qilingan to'lovlar	-50

To'langani hisobidan olingan keshggal transfertlar	-30
Asosiy kapitalga qilingan sarmoyalar	-250
Zahiralarning ortib borishi	-30
Bo'limning boshqa bo'limlarga nisbatan qarzi ortib borishi	-100
Boshqa bo'limlarning ushbu bo'limga nisbatan qarzi ortib borishi	-90
Bo'lim korxonalarining integral hisobini tuzing.	

# 6-MAVZU. VALYUTANING HARID QILISH QOBILIYATI ASOSIDA MAMLAKATLARDA ISHLAB CHIQRILGAN YALPI ICHKI MAHSULOTLARNI HALQARO TAQQOSLASH

## 1. Qisqacha metodik ko'rsatmalar

Valyuta bozorida hamma qiladigan ish bitta narsaga kelib taqaladi va unga bog'liq. U ham bo'lsa valyuta kursidir. Milliy valyutani boshqa mamlakat valyutasidagi ifodasi *valyuta kotirovkasi* deyiladi. Kotirovka bevosita va bilvosita turlarga bo'linadi.

*To'g'ri kotirovka* deganda chet el valyutasining bir birligiga to'g'ri keladigan milliy valyuta soni tushuniladi. Masalan, USD/UZS, USD/FRF, USD/CAD va boshqalar.

*Teskari kotirovka* - milliy valyutaning bir birligiga to'g'ri keladigan chet el valyutasi soni. Masalan, UZS/USD, DEM/USD va boshqalar.

**1-Misol.** «Nigora» firmasi o'z tovarini Italiyada sotib 40 mln. liraga ega bo'ldi va uni dollarga almashtirmoqchi. Almashtiradigan kun valyuta kotirovkasi USD/ITL-1615,3.

**Yechish.**

$$\text{AQSH dollar hajmi} = \frac{40 \cdot 000 \cdot 000}{1615,3} = 24763,2 \text{ USD}$$

**2-Misol.** «Dildora» firmasiga Amerikadagi hamkori 26000 dollar qarz. «Dildora» firmasi shu pulga Parijdan tovar sotib olish uchun, AQSH dan hamkoriga birjadan Fransiya frankini sotib olishni buyurdi. Pul almashtirish kuni valyuta kotirovkasi-5,1335. Olingan frank Parijga ko'chiriladi. Qancha frank ko'chirilgan?

**Yechish.**

Ko'chiriladigan Fransiya franki summasi teng:

$$20000 \times 5,1335 = 102670 \text{ FRF}$$

**3-Misol.** Nargiza 54000 so'mni ikki dugonasiga (Suzanna - Fransiya; Elis - Angliya) oldingi qarzlari uchun teng bo'lib berish kerak. Nargizaning o'rtoqlari qarzini Fransiya frankida (Suzanna) va Angliya funtida (Elis) qaytarib berishni iltimos qilishdi. Kurslar USD/UZS-375, USD/FRF-5,1335, GBP/USD-0,6461 GRP/UZS-208,94.

Qancha frank va funt beriladi?

**Yechish.**

Fransiya franki summasi =  $(27000:375) \times 5,1335 = 369,61$  FRF

Funt sterling summasi =  $(27000:375) \times 0,6461 = 46,52$  GBP

Ma'lumki, valyutalar talab va taklif kurslari asosida sotiladi va sotib olinadi. Talab (Bid) – bu sotib olish kursi. Taklif (Offer) – sotish kursi. Valyuta sotib olish va sotish bilan shuG'ullanuvchi tashkilot daromadi SPRED (Bid-offor) deyiladi.

**4-Misol.** «Shaxpolon» qo'shma korxonasi shartnoma bo'yicha o'z tovarlarini Germaniyaga eksport qiladi va Shtutgard shahridagi hamkorida 300 mln. marka to'plandi.

AQSHdan asbob-uskuna sotib olish kerak. O'sha kundagi kurslar: USD/DEM-1,5750-1,5760.

Qancha dollar ko'chiriladi?

**Yechish**

Ko'chiriladigan dollar hajmi =  $\frac{300.000.000}{1,5760} = 95,2$  mln. dollar.

Kesishgan (kross) kurs deb ikki va undan ortiq valyuta kurslarini uchinchi kursga nisbatiga aytiladi va quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$Qq = V_{kot} : V_{baza}$

bu yerda:  $V_{kot}$  – kotirovka bo'ladigan valyuta;  $V_{baza}$  – baza (asos) deb qabul qilingan valyuta.



**5-Misol.** «Koskom» qo'shma korxonasi aktivida 8,5 mln. tenge mavjud, uni funt sterlingga almashtirish kerak. Kurslar: GBP/USD-1,5477; KZT/USD-0,005.

Funt sterling summasi aniqlansin.

### Yechish

1. Bir dollar teng =  $\frac{1}{1,5477} = 0,6461$  funtga

2. Bir dollar teng =  $\frac{1}{0,005} = 200$  tengega

3. Bir funt teng =  $\frac{200}{0,6461} = 309,55$  tengega

4. Funt sterling summasi =  $\frac{8500000}{309,55} = 27459,2$  funt

**6-Misol.** O'zbekiston firmasiga Hindistondan 20,0 mln. rupiylik choy keldi. Bu summani qoplash uchun Jzbekistonlik firma o'z bankiga qancha so'm to'lashi kerak?

Kurslar: USD/UZS-380; USD/INR-500.

### Yechish

1. Bir so'm teng =  $\frac{500}{380} = 1,3158$  rupiy.

2. Bankga o'tkaziladigan so'm =  $\frac{20000000}{1,3158} = 15199878,4$  so'm.

**7-Misol.** Toshkentdagi eksport-import kompaniyasi Parijga 5 mln. frankka tovar yubordi. O'ziga kerak bo'lgan tovarni London shahridan 625 ming funtga sotib oldi. Bu pulni Parijdagi hamkorlari Londonga o'tkazishi kerak. Kurslar: GBP/USD-1,5477; USD/FRF-5,1335.

Londonga qancha funt ko'chirilishi kerak?

### Yechish

1. Bir funt sterling =  $5,1335 \times 1,5477 = 7,9451$  frank.

2. Londonga ko'chiriladigan  
funt=7,9451×5000000=39725500 frank.

Yuqorida yechilgan misollar natijalari asosida kross kurslari bo'yicha quyidagi qoidalarni keltirib chiqarish mumkin.

1. Agarda ikki valyuta uchun ham dollar kvota asosi bo'lsa, dollarning bir kursi ikkinchisiga bo'linadi.

2. Agarda dollar bitta valyuta uchun kvota asosi bo'lsa, dollar kurslari o'zaro ko'paytiriladi.

3. Agarda dollar ikki valyuta uchun ham valyuta kvotasi bo'lsa, dollar kurslari biri ikkinchisiga bo'linadi.

Kross kurslari talab va taklif asosida amalga oshiriladigan bitimlar uchun ham hisoblanadi.

**8-misol.** TMI studenti Maxfiratxon Londonda 6 oylik o'qishni tugatib Toshkentga Fransiya orqali qaytishga qaror qildi. U qolgan funt sterlingdan 500 funtni Fransiya frankiga almashtirmoqchi. Jsha kungi kurslar: GBP/USD-1,5477-1,5487; USD/FRF-5,1335-5,1345.

Student qancha Fransiya frankiga ega bo'ladi?

**Yechish:**

1. Kross kurs teng= $1,5477 \times 5,1345 = 7,9467$

2. Frank summasi= $500 \times 7,9667 = 3973,3$  FRF

Valyuta bitimlari to'lanishi payti bo'yicha kassali va muddatli bitimlarga bo'linadi. Bu bitimlarda belgilangan kurslar esa spot va forvard kurslari deyiladi.

Spot kurs blzga doim ma'lum, forvard kursini hisoblash kerak. Forvard kursi, umumiy ko'rinishda, quyidagicha aniqlanadi.

$K_f = K_s + F_o$  yoki  $K_s \pm$  forvard mukofoti yoki diskont

Bu yerda:  $K_s$ -spot kurs;  $f_o$ -forvard ochkolari.

Forvard ochkolarini quyidagi formula bilan aniqlaymiz:

$$F_0 = K_s \cdot \frac{(\text{foizstavkaiasosi} - \text{asosvalutatavkasi}) \cdot t}{360 \times 100}$$

**9-misol.** 10000 dollarni (AQSH) nemets markasiga sotmoqchimiz. Sotib oluvchi bilan 3 oydan keyin valyutalash kelishildi. Spot kurs USD/DEM-1,5 teng. Foiz stavkasi asosi 6%, asos valyuta foiz stavkasi - 4%.

Forvard kursi aniqlansin.

**Yechish.**  $K_f = K_s + F_0$ , bu yerdan

$$1. \phi_0 = \frac{1,500(6-4)90}{360 \cdot 100} = \frac{270,0}{36000} = 0,0075$$

$$2. K_f = K_s + F_0 = 1,5 + 0,0075 = 1,50075$$

**10-Misol.** Tijorat bankining mijozi 80 kundan keyin mavjud dollarga Fransiya frankini sotib olmoqchi. Bitim kunidagi kurs USD/FRI-5,1335-5,1345.

Uch oy uchun yillik foiz stavkalari

	Talab	Taklif
AQSH dollari	6,23	6,33
Fransiya franki	8,05	8,17

Forvard ochkolarini aniqlang.

**Yechish**

$$\phi'' = \frac{5,1335 \cdot \frac{80}{360} \left( \frac{6,33 - 6,23}{100} \right)}{1 + \left( \frac{8,33}{100} \cdot \frac{80}{360} \right)} = 0,00112$$

Spot va forvard kurslari ikki tomonlama kotirovka qilinganligi uchun, forvard ochkolari bid va offer uchun alohida hisoblanadi:

$$F_0(\text{bid}) = \frac{\text{Spot}(\text{bid}) \cdot (\text{foizvalut}(\text{bid}) - \text{foizasosivaluta}(\text{offer})) \cdot t}{360 \cdot 100 + (\text{foizasosivaluta}(\text{offer})) \cdot t}$$

$$F_0(\text{offer}) = \frac{\text{Spot}(\text{offer}) * (\text{foizvalutasi}(\text{offer}) - \text{foizasosivalutas}(\text{bid})) * t}{360 \cdot 100 + (\text{foizasosivalutas}(\text{bid})) * t}$$

**11-misol.** AQSH dollari va Germaniya markasi o'rtacha kursi - 1,5000. bid - 1,4995; offer - 1,5005. Depozitlar bo'yicha 3 oylik stavkalari quyidagicha:

	Bid	Offer	O'rtacha stavka
AQSH dollari	3,875	4,125	4,000
Gemaniya markasi	5,875	6,125	6,000

Forvard ochkolarga bid va offer bo'yicha aniqlansin.

### Echish

$$1. \Phi_0(\text{bid}) = \frac{1,4995(5,875 - 4,125)90}{360 \cdot 100(4,125 \cdot 90)} = 0,0065$$

$$2. \Phi_0(\text{bid}) = \frac{1,5005(6,125 - 3,875)90}{360 \cdot 6(3,875 \cdot 90)} = 0,0084$$

O'quvchiga «narvon» qoidasini eslatmoqchimiz:

Agar  $\text{bid} < \text{offer}$  bo'lsa,  $K_f = K_s + F_0$

Agar  $\text{bid} > \text{offer}$  bo'lsa,  $K_f = K_s - F_0$

Forvard ochkolari singan sanalari uchun ham hisoblaniladi, masalan, 40 kun uchun g'ki 75 kun va h.k.

### 12-misol.

USD/DEM autrayt bitimi bo'yicha valyutalash muddati 2 oyu 10 kun. Forvard ochkolari 2-chi oy uchun 41-57 gacha, 3-chi oy uchun- 65-84 gacha. Forvard ochkolari aniqlansin.

### Echish:

1. bid va offer bo'yicha ochkolar (oylik) farqi hisoblanadi:

$$\text{bid} = 65 - 41 = 24$$

$$\text{offer} = 84 - 57 = 27$$

2. bid va offer bo'yicha bir kunlik ochkolar farqi teng:

$$bid = 24:30 = 0,8$$

$$offer = 27:30 = 0,9$$

### 3. Forward ochkolari:

$$bid = 41 + 0,8 \times 10 = 49$$

$$offer = 57 + 0,9 \times 10 = 66$$

«Report» va «Deport» bitimlarida naqd valyuta qatnashmaydi, ya'ni bularda majburiyat Eki talabnoma almashadi xolos.

**13-misol** «Istiqlol» kompaniyasi Londondagi hamkorlari bilan ishlab, o'z schetida funt to'pladi. Bashoratlarga qaraganda GBP/USD funt uchun ijobiy kurs pasayadi. Xizmat ko'rsatuvchi bank funt uchun bir oyga ochkolarni -150/120 kotirovka qiladi. Agarda bank kursi -1,5530 (sotib olish) bo'lsa «Istiqlol» kompaniyasi bankga funtlarni sotishi mumkin, ya'ni 1,5520 kurs bilan, 1,5400 kurs bilan forwardga sotib olishi mumkin. Bu erda «Istiqlol» bir oyga 44 mln. funtga report bitimini tuzadi.

**Echish.** Olingan natijalar report bitimi bo'yicha quyidagilar

Sana	Funt	Kurs	AQSH dollari
27.XI	-44000000	1,5520	68288000
27.XII	+44000000	1,5400	67760000
foyda	-	-	528000

Demak, «Istiqlol» kompaniyasi bitimini foyda bilan yakunlangan.

Foyda olish maqsadida turli nayranglar ishlatish mumkin, ya'ni arbitraj bitimlari bilan ishlashadi.

**13-misol.** Ishbilarmon Yun Xi Koreyadan qilgan importi uchun 40 mln. so'mga ega bo'ldi. Uni yarmiga AQSH dollarini sotib oldi. Qolgan qismini esa 3 oyga Asaka banka 93,5% bilan investitsiya qildi. Shu joyning o'zida so'mga dollar sotib olish fuychers kontraktini tuzdi. Kurs USD /UZS -900-1020.

Yun Xini shu bitimdagi daromad summasi aniqlansin.

**Yechish 1.** Umumiy daromad summasi teng:

$$D \text{ umumiy} = \frac{[20 \cdot 000 \cdot 000(1 + \frac{3}{12} \cdot 0,935)] 900}{1020} = 21772058,8 \text{ USD.}$$

2. Bitim bo'yicha daromad miqdori teng:

$$\Delta = 21772058,8 - 20000000 = 1772058,8 \text{ доллар}$$

Valyutalarning real kursi deganda kontragent mamlakatlarida ishlab chiqarilgan bir xil tovar bahosining nisbatiga aytiladi:

$$P_r = \frac{P_y}{P_A},$$

bu yerda:  $R_U - R_A$ -masalan, O'zbekiston va AQSH da ishlab chiqarilgan nonning bahosi.

Bu kursni, moliya bozorida, paritet kurslari yoki xarid qobiliyati paritet kurslari deb atashadi.

Hamma yoki guruh tovarlar uchun quyidagi formulalar qo'llaniladi (masalan, O'zbekiston bilan AQSH ni taqqoslasak):

$$K_{ncn} = \frac{\sum P_y q_y}{\sum P_o q_y}; K_{ncn} = \frac{\sum P_y q_o}{\sum P_o q_o}$$

Bu ko'rsatkichlar asosida, xalqaro statistikada, o'rtacha indeks (Fisher indeksi) hisoblanadi, quyidagi formula bilan:

$$K_{ncn} = \sqrt{\frac{\sum P_y q_y}{\sum P_o q_y} \times \frac{\sum P_y q_o}{\sum P_o q_o}}$$

Real kurs sifatida, normativ valyuta kursidan foydalanish mumkin. Bu kursni valyutani sotib olish va sotishdan oldin hisoblash ma'qul, chunki bu kurs bizga mo'ljal bo'lib xizmat qiladi. Agarda NVK haqiqiy kursdan kichik bo'lsa valyutani qo'rqmasdan sotib olish mumkin va teskarisi. NVK quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$н.ж. \quad A/- = \frac{\sum_{i=1}^n \frac{m_{iA}}{m_{iY}} \cdot m_{iY}}{\sum_{i=1}^n P_{iY} q_{iY}}$$

Xalqaro statistikada valyuta kursi dinamikasini to'liq tasvirlash va uni bir nechta valyuta o'lchovlari bilan bog'lash uchun valyutaning samarali kursi indeksi hisoblanadi:

$J v.s.k. = J_{nvk}$ : J hayot qiymati yoki

$$J v.s.k. = \bar{k}_{i,1} : \bar{k}_{i,0} \quad \text{bu yerda} \quad \bar{k}_i = \frac{\sum k_{ij} q_{ij}}{\sum q_{ij}}$$

bu erda:  $K_{ij-j}$  mamlakatni  $i$  mamlakat valyuta birligiga bo'lgan valyuta kursi (valyuta soni);

$q_{ij-i}$  mamlakat tovar oborotining mutloq miqdori  $j$  mamlakat bilan birgalikda.

#### 14-masala.

Quyidagi ma'lumotlardan foydalanib "A" mamlakat valyutasining "V" mamlakat valyutasiga nisbatan xarid qilish quvvatini aniqlang:

	Milliy valyutadagi qiymat		A/V mamlakatlararo xarid qilish qobiliyati nisbatlari
	"A" mamlakat	"V" mamlakat	
Uy xo'jaliklarining pirovard iste'mol xarajatlari	16200	3370	4,4
Davlat idoralarining joriy iste'moli	3650	860	4,2
Asosiy kapitalning yalpi shakllanishi	5320	1330	3,8
Moddiy aylanma mablag'lar zahiralarning o'zgarishi	+270	+35	6,5
Tashqi savdo saldosi	+185	+25	5,3

*Yechish:*

“A” mamlakat YAIM tarkibi bo‘yicha paritet:

$$(16200*4,4+3650*4,2+5320*3,8+270*6,5+185*5,3):$$

$$(16200+3650+5320+270+185) = 109561,5 : 25625 = 4,275$$

“V” mamlakat YAIM tarkibi bo‘yicha paritet:

$$(3370*4,4+860*4,2+1330*3,8+35*6,5+25*5,3):$$

$$(3370+860+1330+35+25) = 23854 : 5620 = 4,244$$

Fisher formulasi bo‘yicha:

$$\begin{aligned} & \text{ (“A” mamlakat YAIM tarkibi bo‘yicha paritet * “V” mamlakat} \\ & \text{YAIM tarkibi bo‘yicha paritet)}^{(1/2)} = (4,275 * 4,244)^{(1/2)} = \\ & 18,1431^{(1/2)} = 4,259 \end{aligned}$$

### 15-masala.

“A” va “V” mamlakatlar YAIM hajmlarini quyidagi ma’lumotlar yordamida taqqoslang:

	Milliy valyutadagi qiymat		A/V mamlakatlararo xarid qilish qobiliyati nisbatlari
	“A” mamlakat	“V” mamlakat	
Uy xo‘jaliklarining pirovard iste‘mol xarajatlari	16200	3370	4,4
Davlat idoralarining joriy iste‘moli	3650	860	4,2
Asosiy kapitalning yalpi shakllanishi	5320	1330	3,8



Moddiy aylanma mablag'lar zahiralarning o'zgarishi	+270	+35	6,5
Tashqi savdo saldosi	+185	+25	5,3

$$YAIM_A: YAIM_V = (16200 + 3650 + 5320 + 270 + 185):$$

$$(3370 * 4,4 + 860 * 4,2 + 1330 * 3,8 + 35 * 6,5 + 25 * 5,3) = 25625 : 23854 = 1,074$$

*Xulosa:* agar ikkala mamlakat YAIMlarini bir xil valyutaga keltirsak, "A" mamlakat YAIM "V" mamlakat YAIMdan 7,4%ga katta ekanligi aniqlandi.

## 2. Mustaqil ishlash uchun savollar

1. Xalqaro valyuta tizimining shakllanishi.
2. Spot va forvard kurslar.
3. Valyutaning xarid qobiliyati pariteti.
4. Inflyasiya va valyuta kursi orasidagi bog'lanish.
5. Valyuta kursi o'zgarishining korxonada daromadiga ta'siri.

## 3. Masalalar

**1-misol.** Asaka avtomobil zavodi Moskvaga 5000 dona mashina yuborgan edi. Ular sotilib, dillerlik idorasida 1015 mln. rub. to'plandi va uni AQSH dollariga almashtirmoqchi. Almashtiradigan kun valyuta kotirovkasi USD/RUB -28,35. AQSH dollari miqdori aniqlansin.

**2-misol.** «XXL» firmasiga Londondagi hamkori yuborilgan tovar ucun 32000 funt berishi kerak. «XXL» firmasi shu pulga Parijdan Toshkentga atir-upa yubormoqchi. Shu munosabat bilan u o'z hamkoriga Fransiya frankini sotib olishni buyurdi.

O'sha kundagi kurslar: GBP/FRF-9,1212. Londondan Parijga ko'chiriladigan summa aniqlansin.

**3-misol.** Esonbobo Tokioga borganlarida pullari tugab Nagasaki degan o'rtloqlaridan 60000 ien qarz olganlar. Bugun Nagasaki Toshkentga kelib qarzni 50% funt, 50% nemets markasi bilan qaytarib berishni iltimos qildi. Kurslar: UZS/jpy-0,26;

Esonbobo o'rtog'iga qancha funt va frank to'laydi?

**4-misol.** O'zbekistonlik saChatchi 460 AQSH dollarini Fransiya frankiga almashtirmoqchi. kurs USD/FRF-5,1338.

Sayohatchi qancha frank oladi?

**5-misol.** Tijorat banki quyidagi kursni belgiladi: USD/UZS-860-850. Bu sharoitda 250 dollarga qancha so'm, va 1,0 mln. so'mga qancha dollar olish mumkin?

**6-misol.** Londondagi bank AQSH dollari kursini quyidagicha belgiladi: Sotish -2,1616; sotib olish -2, 2525. Bunday sharoitda 1000 AQSH dollarini funtga almashtirsak qancha funt va 1000 funtni AQSH dollariga almashtirsak qancha dollar olamiz?

**7-misol.** Tijorat banki 31 yanvarda quyidagi kurslarni e'lon qildi: USD/UZS-900-1050; DEM/UZS-600-680; FRF/UZS-300-350.

Kross kurslarini aniqlang.

**8-misol.** Moliyaviy axborotnomada e'lon qilinishi bo'yicha SHvetsariyadagi bank quyidagi kotirovkalar bilan ishlamoqda; USD/DEM -1,8183-1,8193; USD/CHF-1,6627-1,6637.

Kross kursni (DEM/CHF) aniqlang

**9-misol** «Xamshod» qo'shma korxonasi aktivida 25,0 mln. Rossiya rubli mavjud uni nemets markasiga almashtirish kerak. kurslar USD/DEM-1,4868; USD/RUB-27,38.

**10-misol** «Biznes-ballada» ma'suliyati cheklangan jamiyatiga Xitoydagi hamkoridan 120,0 mln. yuanga tovar keldi. «Biznes-ballada» o'z bankiga qancha so'm to'lash kerak? Bu summaga bank yuan sotib olib, uni Xitoyga jo'natadi.

**11-misol** Bank 30.01 valyutalarning quyidagi kotrovkalarini e'lon qildi:

USD/UZS-350-450;

DEM/UZS-250-350;

FRF/UZS-800-860;

GRP/UZS-1300-1500

ESP/UZS-200-280

FIM/UZS-180-280

Bank mijozining 3000 nemis markasi, 4600 Fransiya franki; 3500 funt sterlinggi, 8000 pesetasi (Ispaniya); 9000 Fillandiya markasi AQSH dollariga almashtirilishi kerak. AQSH dollari umumiy summasini aniqlang.

**12-misol** O'zbek savdo korxonasi 1,5 mln. dollarni so'mga sotmoqchi. U o'z bankidan quyidagi kursni oldi: USD/UZS-900-1020.

Korxonada (UZS) va bank (USD) operatsiyasini amalga oshiring.

**13-misol** Yaponiya korxonasi 10 mln. ienni dollarga sotmoqchi va o'z bankiga murojaat qilib quyidagi kotirovkani oldi: JPY/USD-0,010-0,019.

Korxonada (USD) va bank (JPY) operatsiyasini amalga oshiring.

**14-misol** Londondagi tashkilot 20 mln. dollarni funtga sotmoqchi. Jz bankidan quyidagi kursni oldi GRP/USD-1,5510-1,5520. Bank qanday kursda dollarni sotib oladi va funtni sotadi?

**15-misol** Korxonada o'z schetida yig'ilgan 20000 funtni dollarga sotmoqchi. Bu bitimda valyutalash muddati bu kun emas 6 oy qilib belgilanadi. GBP/USD-1,5477-1,5488. Foiz stavkasi asosi 8%, asos valyuta foiz stavkasi 6%.

Forward kursi aniqlansin.

**16-misol** Quyidagi ma'lumotlar berilgan

Valyutalar	Foiz stavkasi%	Muddat, kun	Spot kurs
------------	----------------	-------------	-----------

Funt sterling (olingan)	5,250	90	8,150
Fransiya franki (qo'yilgan)	8,001	90	

Forward ochkolari hisoblansin.

**17-misol.** Forward kursi bo'yicha diler 90 kundan keyin 48 mln. dollar oladi. Bu operatsiyani qoplash uchun u bankdan kredit olib uni spot kurs bo'yicha nemets markasiga almashtiradi va uni 90 kunga bankga qo'yadi.

Valyutalar	Foiz stavkasi %	Muddat, kun	Spot kursi
Dollar (olingan)	5,225	90	1,500
Marka (qo'yilgan)	8,112	90	

90 kundan keyin qo'yilgan va olingan summalar, hamda forward kursi aniqlansin.

**18-misol** Quyidagi ma'lumotlar ma'lum:

Valyutalar	Foiz stavkasi %	Muddat, kun	Spot kursi
Dollar (olingan)	8,112	90	1,5
Marka (qo'yilgan)	5,225	90	

Jadvaldagi va 17-misol ma'lumotlari asosida 90 kundan keyin qo'yilgan va olingan summalar, hamda forward kursi aniqlansin.

**19-misol** Bank mijoz 120 kundan keyin mavjud funt sterlingga Xindiston rupiysini sotib olmoqchi. Bitim kunidagi kurs GRP/INR-1,500-1,650.

**Uch oylik foiz stavkalari.**

	talab	taklif
Funt sterling (Angliya)	3,11	3,43
Rupiya (Tindiston)	9,17	9,98

Forvard ochkolari va kursi aniqlansin.

**20-misol** Rossiya rubli va O'zbekiston so'mi o'rtacha kursi 10,0: bid-9,850; offer-10,150 Depozitlar bo'yicha uch oylik stavkalar quyidagicha;

	bid	offer	o'rtacha stavka
Rossiya rubli	4,750	5,250	5
Jzbekiston so'mi	6,750	7,250	7

Forvard ochkolar bid va offer bo'yicha aniqlansin.

**21-misol.** SAD/KZT autrayt bitimi bo'yicha valyutalash muddati 71 kun. Forvard ochkolari ikkinchi oy uchun 51-67 gacha, uchinchi oy uchun-75-85 gacha. Forvard ochkolarini hisoblang.

**22-misol.** BRC (kruzeyro)/ZAR (rend) autrayt bitimi bo'yicha valyutalash muddati 3 oyu 27 kun. Forvard ochkolari uchinchi oy uchun 41-51 gacha, to'rtinchi oy uchun 67-77 gacha.

Forvard ochkolari hisoblansin.

**23-misol.** Kurs USD /UZS-900 co'm. Pul operatsiyalari bo'yicha foiz stavkasi 60%. AQSH dollari operatsiyalari bo'yicha-12% Forvard bitimini uzunligi 120 kun. Kunlar soni so'm operatsiyalari uchun teng 365 kunga, AQSH dollari-360.

Forvard kursi va marjasi aniqlansin.

**24-misol.** 23-misol ma'lumotlari asosida forvard bitimi muddati 180 kun bo'lganda forvard kursi va marjasi aniqlansin.

**25-misol.** Jondorlik ishbiarmon Eronga qilgan eksporti uchun 27 ming dollarga ega bo'ldi. SHundan 10 minggini so'mga

aylantirib Paxta bankga (Jondordagi bo'limiga) 86% bilan 3 oyga joylashtiradi. SHu paytning o'zida so'mga dollar sotib olish fyuchers kontraktini tuzdi. Kurs USD/UZS-850-960.

Jondorlik ishbilarmonning umumiy daromadi va shu bitim bo'yicha daromad miqdori aniqlansin.

## 7-MAVZU. XALQARO MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLAR TIZIMI

### 1. Qisqacha metodik ko'rsatmalar

Hisob va statistika ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan tizim davrida iqtisodiyotni o'rganish uchun 3 xil yondashgan:

- makroyondashuv – xalq xo'jaligi miqyosida;
- mezoyondashuv – ayrim tarmoqlar miqyosida;
- mikroyondashuv – ayrim korxonalar miqyosida.

Makroyondashuvda ayrim olingan mamlakat yoki uning alohida hududlari (viloyat, tuman) yoki umumjahon xalq xo'jaligi statistik o'rganish uchun asos qilib olinadigan va ularni o'rganish uchun iqtisodiy statistika fani xizmat qilar edi.

Mezoyondashuvda xalq xo'jaligining ayrim tarmoqlari (sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish va hokazo) statistikaning o'rganish ob'ekti bo'lib, ularni o'rganish uchun ayrim tarmoqlar statistikasi fanlari xizmat qilgan.

Mikroyondashuvda ayrim olingan firma, korxonalar yoki aksionerlik jamiyatiga o'rganish ob'ekti sifatida qaralgan. Ammo bunda mikroiqtisodiy statistikaga mustaqil fan sifatida qaralmagan. Xo'jalik operatsiyalari hisobini olib borish va statistik hisobot tuzish (balans tuzish, hisobot shakllarini to'ldirish, xo'jalik operatsiyalarni hisobiarga o'tkazish va hokazo) korxonalarining buxgalteriya hisobi zimmasiga yuklatilgan edi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida milliy iqtisodiyotga bir butun birlik sifatida qaraladi va statistika uni o'rganishga 2 xil yondashadiz

- makroyondashuv;
- mikroyondashuv.

Makroyondashuvda mamlakat yoki uning alohida regionlari (viloyat, tuman) iqtisodiyoti statistik o'rganish uchun asos qilib olinadi.

Makroiqtisodiy statistika fani esa makroiqtisodiyotdagi jarayonlarning miqdoriy tomonlarini ularni sifat tomonlari bilan uzviy bog'liq holda o'rganadi. U iqtisodiy jarayonlarni, aniq makon

va zamonda qaydarajada o'zgarayotganini statistik ko'rsatkichlarda ifodalab beradi.

Makroiqtisodiy statistika tahlilining natijalari umumiqtisodiy xarakterda bo'lib, quyidagi umumiy ahamiyatga molik quyidagi tavsiflarni beradiz

- aholi soni va tarkibini o'rganib, ularni bashoratlaydi, iqtisodiy faol aholining band bo'lgan qismi va ishsizlar salmog'ini aniqlaydi, aholni ish bilan to'la ta'minlash, mehnat unumdorligini oshirishi va xalq faravonligini oshirish;

- milliy boylik xajmi va uning tarkibini mukammallashtirish, asosiy va oborot fondlardan foydalanish yaxshilash, yalpi ichki mahsulot hajmini ko'paytirish, iqtisodiy o'sishni va uning samaradorligini oshirish;

- iqtisodiyotni barqarorlashtirish, pulning harid quvvatini orttirish va inflyasiyani bartaraf etish;

- bozor infratuzilmalariz audit, sug'urta tizimlarini, moliya, pul kredit, bank, soliq, bojxona tizimlarini shakllantirish, izchul rivojlantirish va mamlakatning iqtisodiy qudratini orttirib, uni rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shish;

- iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish, kichik va o'rga biznesni rivojlantirish yo'llarini ko'rsatish;

- bozorni tadqiq qilish yo'nalishlari va sig'imini aniqlash, uni segmentlash, haridorning, iste'molchining xulqatvorini, talab va taklifni o'rganish;

- investitsiyalash manbalari, talab va taklif, investitsiya iqlimini aniqlash, qo'shma korxonalar tuzish va ularning samaradorligini oshirish;

- statistikada garfik va EHMLardan keng foydalanish va ularniig samaradorligini aniqlash;

- milliy iqtisodiyot tarkibini samarali o'zgartirish;

- bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida ijtimoiy sohalarz sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat va san'at, shuningdek ilmlfan rivojiga alohida e'tibor berish;

- yakka xokimlikni tugatib, xususiy mulkchilikni rivojlantirish;

- iqtisodiy integratsiyalash va tashqi aloqalarni kengaytirish, eksportbop tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish;

- xalq xo'jaligi balansidan milliy hisoblar tizimiga o'tishda respublikamizniig o'ziga xos, o'ziga mos xususiyatlarini e'tiborga olish.

Mikroiqtisodiy yondashuvda ayrim olingan firma, korxonalar statistik o'rganish uchun asos qilib olinadi va unga makroko'lamning bir bo'lagi, elementi sifatida qararadi, u kichik darajadagi iqtisodiyot hisoblanib, har xil faoliyatlarni amalga oshiradi. Moliyaviy buxgalteriya hisobini korxonalar faoliyatining hamma tomonlarini qamrab olgani uchun uni mikroko'lamdagi statistika dsb atasa ham bo'ladi.

Mikroiqtisodiy statistika fani esa ular iqtisodiyotning miqdoriy tomonlarini sifat jihatlarini bilan uzviy bog'liqlikda o'rganadi. Bu fan konkret baho, tovar va xizmatlar turi, daromad, ishlab chiqarish, almashuv va iste'mol bozorlariga o'rganish ob'ekti sifatida qaraydi.

Фирма Тармоқ


Халқ хўжалиғи

Микroiqtisodiy yondashuv

Макroiqtisodiy yondashuv

Milliy daromadning hosil bo'lish jarayoni, uni taqsimlash, undan foydalanish, aholi turmush darajasi, pulning aylanishi, kredit jarayonlarini xalq xo'jaligi darajasida o'rganish makroiqtisodiy statistikaning o'rganish ob'ekti hisoblanadi.

Jamiyat yashashi uchun to'xtovsiz iste'mol qilishi kerak. SHu sababli moddiy nepmatlarni va xizmatlarni to'xtovsiz ishlab chiqarish lozim. Buniig uchun esa quyidagi resurslar (ijtimoiy-iqtisodiy potensial) kerak bo'ladi: mehnat, material va tabiat. Bu resurslar ham sifat, ham son tarafiga ega. Resurslar bu potensialning miqdor tomonini ifodalaydi. Sifat tarafi esa uning ishlab chiqara olish (ma'lum xarakatlarni amalga oshirish va natijaga erishish) qobiliyatini ifoda etadi. Statistika resurslar bilan ish ko'rib, quyidagi jarayonlarni o'rganadi va chuqur tahlil qiladiz



Макroiqtisodiy statistikada asosiy e'tibor moddiy boyliklar ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatishga va iste'molga qaratiladi. Iste'mol uchun esa taqsimlash va almashish, yalpi bozor jarayonini amalga oshirish lozim bo'ladi.

Макroiqtisodiy yondashuv ikki xil bo'lishi mumkin.

1. Vatan (ichki) iqtisodiyot. Unga mamlakat hududida joylashgai xo'jalik yurituvchi sub'ektlar kiradi.

2. Milliy iqtisodiyot. Unga mamlakat hududida joylashgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlardan tashqari yana mamlakat hududidan tashqarida joylashgan xo'jalik birliklari ham kiritiladi. Milliy iqtisodiyot mamlakat iqtisodiyotidan kattaroq yoki kichikroq bo'lishi ham mumkin, bu xolat chet mamlakatlarda ishlayotgan shu mamlakat fuqarolari daromadiniig miqdoriga bog'liq.

Макroiqtisodiyotning mohiyati, asosi - bu milliy daromad nazariyasidir. Uni Kene boshlagai, A.Smit, D.Rikardo davom ettirgan. Keyinchalik bu nazariya Keynes va boshqalar tomonidan yanada rivojlantirilgan. Milliy daromadning hosil bo'lish - jarayoni, taqsimlanishi, qayta tiqsimlanishi va undan foydalanish makroiqtisodiy statistikaning o'rganish predmetidir.

Макroiqtisodiy jarayonlarni o'rganish bir xil birliklarni qandaydir belgilar asosida gruppalash va statistik qonuniyatlarni ochishni taqazo etadi. Bunda statistikaning umumiy nazariyasiga muvofiq ishlab chiqilgan, ilmiy jihatdan asoslangan, amaliyotda isbotlangai usullardan ksnq foydalaniladi.

**Iqtisodiy agentlar** (iqtisodiy qiziquvchilar) O'zbekiston hududida ham, undan tashqarida ham bo'lishi mumkin. Hududda joylashgan birliklar mamlakat rezidentlari xisoblanadi (fuqarolikka o'xshash). Boshqa mamlakatlardagilar rezident hisoblanmaydi. Bu bol odatda ishlab chiqarish vositalari kimning hisobiga tashkil etilganiga bog'liq.



K.Marks nazariyasiga asosan xalq xo'jaligi tarmoqlari 2 sohaga ajratilgan:

1. Moddiy ne'mat ishlab chiqaradigan soha tarmoqlari;
  2. Moddiy ne'mat ishlab chiqarmaydigan soha tarmoqlari
- Makroiqtisodiyotda esa yuqoridagi nazariyaga qarama-qarshi o'laroq xalq xo'jaligiga bir butun birlik sifatida qaraladishlab chiqarishunki hamma mehnat ham yaratuvchi mehnatdir. K.Marks esa faqat moddiy ne'matlar ishlab chiqaradigan soha tarmoqlaridan mehnatni foydali mehnat deb atagan edi. Shuniig uchun iqtisodiy statistika asosiy e'tiborni moddiy boyliklar ishlab chiqarishga qaratgan edi.

Makroiqtisodiyotda esa asosiy e'tibor moddiy ne'matlar ishlab chiqarishga ham, xizmatlar ko'rsatishga ham qaratiladi (talab-taqdim-iste'mol).

Yuqoridagilardan makroiqtisodiy statistikaning asosiy ko'rsatkichlar tizimi kelib chiqadi:

1. Potensial va resurslar;
2. Ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy darajasi va ilmiy-texnika taraqqiyoti;
3. Makroiqtisodiy faoliyatning yakuniy ko'rsatkichlari (yalpi milliy mahsulot, yalpi milliy daromad va x.k.);
4. Bozor ko'rsatkichlari tizimi va aholining turmush darajasi;
5. Samaradorlik ko'rsatkichlari.

Bu ko'rsatkichlarning barchasini ham milliy iqtisod uchun, ham vatan iqtisodi uchun aniqlash va o'rganish lozim.

Har qanday fan o'zining predmetini o'rganish uchun ma'lum usullardan foydalanadi. Tabiiy fanlar (ximiya, fizika, biologiya va hakoza) o'z ob'ektlarini o'rganish uchun turli xil tajribalarni, eksperimentlarni, sinovlarni o'tkazadilar, o'lchaydilar, reaksiyaga kiritib ko'radilar va hakoza.

Ijtimoiy fanlar ham o'z uslubiyatiga ega. Masalan, statistika o'z ob'ektini o'rganish uchun ikki xil usuldan foydalanadi:

- I. Umuminsoniy falsafa qonunlari:

1. Hamma ijtimoiy hodisa va jarayonlarni bir-biridan ajralgan holda emas, balki bir-biri bilan bog'liq, shu bilan birga doimo o'zgarishda deb qaraydi;

2. Hodisalarning ijtimoiy-iqtisodiy turlari mavjudligini tan oladni, yangi progressiv tomonlarni ochadi va o'zgarish yo'nalishlarini ifodalab beradi.

II. Statistikaning umumiy nazariyasi ishlab chiqqan usullar.

Ushbu usullarga ko'ra statistik tadqiqotning 3 asosiy pog'onasi mavjud:

1. Yalpi yoki tanlama statistik kuzatish. Bunda ilmiy jihatdan puxta ishlangan dastur asosida o'rganilayotgan ijtimoiy hodisalar bo'yicha ob'ektiv ma'lumotlar to'planadi;

2. To'plangan ma'lumotlarni qayta ishlash, jamlash va guruhlash, ularni ma'lum tizimga keltirish;

3. Ma'lumotlarni qayta ishlash natijasida olingan ko'rsatkichlar tahlili.

Yuqoridagi 3 pog'onaning har birida o'ziga xos usullar qo'llaniladi (yoppasiga kuzatish, guruhlash, jamlovchi ko'rsatkichlar) va ularning barchasi birgalikda statistik uslubiyatni tashkil etadilar.

Statistik tadqiqotning 3 pog'onasi ham o'zaro bir-biri bilan chambarchas bog'langan. Tadqiqotning maqsadi yoki lozim bo'lgan ko'rsatkichlarni olish statistik kuzatish dasturining mavzusini belgilaydi. Kuzatish vaqtida dalillarning to'liq bo'lmashligi va noaniq hisobga olish noto'g'ri ko'rsatkichlar kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Bu esa noto'g'ri xulosalar chiqarishga olib keladi. O'z navbatida kuzatish natijasida olingan birlamchi to'g'ri ma'lumotlar, statistika fani qoidalariga rioya qilmay buzib ishlatilsa noto'g'ri xulosalar kelib chiqadi. Va nihoyat, uchinchi pog'onada statistik tahlil to'g'ri, ilmiy jihatdan asoslangan mulohazalar va amaliy xulosalar chiqarish imkoniyatini bermasa, u holda ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash natijalari foydasiz bo'lib qoladi.

Makroiqtisodiy statistika o'z ob'ektini o'rganishda yana statistikaning umumiy nazariyasi fanida o'rganilgan usullardan: absolyut va nisbiy miqdorlar, o'rtacha miqdorlar, variatsiya

ko'rsatkichlari, variatsion-regression tahlil, dinamika qatorlari, grafik usullar, iqtisodiy indekslar kabi usullardan ham keng foydalanadi.

**1-masala.**

Taqqoslama narxlarda quyidagi ma'lumotlar berilgan:

	<b>Bazis davri</b>	<b>Joriy davr</b>
Davlatning iste'mol xarajatlari	173	226
Eksport	219	214
Import	198	220
Uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlari	936	1107
Bilvosita soliqlar	285	326
Subsidiyalar	36	28
Boshqa joriy transfertlar		
Olingan	47	52
To'langan	50	44
Asosiy kapital iste'moli (amortizatsiya)	104	112
Moddiy aylanma mablag'lar zahiralarining o'zgarishi	-16	+14
Asosiy kapitalning yalpi shakllanishi	312	340
Yalpi foyda	397	446
Mehnat haqi	865	937

*Aniqlansin:*

1. Daromadlar metodi bo'yicha YAIM va SIM hamda ularning tarkibi.
2. YAIM va SIMdagi jamg'arish normasi.
3. Sof jamg'arish va uning dinamikasi.

*Yechish:*

1.  $YAIM = YAlpi \text{ foyda} + \text{Mehnat haqi} + \text{Sof soliqlar (yoki bilvosita soliqlar - Subsidiyalar)}$

$$\text{Bazis davrida: } YAIM_0 = 397 + 865 + (285 - 36) = 1511$$

$$\text{Joriy davrda: } YAIM_1 = 446 + 937 + (326 - 28) = 1681$$

Yalpi ichki mahsulotning daromadlar bo'yicha tarkibi:

$$\text{Bazis davrida: Yalpi foyda ulushi} = 397 : 1511 * 100 = 26,3\%$$

$$\text{Mehnat haqi ulushi} = 865 : 1511 * 100 = 57,2\%$$

$$\text{Sof soliqlar} = (285 - 36) : 1511 * 100 = 16,5\%$$

$$\text{Joriy davrda: Yalpi foyda ulushi} = 446 : 1681 * 100 = 26,5\%$$

$$\text{Mehnat haqi ulushi} = 937 : 1681 * 100 = 55,7\%$$

$$\text{Sof soliqlar} = (326 - 28) : 1681 * 100 = 17,8\%$$

$CIM = YAIM - \text{Asosiy kapital iste'moli}$

$$\text{Bazis davrida: } SIM_0 = 1511 - 104 = 1407$$

$$\text{Joriy davrda: } SIM_1 = 1681 - 112 = 1569$$

2.  $YAIMdagi \text{ jamg'arish normasi} = (\text{Asosiy kapitalni yalpi shakllantirish} + \text{Moddiy aylanma mablag'lar zahiralarning o'zgarishi}) : YAIM * 100\%$

$$\text{Bazis davrida: } (312 - 16) : 1511 * 100 = 16,6\%$$

$$\text{Joriy davrda: } (340 + 14) : 1681 * 100 = 21,1\%$$

$SIMdagi \text{ jamg'arish normasi} = (\text{Asosiy kapitalni yalpi shakllantirish} + \text{Moddiy aylanma mablag'lar zahiralarning o'zgarishi} - \text{Asosiy kapital iste'moli}) : SIM * 100\%$

$$\text{Bazis davrida: } (312 - 16 - 104) : 1407 * 100 = 13,6\%$$

$$\text{Joriy davrda: } (340 + 14 - 112) : 1569 * 100 = 15,4\%$$

3. Sof jamg'arish = Asosiy kapitalni yalpi shakllantirish + Moddiy aylanma mablag'lar zahiralarining o'zgarishi – Asosiy kapital iste'moli (amartizatsiya)

Bazis davrda:  $312-16-104 = 192$

Joriy davrda:  $340+14-112 = 242$

Sof jamg'arish dinamikasi =  $242 : 192 * 100 = 126,0\%$

## 2-masala.

Taqqoslama narxlarda quyidagi ma'lumotlar berilgan:

	Bazis davri	Joriy davr
Uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlari	720	750
Davlatning joriy iste'moli	92	98
Eksport	122	154
Import	108	149
Moddiy aylanma mablag'lar zahiralarining o'zgarishi	+8	+12
Davlat sektorida asosiy kapitalning yalpi shakllanishi	24	28
Xususiy sektorida asosiy kapitalning yalpi shakllanishi	227	235
Xorijdan olingan sof omil daromadlar	+8	-10

*Aniqlansin:*

1. YAIM, uning dinamikasi va tarkibi.
2. Jamg'arish fondi va uning dinamikasi.
3. YAMD va uning dinamikasi.
4. Jamg'arish normasi va uning dinamikasi.

*Yechish:*

$$1. \text{YAIM} = C + G + I + X - M$$

$$\text{Bazis davrida: YAIM}_0 = 720 + 92 + (227 + 24 + 8) + (122 - 108) = 1085$$

$$\text{Joriy davrda: YAIM}_1 = 750 + 98 + (235 + 28 + 12) + (154 - 149) = 1128$$

$$\text{YAIM dinamikasi} = \text{YAIM}_1 : \text{YAIM}_0 * 100 = 1128 : 1085 * 100 = 104\%$$

YAIMni xarajatlar bo'yicha tarkibi (jamiga nisbatan foizlarda):

	YAIM	S	G	I	(X-M)
Bazis davri	100,0	66,4	8,5	23,9	1,2
Joriy davr	100,0	66,5	8,7	24,4	0,4

2. Jamg'arish fondi = Xususiy sektorda asosiy kapital shakllanishi + Davlat sektorida asosiy kapital shakllanishi + Moddiy aylanma mablag'lar zahiralarning o'zgarishi

$$\text{Baziy davrda} = 227 + 24 + 8 = 259$$

$$\text{Joriy davrda} = 235 + 28 + 12 = 275$$

$$\text{Jamg'arish fondi dinamikasi} = 275 : 259 * 100 = 106,2\%$$

3. YAMD = YAIM + Xorijdan olingan sof omil daromadlar

$$\text{Baziy davrda} = 1085 + 8 = 1093$$

$$\text{Joriy davrda} = 1128 + 12 = 1140$$

$$\text{YAMD dinamikasi} = 1140 : 1093 * 100 = 104,3\%$$

4. Jamg'arish normasi = Jamg'arish fondi : YAIM \*100

Baziy davrda = 259 : 1085\*100= 23,9%

Joriy davrda =275 : 1128\*100= 24,4%

YAMD dinamikasi = 24,4% - 23,9% = 0,4 foiz punkti.

3-masala yalpi ishlab chiqarishning fizik hajmi indeksini hisoblang.

Quyidagi shartli ma'lumotlar berilgan:

	<b>Bazis davri</b>	<b>Joriy davr</b>
Moddiy ne'matlar qiymati	480	528
Xizmatlar qiymati	136	164
Moddiy ne'matlarga narx indeksi	1,08	1,10
Xizmatlarga narx indeksi	1,07	1,12

*Echish:*

YAICHning fizik hajm indeksi = YAICHning qiymat indeksi :  
YAICHning narx indeksi

YAICHning qiymat indeksi =  $YAICH_1 - YAICH_0$

YAICHning qiymat indeksi =  $(528+164) : (480+136) = 692 : 616 = 1,123$  yoki 112,3%

Joriy davrdagi YAICHning narx indeksi =  
 $(528*1,10+164*1,12):528+164) = (580,8+183,68):692=764,48 : 692 = 1,105$  yoki 110,5%

YAICHning fizik hajm indeksi =  $1,123 : 1,105 = 1,016$  yoki 101,6%

**8-masala.**

Quyidagi ma'lumotlardan foydalanib ishlab chiqarish samaradorligining umumlashtiruvchi ko'rsatkichlarini resurlar va xarajatlar usulida hisoblang:

	<b>Bazis davri</b>	<b>Joriy davr</b>
Milliy daromad	700	850
Asosiy kapital	3640	4340
Moddiy xarajatlar (amortizatsiyasiz)	690	820
Aylanma kapitalning o'rtacha yillik qiymati	830	890
Shartli pul ko'rinishida baholangan mehnat resurslari	2060	2090
Iqtisodiyotdagi yo'qotishlar	18	26
Asosiy kapital amortizatsiyasi	102	109
Mehnat haqi	370	460

*Yechish:*

1. *Resurslar varianti:* Milliy daromad : (Asosiy kapital + Aylanma kapital + Shartli pul ko'rinishida baholangan mehnat resurslari)

$$\text{Bazis davrida: } 700 : (3640+830+2060) = 700 : 6530 = 0,1072$$

$$\text{Joriy davrda: } 850 : (4340+890+2090) = 850 : 7320 = 0,1161$$

2. *Xarajatlar varianti:* Milliy daromad : (Amortizatsiyasiz moddiy xarajatlar + Iqtisodiyotdagi yo'qotishlar + Mehnat haqi + asosiy kapital amortizatsiyasi)

$$\text{Bazis davrda} = 700 : (690+18+370+102) = 700 : 1180 = 0,5932$$

$$\text{Joriy davrda} = 850 : (820+26+460+190) = 850 : 1415 = 0,6007$$



## **8-MAVZU. TASHQI IQTISODIY ALOQALAR STATISTIKASI**

### **1. Qisqacha metodik ko'rsatmalar**

O'zbekistonning 1991 yil 1 sentyabrda Mustaqillikka hamda 1992 yil 2 martda BMTga a'zo bo'lishi Respublikamizni jahon davlatlari bilan tashqi iqtisodiy faoliyatda yanada faolroq qatnashishiga olib keldi. O'tgan davr mobaynida Respublikamizda tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha bir qancha islohotlar amalga oshirildi.

O'tgan yillar mobaynida tashqi iqtisodiy kompleks bo'yicha olib borilayotgan ishlar, tashqi iqtisodiy faoliyatda qatnashuvchi tomonlar faoliyatini bozor iqtisodiyoti prinsiplari hamda ularni liberalizatsiyalashtirish asosida olib borildishlab chiqarish chet el mamlakatlari bilan iqtisodiy savdo munosabatlari, hamda xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlikni yanada chuqurlashtirish, mustahkamlash borasida olib borilayotgan ishlar yanada jadallashtirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy aloqalarini yanada liberalizatsiyalashtirish to'g'risida» «Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligining xo'jalik hisobidagi tashkilotlarni davlat aksionerlik kompaniyalariga aylantirish to'g'risida» farmonlari va «O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida»gi qonuni qabul qilindi.

1997 yil 1 oktyabrdan import bojxona soliqlari kiritildi va import bojxona soliqlari tartibga keltirildi. Kvota va litsenziyalar zarur bo'lgan tovarlar ro'yxati 11-tadan 4-ta tovarga qisqartirildi.

O'zbekiston Respublikasining 2009 yildagi jami tashqi savdo oboroti 6689,2 mln. dollarni, ya'ni 2008 yilga nisbatan 17,3%ga oshdi. Uzoq chet el mamlakatlari bilan tashqi savdo oboroti 54,3%ga oshib 3392,8 mln. dollar, MXD va Baltika davlatlari bilan esa 15,4%ga oshib 2105,4 mln. dollarni tashkil qildi.

2009 yil natijalariga ko'ra tashqi savdo bozori balansi manfiy saldosi 167,0 mln. dollar yoki 1994 yilga nisbatan 135,8 mln.

dollarga oshdi. Bu esa eksport-import jarayonlarining O'zbekistonda samarali ekanligidan dalolat beradi.

Tashqi savdo tovarooborot strukturasi o'rganish bilan bir qatorda uning dinamikasini o'rganish ham qatta ahamiyatga egadir. Quyidagi 1-jadval ma'lumotlariga murojaat qilsak jami eksport 2019 yili 2018 yilga nisbatan 24,6%ga oshgan. Import esa 9,3%ga o'sgan.

Jadval №1

**O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo dinamikasi (uzoq va yaqin chet el mamlakatlari bilan) mln. dollar (AQSH)**

	2018 yil	2019 yil	O'sish sur'ati %
Tovarooborot	5720,4	6689,2	117,3
Eksport	2988,4	3725,0	124,6
Import	2712,0	2964,2	109,3
Saldo	276,4	760,0	

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, umumiy tovarooborot 17,3%ga oshgan bo'lib, eksport va import mos ravishda 24,6% va 9,3%ga oshgan. 2003 yili tashqi savdo saldosi 760,85 mln. dollarga etdi.

O'zbekiston Respublikasining uzoq chet el mamlakatlari bilan tashqi savdo aloqasi so'nggi ikki yil mobaynida yanada rivojlandi. Buni quyidagi 2 – jadvalda keltirilgan ma'lumotlarda ko'rish mumkin.

Jadval №2

**O'zbekiston Respublikasining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo dinamikasi<sup>3</sup> (mln. doll.)**

	2018 yil	2019 yil	O'sish sur'ati %
Tovarooborot	1823,8	2105,4	115,4
Eksport	823,5	969,2	117,7
Import	1000,3	1136,2	113,6
Saldo	-176,8	-167,0	

<sup>3</sup> Узбекистан в цифрах 2020. Госкомитет Узбекистана. Статистический сборник. Ташкент 2020.

2 – jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston Respublikasi tovarooboroti 2019 yili 2018 yilga nisbatan 15,4%ga oshgan. Eksport va import mos ravishda 17,7% va 13,6%ga o'sgan. Ko'rinib turibdiki, MDH mamlakatlari bilan savdo-sotiq boshqa chet el mamlakatlari bilan bo'lgan savdoga nisbatan 2,1% past ekan.

Endi O'zbekiston Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) va Boltiqbo'yi mamlakatlari tashqi savdosi bilan tanishib chiqamiz.

Jadval №3

**Asosiy tovarlar guruhi bo'yicha O'zbekiston Respublikasining MDH mamlakatlariga eksporti (mln.doll.)**

№		2018 yil	2019 yil	Mutloq qo'shimcha o'sish	O'sish, kamayish sur'ati	Qo'shimcha o'sish sur'ati %
	Jami	823,5	969,2	145,7	117,69	17,69
1	Mashina va uskunalari	42,3	54,1	11,8	127,89	27,89
2	Energiya resurslari	2311,9	239,3	27,4	112,93	12,93
3	Oziq-ovqat	42,2	45,0	2,8	106,64	6,64
4	Paxta tolasi	316,7	421,5	104,8	133,09	33,09
5	Xizmatlar	36,4	40,2	3,8	110,43	104,3
6	Boshqalar	174,0	169,1	-4,9	97,12	-2,88

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, Respublikamiz MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo eksporti 2019 yil 2018 yilga nisbatan 17,69%ga, shu jumladan mashinalar va uskunalari bo'yicha 27,89%ga, energiya resurslari bo'yicha 12,93%ga, oziq-ovqat bo'yicha 6,64%ga, paxta tolasi 33,09%ga oshibdi.

O'tish davrini boshidan kechirayotgan har qanday davlat birdaniga TIANi rivojlantirish uchun o'zini erkin bozor girdobiga tashlab qo'qmaydi. Bunday paytda davlat bosh islohotchi sifatida maydonga chiqishi lozim. Xuddi ana shunday yo'lni O'zbekiston o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

Hozirgi kunga kelib mamlakatimiz tashqi iqtisodiy faolitni samarali olib bormoqda. O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos yo'nalishlaridan biri, tashqi iqtisodiy faolitni optimallashtirish(muqobillashtirish) hisoblanadi. TIFni oqilona tartibga solish iqtisodiy rivojlanishda davlatning muhim strategiyalaridan biridir. Bu esa o'z navbatida, mamlakatni o'ziga xos ichki va tashqi iqtisodiy holatini o'rganish, u haqda etarlicha ma'lumot olish, shu asosda mamlakatni jahon bozoridagi salbiy o'zgarishlardan saqlashni taqozo etadi. TSni tartibga solish, uni istiqbolini belgilashda statistikaning ahamiyati kattadir. Zero ishonchli ma'lumot va tahlil mamlakat TIFni asosiy strategiyasidir.

Tashqi savdo statistikasi statistikaning ajralmas qismi bo'lib, tarmoq statistikasi hisoblanadi.

Tashqi iqtisodiy aloqalar eksport va import operatsiyalaridan iborat. Tovar va xizmatlarni chet ellarga chiqarish va chet ellardan ularni mamlakatga keltirish tashqi savdoning asosiy vazifasidir. Tovar va xizmatlarni chet ellarga chiqarish eksport, keltirish esa import deb ataladi.

Eksport mahsulotlari fob (inglizcha free on board – kema bortida erkin) baholarda hisoblanadi. Bu baholar eksportchi (sotuvchi) – mamlakat iqtisodiy hududi chegarasigacha bo'lgan xarajatlarni o'z ichiga oladi. Ular mahsulot qiymatidan tashqari, uni yuklanadigan kema portigacha transport yordamida olib kelish va yuklash xarajatlari hisobiga shakllanadi.

Import mahsulotlari uchun esa sif (inglizcha cost insurance fraxt, qiymat, sug'urtalash, fraxtlash, haq to'lash sharti bilan kema yollash va yuk tashish) baholari qo'llanadi. Bu baholar importchi (sotib oluvchi) – mamlakat iqtisodiy hududi chegarasigacha bo'lgan barcha xarajatlarni qamrab oladi. Ular mahsulot qiymatidan tashqari, kema fraxtalash, transport yordamida tashish

va yuklash xarajatlaridan, soliqlar va boshqa to'lovlardan tarkib topadi.

Eksport va import baholari indeksleri tashqi savdo kanallariga kelib tushadigan tovarlarning baholari dinamikasini ta'riflaydi. Ichki baholar indekslaridan ular asos qilib olinadigan ma'lumotlar bilan tubdan farq qiladi. Tashqi savdo baholari indekslarini hisoblashda har bir aniq mahsulot baholaridan emas, balki tovar guruhlari kodlari bo'yicha o'rtacha baholardan foydalaniladi.

Demak, bu holda  $I_p = \frac{\sum q_i p_i}{\sum q_i p_0}$  o'miga  $I_p = \frac{\sum q_i \bar{p}_i}{\sum q_i p_0}$  qo'llanadi. Bu o'rtacha kod baholari eksport (import) qilinayotgan tovar turi (guruh kodi bo'yicha)ning umumiy qiymatini uning miqdoriga bo'lish natijasi hisoblanadi. YA'ni:

$$\bar{p}_i = \frac{\sum_{j=1}^k q_{ji} p_{ji}}{\sum_{j=1}^k q_{ji}} \quad \text{va} \quad \bar{p}_0 = \frac{\sum_{j=1}^k q_{j0} p_{j0}}{\sum_{j=1}^k q_{j0}}$$

Bunday yondashish tashqi savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi firma va tashkilotlarda, korporativ birlashmalarda hisob yuritishning xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib, ular indekslarni hisoblashda eksport (import) tovarlar umumiy qiymat va miqdor ko'rsatkichlaridan foydalanish imkoniyatini beradi, xalos. O'zbekiston Respublikasi statistika amaliyotida o'rtacha baholar va eksport va import baholari indeksleri har chorak va yilda tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasida ko'zlangan tovar bo'limlari, tovar guruhlari va guruh ostilari bo'yicha hisoblanadi.

Masalan: Quyidagilar berilgan:

Tovarlar	Baho (dollar)		Eksport yoki import miqdori	
	Joriy davr	Bazis davr	Joriy davr	Bazis davr
	$p_i$	$p_0$	$q_i$	$q_0$
A <sub>1</sub>	10	8	9	5
A <sub>2</sub>	7	4	10	5
V	9	6	5	5

Ilova:  $A_1$  va  $A_2$  bir tovar guruh kodini  $V$  – esa ikkinchi tovar kodini tashkil etadi.

$$\bar{P}_{1(A)} = \frac{\sum q_1 P_1}{\sum q_1} = \frac{10 \cdot 9 + 7 \cdot 10}{9 + 10} = \frac{160}{19} = 8,42 \text{ долл.}$$

$$\bar{P}_{0(A)} = \frac{\sum q_0 P_0}{\sum q_0} = \frac{4 \cdot 5 + 8 \cdot 5}{5 + 5} = \frac{60}{10} = 6 \text{ долл.}$$

$$I_p = \frac{\sum q_1 \bar{P}_1}{\sum q_1 P_0} = \frac{19 \cdot 8,42 + 9 \cdot 5}{19 \cdot 6 + 6 \cdot 5} = \frac{160 + 45}{114 + 30} = \frac{205}{144} = 1,24 \text{ ёки } 142,4\%$$

$$I_p = \frac{\sum q_1 P_1}{\sum q_1 P_0} = \frac{10 \cdot 9 + 7 \cdot 10 + 9 \cdot 5}{8 \cdot 9 + 4 \cdot 10 + 6 \cdot 5} = \frac{205}{142} = 1,444 \text{ ёки } 44,4\%$$

Bu indekslarning bir biridan farqlanishi A kod mahsulotlarining joriy va bazis davrlaridagi tuzilishida ro'yi bergan siljish bilan tushuntiriladi.

Tashqi iqtisodiy aloqalar statistikasida gap tovarlar importi, eksporti, xalqaro moliya munosabatlari, ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan shartnomaviy operatsiyalar haqida boradi.

Tashqi savdo esa o'z ichiga eksport va importni oladi. Tashqi savdo mamlakatni moddiy resurslari kamayishi yoki ortishiga tegishli tegishli bo'lgan tovar massalari, xizmatlar oqimini bojxona orqali olib o'tilishini ifodalaydi. Statistika tashqi savdoni o'rganishda faqatgina bojxona orqali qonuniy ravishda olib o'tilayotgan tovarlar va xizmatlar oqimini hisobga oladi.

Tashqi savdo statistikasi o'zida ikki xarakterni mujassamlashtiradi:

Statistika faqatgina bojxona chegaralarini kesib o'tayotgan tovarlar va xizmatlarni hisobga oladi.

Statistika chegarani kesib o'tuvchi har qanday tovarni va xizmatni, u hox tijorat asosida, hox notijorat maqsadda o'tishidan qat'iy nazar qiymatini hisobga oladi, ya'ni mamlakat tomonidan olingan har qanday iqtisodiy yordam import sifatida, iqtisodiy yordam sifatida berilgan tovarlar esa eksport sifatida qayd qilinadi.

Sobiq ittifoq davrida markazlashgan holda tashqi savdoni hisobga olish 1930 yilda boshlanadi. SHu yildan boshlab, bojxona hisobi markazlashgan holda olib borilib unga barcha ittifoq mamlakatlaridan («Tashqi dunyo»dan) olib kirilayotgan va chiqarilayotgan tovarlar hisobga olinadi. O'zbekistonda esa tashqi savdoni hisobga olish maxsus davlat xodimlari tomonidan hisobga olingan bo'lib, tashqi savdo hisobini mamlakatimizda bir necha asr oldin boshlanganligidan dalolat beruvchi manbalar mavjud. Ayniqsa, yirik xududni egallagan Amir Temur davlatida savdoni hisobga olish muhim o'rin tutgan.

1942 yildan Ittifoq xududida tashqi savdoni tashqi savdo vazirligi hisobga ola boshladi. Bu davrda tashqi savdo vazirligi faqatgina tijorat maqsadida olib kirilayotgan va olib chiqilayotgan toarlarni hisobga olar edi. 1959 yilda boshlab esa tashqi savdo vazirligi bilan birga bojxona qo'mitasi parallel hisob olib borishni yo'lga qo'yildi.

1991 yildan boshlab esa mustaqillikka erishgan O'zbekiston jahon tajribasini tan olgani kabi, tovar va xizmatlar eksport – importini bojxona qo'mitasi orqali olib bora boshladi.

Avvalam bor, eksport va import haqida va uni hisobga olish to'g'risida gap ketganda tashqi savdo hisobini olib borish haqida gapirish lozim. Bojxona xodimlari tomonidan tashqi savdoni rasmiylashtirishda bojxona deklaratsiyalari, tovar va xizmatlarga berilgan yo'l qog'ozlari, tovarlar va xizmatlarni hisobi va ularning shaotnoma pasportlari rasmiylashtirilladi. Bojxona chegaralari kesib o'tsada, ammo tashqi savdoda hisobiga olinmaydigan tovar va xizmatlar quyidagilardan iboratdir:

1. To'g'ridan – to'g'ri tranzit (omborlarda saqlanganlaridan tashqari)

2. Jismoniy va yuridik shaxslarning, horijlik fuqarolarning, hamda diplomatik missiyalarning shaxsiy yuki.

3. Bir yildan ortiq bo'lmagan muddatga joriy arendalarni maqsadga olgan shartnomadagi tovarlar.

4. Qaytayotgan taralar(konteynerlar, shisha iddishlar) va namunalalar.

5. Muomaladagi oltin tangalar va boshqa tangalar, muomalada bo'lgan qimmatli qog'ozlar va banknotlar.

6. Vaqtinchalik olib kirilayotgan yoki olib chiqib ketilayotgan tovarlar:

6.1. teatr bezaklari

6.2. sport inventarlari

6.3. mashinalar

6.4. auksion, yarmarka va ko'rgazmalarga olib kelingan tovarlar

6.5. kinofilmlar ijarasi

7. Transport vositalari va boshqa uskunalarning remonti.

8. Tovarlarini olib kelmasdan reeksport qilish.

9. Nomoddiy xizmatlar qiymati.

10. Tovar va xizmatlarni kafolatli etkazib berish.

Statistika tovarlar importi deganda quyidagini tushunadi:

1. Ichki iste'mol va qayta ishlash maqsadidagi tovarlar.

2. Uzoq muddatdagi reeksportni ko'zlab olib kelingan tovarlar.

3. Tegishli bojxona omborlarida qayta ishlash uchun olib kelingan tovarlar.

Birinchi kategoriyadagi tovarlar bojxona qo'mitasi tomonidan olib boriladigan ichki iste'mol uchun olib kirilayotgan mahsulotlarni mamlakat xududiga qo'yish bilan bog'liq bo'lgan ommaviy tadbirlardir. O'zbekiston importida ushbu tovarlar ulushi o'ta yuqoridir.

Eksport haqida gap borganda esa:

1. Mamlakat hududida ishlab chiqarilgan, qazib olingan yoki etishtirilgan mahsulotlar;

2. Bojxona nazorati ostida qayta ishlangan mahsulotlar;

3. Belgilangan bojxona omborlariga olib kelingan tovarlar;

4. Ichki iste'mol uchun import qilingan, ammo iste'mol qilinmay qolgan mahsulotlar.

Statistika tovar va xizmatlar import va eksportini o'rganishda bir necha usullardan foydalanadi. Bunday usullar jumlasiga statistikaning umumiy usullaridan: dinamika ko'rsatkichlari, indekslar usuli, grafik va jadvallar usullari, tarkib va salmoqni



ifodalovchi ko'rsatkichlar, shu bilan birga balans usuli keng foydalaniladi. Tashqi savdo balansi mamlakat uchun ma'lum muddatda tashqi savdoni holatini yaqqol ko'rsatib beradi. SHu bilan birga tashqi sado balansi mamlakat tashqi savdosi istiqbolini va tashqi savdoga tegishli chora-tadbirlar manbai ekanligini hisobga olish lozim.

Tashqi savdoga tahlil ko'z bilan yondashishda indekslar usuli ahamiyati katta. CHunki zamon va makonda tashqi savdoni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Baho indeksini quyidagicha formula yordamida hisoblanadi:

$$I_p = \frac{\sum q_1 P_1}{\sum q_1 P_0}$$

Paashe formulasi.

Ba'zi hollarda ayrim tovarlar uchun baho indeksini hisoblashga to'g'ri keladi.

$$i_p = \frac{P_1}{P_0}$$

Tashqi savdoni fizik hajmida bo'layotgan o'zgarrishlarning umumiy tarzda quyidagi indeks orqali ifodalanadi:

$$I = \frac{\sum q_1 P_1}{\sum q_0 P_0} \text{ (Laspeyres formulasi)}$$

ayrim tovarlar uchun esa:

$$i = \frac{q_1}{q_0}$$

Bundan tashqari tashqi savdoni shartini ifodalovchi indeks:

$$I_{CT} = \frac{I_{PO}}{I_{PM}}$$

Bu yerda:  $I_{PO}$  – eksportning o'rtacha baho indeksi.

$I_{PM}$  – importning o'rtacha baho indeksi.

Shu bilan birga tashqi savdoni strategiyasini ifodalab beruvchi import kvota va eksport kvotasi darajasi va indeksi hisoblanadi.

Eksport kvotasi darajasi:

$$K_{\text{эк}} = \frac{\text{ЭК}}{\text{ЯИМ}}; \text{индекс } i_{\text{эк}} = \frac{K_{\text{эк1}}}{K_{\text{эк0}}}$$

Import kvotasi:

$$K_{\text{им}} = \frac{\text{ИК}}{\text{ЯИМ}}; \text{индекс } i_{\text{им}} = \frac{K_{\text{им1}}}{K_{\text{им0}}}$$

Tashqi savdoni rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilishda eksport va import elastikligi koeffitsenti hisoblanadi.

Eksport elastikligi.

$$\varepsilon_{\text{эк}} = \frac{\Delta \text{ЭК}}{\text{ЭК}} \cdot \frac{\text{ЯИМ}}{\text{ЯИМ}}$$

Import elastikligi.

$$\varepsilon_{\text{им}} = \frac{\Delta \text{ИК}}{\text{ИК}} \cdot \frac{\text{ЯИМ}}{\text{ЯИМ}}$$

Bu yerda  $\Delta$  o'sishning absolyut qiymatini ifoda etadi.

Birinchi ko'rsatkich YAIMning o'sish tendensiyasiga nisbatan eksport o'sish tendensiyasini nisbatim aniqlaydi. Ya'ni, mahsulot eksportini YAIM o'sish ta'siri va eksport hajmini real o'sishini ifodalaydi.

Ikkinchi ko'rsatkich esa YAIM o'sishi bilan import hajmini o'sishi o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalab, ularning o'sish tendensiyalarini o'zaro taqqoslashga imkon beradi.

Statistika yuqorida aytib o'tilgan ko'rsatkichlardan tashqari tashqi savdoni salmog'i, uning strukturasi ham keng o'rganadi.

## 2. Mustaqil ishlash uchun savollar

1. Tashqi savdoni o'rganishning qanday statistik metodlarini bilasiz?
2. Tashqi savdo dinamikasi qanday o'rganish mumkin?
3. Tashqi savdo tuzilmasini o'rganishning ahamiyati nimadan iborat?
4. Baholarni bir asosga keltirish qanday amalga oshiriladi?
5. Tovaroborot fizik hajmi indeksi qanday hisoblanadi?
6. Tovaroborot indeksi qanday hisoblanadi?
7. Xalqaro savdoda qo'llaniladigan baholarga nimalar kiradi?
8. Xalqaro savdo baholarining shakllanish xususitlari qanday?

9. To'lov balansi haqida nima bilasiz?
10. Tashqi savdoda eksport va import deganda nimani tushunasiz?
11. Tashqi savdoning jo'g'rofik tuzilmasi deganda nimani tushunasiz?

### 3. Masalalar

**8.1-masala.** Eksport (Fob baholari) va import (SIF baholari) to'g'risida quyidagi ma'lumotlar berilgan (mlrd. dollar):

Mamlakatlar	Import		Eksport	
	2015 y.	2019 y.	2015 y.	2019 y.
Dunyo bo'yicha	2006,5	4238,9	1931,5	4173,8
SHu jumladan				
AQSH	361,6	689,2	218,8	512,2
Yaponiya	129,5	275,5	175,7	397,4
Germaniya	158,6	381,1	184,0	426,6
Rossiya	-	38,7	-	63,3

Aniqlang:

- a) butun jahon va ayrim davlatlar bo'yicha eksport va importning yillik qo'shimcha mutlaq va nisbiy o'sishini;
- b) tashqi savdo saldosini;
- v) ayrim davlatlarda importni eksport bilan qoplanish koeffitsientini.

**8.2-masala.** Mamlakat iqtisodiyotini ifodalovchi quyidagi shartli ma'lumotlar berilgan (mln. dollar):

Yillar	Import	YAIM
2004	70	680
2005	72	715
2006	65	720
2007	74	736
2008	80	728
2009	91	742
2010	83	761
2011	106	797

2012	98	821
2013	112	837
2014	126	855
2015	110	823
2016	122	841
2017	130	874
2018	128	868
2019	145	900

Hisoblang:

- a) YAIM va import orasidagi chiziqli korrelyasiya koeffitsientini;  
 b) import bo'yicha to'g'ri chiziqli tenglama parametrlarini;  
 v) 2021 va 2022 yillar uchun import prognozini.

**8.3-masala.** Mamlakat iqtisodiyotini ifodalovchi quyidagi shartli ma'lumotlar berilgan (mln. dollar):

Yillar	Import	YAIM
2004	42	435
2005	47	450
2006	45	461
2007	52	470
2008	55	485
2009	58	500
2010	59	493
2011	56	506
2012	61	510
2013	65	535
2014	70	546
2015	77	573
2016	80	578
2017	82	583
2018	90	598
2019	100	600

Hisoblang:

Aniqlang: 1) Aholining joriy davrdagi shaxsiy daromadlarini; 2) Aholining joriy davrdagi shaxsiy iste'mol xarajatlarini; 3) Shaxsiy iste'mol xarajatlarining fizik hajm indeksini.

**10.30-Masala.** «A» mamlakat bo'yicha quyidagi shartli ma'lumotlar berilgan: (mln. dol.),

Ko'rsatkichlar	O'tgan davr	Joriy davr
----------------	-------------	------------

Shaxsiy daromad	450	7000
Mavjud daromad,	2250	3800
Tashkilotlarning taqsimlanmagan foydasi	600	900
Egri soliqlar	3800	4900
Shaxsiy omonatlar (jamg'armalar)	280	400

Aniqlang: 1) Aholining shaxsiy daromadlari va ularning dinamikasini; 2) Aholining shaxsiy iste'mol xarajatlari va ularning dinamikasini.

**10.31-Masala.** «A» mamlakat bo'yicha 1 yillik shartli ma'lumotlar berilgan; (ming dol.)

Asosiy kapitaldagi shaxsiy sarmoyalar	-1930
shu jumladan:	
amortizatsiya hisobiga	-1200
korxonaning boshqa xususiy mablag'lari hisobiga	-480
aylanma kapitaldagi shaxsiy sarmoyalar	-450
korxonalariga berilgan davlat subsidiyalari	-250
shu jumladan: asosiy kapitalni ko'paytirishga	-180
xorijga yo'naltirilgan kapitalning	
yalpi sarmoyalari	-320
xorij agentlari tomonidan amalga oshirilgan	
korxonalar yalpi sarmoyalari	-180
korxonalar asosiy kapitalining davlat yalpi sarmoyalari	-570

Aniqlang:

- 1) YALpi milliy kapital quyilmalarning qiymatini;
- 2) Sof milliy kapital quyilmalarini;
- 3) YALpi milliy kapital qo'yilmalarini.

**10.32-Masala.** Mamlakat milliy iqtisodiyotining bir bo'limi haqida quyidagi shartli ma'lumotlar berilgan (mln. dol.):

	Mehnat xarajatlari	Asosiy va aylanma kapital xarajatlari	Qo'shilgan qiymat
--	--------------------	---------------------------------------	-------------------

O'tgan davr	3500	1200	6300
Joriy davr	3700	1450	200

Ishlab chiqarish funksiyasini va «A» parametrlarini aniqlang. Kabba-Duglas tenglamasini tuzing.

**10.31-Masala.** Mamlakat sanoat faoliyati haqida quyidagi shartli ma'lumotlar berilgan

Ko'rsatkichlar	O'tgan davr	Joriy davr
Qo'shilgan qiymat, ming dollar	2000	3800
Qo'shimcha qiymatga kirmaydigan moddiy xarajatlar, ming dollar	900	1600
Ishlab chiqarish xizmat omillari qiymati mingda;	1823	3670
Asosiy va yordamchi materiallar	165	300
Amortizatsiya	77	135
Tashqi ishlab-chiqarish xizmatlari	635	1046
Mehnat va boshqaruv	200	83
Boshqa kapital xarajatlari	116	190
O'rtacha ishchilar soni, kishi		

Aniqlang: 1) O'tgan va joriy davrdagi global (umumiy) unumdorlik ko'rsatkichlarini;

2) Statistika uslubiyotida qabul qilingan mehnat unumdorligi ko'rsatkichlarini aniqlang.

Ushbu 2 ta ko'rsatkichlar dinamikasini taqqoslang.

**10.32-Masala.** «A» mamlakat milliy iqtisodiyotining tarmoqlari bo'yicha quyida shartli ma'lumotlar berilgan:

Ko'rsatkichlar	qishloq xo'jaligi	transport	sanoat	iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari
O'tgan davrda mehnat sarflari mln. kishi-kuni	50	70	130	210

Joriy davr mehnat sarflari mln. kishi-kuni	60	85	125	200
Joriy davrda bazis nisbatan mehnat ishlab chiqarishning o'zgarishi, % da	+20,0	+25,0	-10,0	-5,0

Butun milliy iqtisodiyot uchun mehnat unumdorligi indeksini hisoblang.

# 11-MAVZU. XALQARO AHOLI TURMUSH DARAJASI STATISTIKASI

## 1. 1. Qisqacha metodik ko'rsatmalar

Turmush darajasi murakkab iqtisodiy kategoriya bo'lib, u biror-bir alohida ko'rsatkich bilan ifodalanmaydi. Shu sababli BMTning Statistika komissiyasi quyidagi ko'rsatkichlarni tavsiya etadi:

a) aholining demografik tavsifi (tug'ilish, vafot etish, kasal bo'lish, kelajakda ko'radigan umrining o'rtacha uzunligi);

b) sanitariya-gigiena sharoitlari;

v) oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish darajasi;

g) uy-joy hamda uzoq muddat davomida foydalaniluvchi jihozlar (avtomobil, muzlatgich, televizor va hokazo) bilan ta'minlanganlik;

d) ta'lim va madaniyat;

e) bandlik va mehnat sharoitlari;

j) aholining daromad va xarajatlari;

z) yashash qiymati va iste'mol narxlari;

i) transport vositalari;

k) dam olish, fizkultura va sportni tashkil qilish;

l) ijtimoiy ta'minot;

m) insonning erkinligi.

Turmush darajasini umumlashtiruvchi ko'rsatkichlardan biri sifatida aholi jon boshiga milliy daromad ishlab chiqarilishi (AQSH dollari yoki Evroda) qo'llaniladi. Biroq faqat bu boradagi ko'rsatkichlarning o'zi turmush tarzi haqida etarlicha ma'lumot bera olmaydi. Shu sababli undan xalqaro taqqoslashlarda juda ehtiyotkorlik bilan foydalanish kerak.

Turli mamlakatlarning statistika amaliyotida aholining turmush tarzini o'rganish uchun ko'pincha quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

- nominal va real ish haqi;
- aholining nominal va real daromadlari;
- aholi xarajatlari va jang'arnalari;

■ aholining uy-joy va uzoq muddat foydalaniladigan jihozlar bilan ta'minlanganligi;

■ oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlarining eng zarur turlarini iste'mol qilish darajasi;

■ bandlik va ishsizlik darajasi;

■ mehnat sharoitlari ko'rsatkichlari;

■ ta'lim, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport, turizm va dam olish ko'rsatkichlari.

Xalqaro statistikada o'rtacha ish haqi bir ishchiga emas, balki bir odam-soatga nisbatan hisoblanadi. Bu jahonning ko'p mamlakatlarida ishchilarning katta qismi to'liqsiz ish vaqti bilan band ekanligi bilan izohlanadi.

Aholining daromadlari ish haqidan tashqari boshqa manbalardan olingan barcha pul va natural ko'rinishdagi daromadlarni o'z ichiga oladi. Ularga quyidagilar mansub :

1. Ish haqi shaklida bo'lmagan mashg'ulotlardan olinadigan daromadlar (choychaqa, qalam haqi, shaxsiy tomorqa xo'jaligidan olingan daromad, yakka tarzda mehnat faoliyatini yuritish tufayli olingan daromad).

2. Korxonalaridan beriladigan ish haqi shaklida bo'lmagan daromad (moddiy yordam, korxonadan ketganda to'lanuvchi pul va hokazo).

3. Nafaqalar, stipendiyalar, kompensatsiya va tovon to'lovlari.

4. Xususiy mulkdan olingan daromad (foiz, renta, dividend, ijaraga berishdan tushgan daromad va hokazo).

5. Yutuqlar, meros, sovg'a, sug'urta to'lovlari.

6. Nolegal va yashirin faoliyat tufayli olingan daromad; chet eldan olinuvchi daromad (oylik ish haqi, nafaqa, stipendiya, grantlarni o'tkazish; insonparvarlik yordami va hokazo ).

Ish haqi ham, aholining daromadlari ham ikki xil variantda aniqlanishi mumkin:

1. Nominal sifatida.

2. Real tarzda.

Nominal ish haqi va nominal daromadlar bu ko'rsatkichlarning joriy narxlarda aks ettirilishidir. Real ish haqi va real daromadlar

o'z ish haqi va daromadlariga sotib olish mumkin bo'lgan moddiy ne'mat va xizmatlar summasini tavsiflaydi. Real va nominal daromad (ish haqi) o'tasida quyidagicha aloqalar mavjud:

$$R_{dar.ish.haqi} = N_{dar.ish.haqi} \div J_{is.baxo}$$

Bu yerda:  $R_{dar.ish.haqi}$  - real ish haqi yoki daromad;

$N_{dar.ish.haqi}$  - nominal ish haqi yoki daromad;

$J_{is.baxo}$  - iste'mol narxlari indeksi.

Iste'mol narxlari indeksini hisoblash murakkab hamda muammoli vazifa hisoblanadi. Biroq uni yechish juda katta amaliy ahamiyatga ega. Ma'lumki, istalgan mamlakatda yuz minglab va millionlab iste'mol mahsulotlari va xizmat turlari mavjud. Shu sababli narxlar indeksini har bir xizmat yoki tovar uchun aniq hisoblab chiqishning iloji yo'q. Bundan kelib chiqqan holda tovar-namuna usulidan foydalanish tavsiya etiladi.

Iste'mol narxlarining jamlanma indeksi guruhlardagi narx indeksleri har bir guruhning ishlab chiqarilgan jami mahsulot va xizmatlar qiymatidagi salmog'iga ko'ra solishtirish yo'li bilan aniqlanadi:

$$J_{is.baxo} = \frac{\sum I_i \cdot q_0 \cdot p_i}{\sum p_i \cdot q_0} = \frac{\sum p_i \cdot q_0 \cdot I_i}{\sum p_i \cdot q_0}$$

BMT ning Statistika qo'mitasi tomonidan tavsiya etilgan umumiy ko'rsatkichlardan biri daromadlar konsentratsiyasining koeffitsientidir. U ko'proq "Djini indeksi" nomi bilan tanilib, taqsimlashning amaldagi chetga og'ishlari darajasini belgilaydi. Boshqacha qilib aytganda, agar biror mamlakat aholisining o'rtacha daromadi ma'lum bo'lsa, aholining ma'lum bir guruhi daromadlarini mamlakatdagi o'rtacha daromadga bo'lish yo'li bilan daromadlar konsentratsiyasi koeffitsientining necha foizga oshganligini osongina hisoblash mumkin.

Aholining jamg'armalari uning daromadlari va joriy xarajatlari orasidagi farqni anglatadi. Jamg'armalar pul yoki natural ko'rinishida bo'lishi mumkin. Pul jamg'armalari aholi qo'lidagi pul mablag'larining o'sishi yoki qimmatbaho qog'ozlarga (aksiya, obligatsiya, sertifikat va hokazo) kiritilgan mablag'larning o'sishini anglatadi. Natural ko'rinishdagi jamg'armalar aholiga tegishli bo'lgan yer maydonlari, asosiy kapital (uy-joy, xo'jalik inshootlari, transport va hokazo) va moddiy zaxiralarning ortishini anglatadi.

Aholining uy-joy sharoitlarini tavsiflashda xalqaro statistika birinchi o'rinda uy-joy egalarini ajratib ko'rsatadi. Bu maqsadda jami uy-joy fondi xususiy (undan o'z egasi foydalangan holda), ijaraga olingan va davlatga tegishli turlarga bo'linadi. Ayrim oilalar bir nechta uy-joyga ega bo'lganliklari sababli (ba'zan boshqa shahar va davlatlarda) statistikada birlamchi rezidensiya (egasi o'z vaqtini ko'proq o'tkazuvchi joy) va ikkilamchi rezidensiya ajratib ko'rsatiladi.

Uy-joy sifatini o'rganishda uyning qavatlari, devorlarning materiali, shiftning balandligi, maishiy-kommunal qulayliklar (elektr toki, gaz, suv, vannaxona, telefon va hokazo) bilan ta'minlanganlik darajasiga asosan guruhlashdan foydalaniladi. Xususiy uy-joy uchun unga tegishli bo'lgan yer maydoni ko'rsatiladi. Aholining uy-joy bilan ta'minlanganligini umumlashtirib, tavsiflash uchun belgilangan standart talablariga javob bermaydigan uy-joylarda yashovchilar soni va ularning aholi umumiy sonidagi salmog'i hamda har bir uy uchun to'g'ri keluvchi xonalar soni ko'rsatkichlari ham qo'llaniladi. G'arb mamlakatlarining uy-joy bilan ta'minlash standartida bu holda har bir yashovchiga bitta xona va yana qo'shimcha ravishda umumiy xona to'g'ri kelishi ko'zda tutilgan.

Aholining uzoq muddat xizmat qiluvchi turli jihozlar bilan ta'minlanishiga kelganda esa, xalqaro statistikada bunday jihozlarning har 100 ta oilaga yoki har 1000 kishiga to'g'ri kelishi hisobga olinadi. Bu avtomobil, muzlatgich, sovutgich, televizor, telefon, kir yuvish mashinasi, changyutgich va hokazolarga tegishlidir.

Aholi oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlarining eng zarur turlari iste'mol qilishini tavsiflash jami aholi, shuningdek turli ijtimoiy-kasbiy guruh a'zolarining go'sht, sut, baliq, tuxum, non va boshqa mahsulotlarni aholi jon boshiga o'rtacha yillik iste'molini aniqlash yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunda oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilishda faqatgina miqdorga emas, sifatga ham e'tibor beriladi. Bu maqsadda iste'mol qilinayotgan oziq-ovqat mahsulotlarining kaloriyalilik darajasi, shuningdek, oqsil, uglevod va vitaminlar bilan ta'minlanganlik darajasi ham hisobga olinadi. Biroq xalqaro statistika amaliyotida bunday ko'rsatkichlar zarur axborotlarning etishmasligi sababli kamdan-kam hollardagina ishlatiladi.

Aholining madaniyati va ma'lumoti darajasini o'rganish uchun BMT Statistika qo'mitasi quyidagi bir qator ko'rsatkichlarni tavsiya qiladi:

a) savodsizlar soni va ularning "savodlilik yoshi" dan (bu yosh har bir mamlakat uchun muayyan sharoitlar asosida alohida belgilanadi) katta yoshdagilar sonidagi salmog'i;

b) maktabga bormayotgan maktab yoshidagi bolalar soni;

v) boshlang'ich va o'rta maktablarda o'qiyotganlar soni va tarkibi;

g) har 100 ming kishiga oliy o'quv yurtlari talabalari soni;

d) har 100 ming kishiga kundalik gazetalar soni;

e) har 100 ming kishiga kitoblar tiraji soni va shu kabi boshqa ko'rsatkichlar.

**1-Masala.** O'tgan davrda tovarlar va xizmatlar to'plami qiymati ( $\sum P_0 q_0$ ) – 143,5 mln. so'm. Ushbu to'plamning joriy davrdagi qiymati ( $\sum P_1 q_0$ ) – 165 mln. so'm.

**Masala yechimi:** Iste'mol baholari indeksini quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$$I_p = \frac{\sum P_1 q_0}{\sum P_0 q_0} = \frac{165,0}{143,5} = 1,15 \quad \text{yoki } 115 \%$$

Demak, joriy davrda iste'mol baholari 15 % ga oshgan.



Ayrim tovarlarni iste'mol qilish darajasi baholar darajasi va aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar darajasiga bog'liq. Natijaviy belgi (u) va omil belgi (x) o'rtasidagi bog'lanishni o'rganish uchun elastiklik koeffitsientini (E) quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$E = \frac{\Delta y}{\Delta x} \cdot \frac{y}{x} = \frac{\Delta y}{y} \cdot \frac{\Delta x}{x}$$

**2-Masala.** Joriy davrda uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar (x) bahosi o'tgan davrga nisbatan 60 % ga, ularni sotib olish xarajatlari (u) esa 50,5 ga oshdi.

Uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar elastiklik koeffitsienti quyidagicha hisoblanadi:

$$E = \frac{\Delta y}{\Delta x} \cdot \frac{\Delta x}{x} = \frac{0,50}{0,60} = 0,83 \text{ yoki } 83 \%$$

Demak, tovarlar baholashning 1 % ga oshishi natijasida ularni sotib olish xarajatlari 17 % ga (100-83) kamayishi kuzatilar ekan.

## 2. Mustaqil ishlash uchun savollar

1. Aholining turmush darajasi ko'rsatkichlari qanday aniqlanadi?
2. Aholining turmush tarzi ko'rsatkichlari qanday aniqlanadi?
3. Iste'mol savatchasi qanday aniqlanadi?
4. Kambag'allik chizig'i qanday aniqlanadi?
5. Aholiga xizmat ko'rsatish ko'rsatkichlari qanday aniqlanadi?
6. Turmush darajasini umumlashtiruvchi ko'rsatkichlari deganda nimani tushunasiz?
7. Aholining daromadlari tarkibi nimalar kiradi?
8. Nominal ish haqi va nominal daromadlar deganda nimani tushunasiz?
9. Iste'mol narxlari indeksi nimani ifodalaydi?
10. Aholining uy-joy sharoitlarini tavsiflashda qanday ko'rsatkichlardan foydalaniladi?

### 3. Masalalar

**11.1-Masala.** Rossiya Federatsiyasi aholisining 2019 yilda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan pul daromadlari miqdori bo'yicha taqsimlanishi to'g'risidagi quyidagi ma'lumotlar berilgan:

	Jami aholi soniga nisbatan, % da
Jami aholi	100
Shu jumladan	
1 o'yda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad, rub	
500 gacha	1,4
500,1 – 750	4,1
750,1 – 1000	6,4
1000,1 – 1500	15,7
1500,1 – 2000	15,3
2000,1 – 3000	22,9
3000,1 – 4000	13,7
4000 dan yuqori	20,5

Aniqlang:

- 1) aholining o'rtacha daromadi miqdorini;
- 2) moda va medianani;
- 3) daromadlar differentsiyasi Detsil va Djini koefitsientlarini.

Olingan natijalarni tahlil qiling va xulosalar chiqaring.

**11.2-Masala.** Oilalarning o'rtacha aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlari taqsimot qatori berilgan:

	Oilalar soni	
	Mln.	Janniga nisbatan, % da
Jami aholi	50,0	100
Shu jumladan: 1 o'yda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad bo'yicha, so'm		

100 gacha	0,1	0,2
101 – 200	2,8	5,6
201 – 300	5,4	10,8
301 – 400	7,0	14,0
401 – 500	7,6	15,2
501 – 600	7,3	14,6
601 – 700	6,2	12,4
701 – 800	5,1	10,2
801 – 900	4,1	8,2
900dan yuqori	4,4	8,8

Aniqlang:

- 1) aholining o'rtacha daromadi miqdorini;
  - 2) moda va medianani;
  - 3) daromadlar differentsiyasi Detsil va Djini koefitsientlarini.
- Olingan natijalarni tahlil qiling va xulosalar chiqaring.

**11.3-Masala.** Joriy davrda viloyatlardagi xodimlarning o'rtacha oylik ish haqi 72450 so'mni, o'tgan davrda esa 65600 so'mni tashkil etdi. Shu davrda iste'mol baholari 2,19 marotaba oshdi.

Real ish haqi indeksini aniqlang.

**11.4-Masala.** Baho indeksi 0,995 ni tashkil etdi. Milliy valyutaning to'lov qobiliyati qanday o'zgaradi?

**11.5-Masala.** Joriy davrda xodimlarning o'rtacha oylik ish haqi 350 pul birligini tashkil etib, o'tgan davrdagidan 5 % ga ko'p bo'ldi. Shu davrda shartli pul bo'lagining to'lov qobiliyati 3 % ga kamaydi. Real ish haqi indeksini aniqlang.

**11.6-Masala.** 2019 yil uchun quyidagi ma'lumotlar berilgan: tovar va xizmatlar bahosining o'rtacha oylik o'zgarishi I kvartalda – 13 %, II kvartalda – 17 %, III kvartalda – 7 % va IV kvartalda –

10 % ni tashkil etdi. Nominal ish haqi yil mobaynida ikki marotaba oshdi.

Aniqlang:

- 1) baholarning har kvartalda va bir yildagi o'zgarishini;
- 2) yil maboynida real ish haqining o'zgarishini.

**11.7-Masala.** Quyidagi ma'lumotlar berilgan:

	Baho indeksi 2019 y.=100	Guruhning umumiy xarajatlardagi (2017y.) salmog'i (% da)
Tovarlar	324	87
Xizmatlar	615	13

Aniqlang:

2019 yil uchun umumiy baho indeksini.

**11.8-Masala.** Mamlakat aholi punktlaridan birida sotilgan uzoq muddat xizmat qiladigan tovarlarning sotilgan hajmi to'g'risida quyidagi ma'lumotlar berilgan:

Tovarlar turi	Joriy baholarda sotilgan tovarlar, mln. so'm		Baholarning o'zgarishi, marotaba
	O'tgan davr	Joriy davr	
Kompyuterlar	500	800	1,3
Videomagnitafonlar	240	400	1,5
Muzlatgichlar	320	650	1,6
Gaz plitalari	250	570	1,35

Shu davr ichida aholi soni 1,5 % ga ko'paygan.

Aniqlang:

- 1) uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar qiymat indeksini;
- 2) ayrim va barcha tovarlar fizik hajm indekslarini;
- 3) ayrim va barcha tovarlarning aholi jon boshiga iste'mol indekslarini.

**11.9-Masala.** Uy xo'jaliklarining byudjet kuzatish o'tkazish natijasida aholining o'tgan davrga nisbatan joriy davrda sabzavotlar iste'mol qilishi 2,2 % ga oshganligi, sut mahsulotlari iste'mol qilish esa 1,5 % ga kamaygani aniqlandi. SHu davr maboynida uy xo'jaliklarining daromadi 8 % ga oshdi. Elastiklik koeffitsientini aniqlang.

**11.10-Masala.** O'tgan davr maboynida uzoq muddat xizmat qiluvchi tovarlarni sotib olish qiymati 11,5 % ni, jon boshiga daromadlar o'sishi 105,75 % ni tashkil etdi. Elastiklik koeffitsientini aniqlang.

**11.11-Masala.** O'tgan davrda kartoshka iste'mol qilish bir oyda kishi boshiga 9,3 kg ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich joriy davrda 0,75 kg ga osbdi. 1 kg kartoshkaning o'tgan davrdagi bahosi 300 so'm bo'lib, joriy davrda 4 % ga oshdi. Shu davr mobaynida oylik jon boshiga to'g'ri keladigan daromad 65000 so'mdan 73000 so'mga ortdi.

Daromadlar o'zgarishi natijasidjasida iste'mol elastiklik koeffitsientini hisoblang.

**11.12-Masala.** «N» davlati bo'yicha quyida shartli ma'lumotlar berilgan:

	2013	2015	2017	2019
Jamg'arma banklar soni, ming dona	6,6	7,4	7,8	8,3
Qo'yilmalar soni, mln.	5,2	5,7	8,0	9,5
Qo'yilmalar qiymati, mln. dol.	1090	1873	452	70,9

Bundan tashqari jamg'arma banklarning soni, qo'yilmalarning soni va ularning shahar va misoli posyolkalardagi tortilgan qismlari xaqida ma'lumotlar berilgan (% da):

	2013	2015	2017	2019
Jamg'arma banklar soni	29,3	30,3	30,0	30,1
Qo'yilmalar soni, mln.	73,3	73,5	73,6	73,9
Qo'yilmalar qiymati	80,1	74,9	73,0	71,3

Topish kerak (2019 yilga nisbatan): 1) jamg'arma banklar soni, qo'yilmalar sonini, qo'yilmalar summasining obsalyut o'sish sur'atlarini; 2) o'rtacha qo'yilmalar soni va uning o'sish sur'atini; 3) qo'yilmalarning o'rtacha qiymati va uning usish sur'atini; 4) shahardagi va shahar tipidagi posyolkalarda o'rtacha qo'yilmalar soni va ko'yilmaning o'rtacha qiymati hamda ularning o'sish sur'atini; 5) qishloq joylardagi o'rtacha qo'yilmalar soni, o'rtacha qo'yilmalarning qiymati (o'lchami)ni va ularning o'sish sur'atlarini. Olingan natijalarni tahlil qiling va xulosalar chiqaring.

**11.13-Masala.** Davlatning jamg'arma banklari bo'yicha quyidagi shartli ma'lumotlar berilgan:

	2010	2015	2019
Jamg'arma banklarning yil oxiridagi soni	4700	5800	6900
Yil ohiriga bo'lgan qo'yilmalarning summasi, mln. dollarda	560	880	1100
Yil ohiriga bo'lgan qo'yilmalarning soni, mln.	3700	4700	5200

Ko'rsatilgan yillardagi: 1) bitta jamg'arma bankiga to'g'ri keladigan o'rtacha qo'yilmalar soni; 2) bitta omonatchiga to'g'ri keladigan o'rtacha qo'yilmalar summasini; 3) bitta jamg'arma bankiga to'g'ri keladigan o'rtacha qo'yilmalar summasi aniqlansin.

Olingan natijalarni o'zgarishini dinamik tahlil qiling.

**11.14-Masala.** Ma'lum bir davlatda 5 yil mobaynida 1 ta omonatgina o'rtacha qo'yilma miqdori 70% ga, omonatchilar soni esa 40% ga oshgan.

Aniqlang: 1 ta jamg'arma bankiga to'g'ri kelgan o'rtacha qo'yilmalar miqdorining oshishini.

**11.15-Masala.** Ma'lum bir davlatda jamg'arma banklarning soni 15% ta hamda bitta jamg'arma bankining jami qo'yilmalar summasi o'rtacha 25% ga oshgan. Bir jamg'arma bankka o'rtacha qo'yilma miqdorining o'zgarishini aniqlang.

**11.16-Masala.** Bir davlat misolida tijorat bankining ssudalari bo'yicha qo'yidagi ma'lumotlar berilgan: (ming dol.):

	1yanvar holga	1fevral holga	1mart holga	1aprel holga
Tijorat bank kreditlari	820	840	835	880
To'lash muddagi uzaytirilgan ssudalar koldiqlari	8	9	7	4

Debet – hisobi, ya'ni uzaytirilgan qarz miqdori 80000 dollarni tashkil etdi.

Topish kerak: 1) bir kvartaldagi to'liq muddati, uzaytirilgan ssudalar va jami kredit qo'yilma summalarining o'rtacha qoldiqlari; 2) uzaytirilgan qarzdorlikning salmog'ini (ulushini); 3) uzaytirilgan qarzdorlikning o'rtacha davomiyligini.

**11.17-Masala.** Tijorat banki bir bo'limining ish faoliyati to'g'risida quyidagi ma'lumotlar berilgan:

Ssuda miqdori, ming	100	200	600
Ssuda berilgan muddat, oylar xisobida	4	6	2

Xisoblang: 1) o'rtacha ssuda miqdorini; 2) o'rtacha ssuda muddatini; 3) o'rtacha ssuda oboroti sonini.

**11.18-Masala.** Quyidagi ma'lumotlar asosida 1 oy va kvartal uchun kredit muddatini aniqlang (ming dollarda):

Oylar	To'lash muddati, uzaytirilgan ssudalarning o'rtacha qoldig'i	Kredit oboroti	
		Jami	Shu jumladan, to'lash muddati uzaytirilgan ssudalar
Yanvar	2000	6600	65
Fevral	2200	6400	40
Mart	2350	6100	25

**11.19-Masala.** Quyidagi ma'lumotlar asosida, tijorat bankidagi qo'yilmalar siljishini 1 iyul 2020 yil hisobiga o'rtacha miqdorini va olti oy uchun qo'yilmalarning saqlash muddati aniqlansin.

Qo'yilmaning Tartib raqami	Qo'yilgan vaqti	Qo'yilma miqdori, dollarda	Olingan vaqti	Olingan qo'yilma miqdori, dol.
1	1yanvar	200	1may	100
2	1mart	300	1aprel	300
3	1aprel	500	1may	500
4	1may	400	1iyun	250
5	1iyun	100	1iyul	100

**11.20-Masala.** Quyidagi ma'lumotlar asosida, tijorat bankinging bir bo'limidagi ssuda xarakatining 1 kvartal uchun o'rtacha miqdori va o'rtacha ssuda muddati aniqlansin.

Ssuda tartib raqami	Ssuda berilgan vaqt	Ssuda miqdori dollarda	Ssuda uzilgan vaqt
1	10 yanvar	10000	10 mart
2	20 fevral	8500	10 aprel
3	15 mart	1500	30 mart
4	25 mart	500	30 mart

**11.21-Masala.** 10000 dollar miqdordagi pul qo'yilmasi jang'arma bankiga 20 yanvarda qo'yilib, 15 noyabrda bankdan olingan. Yiliga 2% hisobidan qo'yilmadan olingan foiz summasi aniqlansin.

**11.22-Masala.** Quyidagi shartli ma'lumotlar asosida, alohida har bir kvartal va butun yil uchun quyidagi pul massaning oborotlar

soni va 1 dollarning oborotdagi davomiylilik vaqti aniqlansin. (mln. dollar).

	I kvar	II kvar	SH kvar	IV kvar
Bir kvartal uchun muomaladagi o'rtacha pul massasi	1,4	2,0	2,2	1,8
Bir kvartalda tijorat bankiga tushgan naqd pullar	5,6	7,2	9,0	8,6

**11.23-Masala.** Bir mamlakat bo'yicha quyidagi shartli ma'lumotlar keltirilgan:

Pul kupyuralari, dol.	1	2	5	10	20	50	100	
Pul kupyurasi, dollar	1	2	5	10	20	50	100	
Ma'lum pul kupyuralarining miqdori, mln. dona	10	8	5	3	2,5	2	1	

Aniqlang:

1. Muomaladagi o'rtacha pul kupyurasi aniqlansin.

**11.24-Masala.** Quyidagi ma'lumotlar asosida, o'rtacha har bir kvartal va yil uchun muomaladagi pul massasi, hamda pul massasining oborotlar soni aniqlansin.

	Kvartallar			
	I	II	III	IV
Tijorat banki kassasiga kelib tushgan naqd pullar, mln.dollar	40	42	38	45
Birlollarshshg oborotdagi davomiyligi, kunlarda	6	7	6,5	5,6

**11.25-Masala.**Quyidagi (kvartal) shartli ma'lumotlar berilgan:

Ssuda raqami	Ssuda berilgan vaqt	Ssuda miqdori, dollar	Ssuda muddati oylar
1	1 mart	500	3
2	1 aprel	1000	4

3	1 iyul	3000	6
4	1 sentyabr	2000	2

Bundan tashqari bizga ma'lumki, hamma ssudalar o'z vaktida qaytarilgan va har yil uchun ssudadan 2% ushlab qolingan.

Topish kerak: 1) berilgan ssudaning o'rtacha miqdorini; 2) o'rtacha ssuda muddatini (o'rt. arifmetik yo'l bilan); 3) yiliga ssudaning o'rtacha miqdorini.

**11.26-Masala.** Quyidagi ma'lumotlar asosida, mintaqalar hududidagi pul migratsiyasining miqdorini aniqlang.

Natijalarni tahlil qiling. (ming dollar)

Yillar	Muomalaga pul chiqarish (+), Muomaladan olish (-)	Aholi qo'lidagi pul massasining o'zgarishi
2013	+ 3400	+ 3000
2014	+ 3300	+3100
2015	+ 1000	+ 800
2016	-1000	- 900
2017	-1500	- 1500
2018	+2000	+2000
2019	- 500	- 600
2020	+ 1000	+ 1100

**11.27-Masala.** «A»turdagi mahsulot ishlab chiqarishdan tushgan foyda joriy davrda 85000 dollarni tashkil etdi. Ushbu holatda ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi sotish bahosining 83%ni tashkil etardi. Joriy davrda ishlab chiqarish hajmi 125 ming mahsulotni va o'tgan davrda esa 110 mingni tashkil etdi. Bitta mahsulotning tannarxi joriy davridagiga nisbatan 15 sent yuqori bo'lgan (ma'lumotlar shartli).

Aniqlang: 1) foyda va uning dinamikasini (sotish bahosi o'zgarimay qolgan);

2) foydalilik dinamikasini;

3) tannarx pasayishidan olinadigan iqtisodni toping.



**11.28-Masala.** O'tgan davrda 130,8 ming detal ishlab chiqarilib, 327 ming dollar foyda olindi. Bunda rentabellik darajasi 8%ni tashkil etdi.

Joriy davrda 185,4 ming detal ishlab chiqarildi. Bunda tannarx darajasi 40 sentga, va mahsulot bahosi 50 sentga oshgan (ma'lumotlar shartli)

Aniklang:

- 1) Foyda dinamikasini.
- 2) Joriy davrdagi foydalilik darajasini va uning dinamikasini.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Davlat statistikasi to'g'risida Qonuni. – T., 2002 yil 12 dekabr, №441-II.
2. «O'zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida » 2020 yil 3 avgustdagi PQ-4796-son qarori
3. Ayubjonov A.H. Akbarova B.SH. Xalqaro statistika. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, Toshkent 2020.
4. Ayubjonov A.H. TIF statistikasi. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, Toshkent 2004.
5. Sidenko A.V., Bashkatov B.I., Matveeva V.M. Mejdunarodnaya statistika. Uchebnik. Izdatelstvo «Delo i Servis». M., 2018.
6. Ivanov YU.M. i dr. Ekonomicheskaya statistika. M., 2017 g.
7. Peter fon Der Lippe. Ekonomicheskaya statistika. Shtutgart. 2018 g.
8. Peter fon Der Lippe. Statistika predpriyatij. Izdatel Federalnoe statisticheskoe upravlenie Germanii. Visbaden. 2019 g.
9. Grigoruk N.E. Statistika vneshneekonomicheskix svyazey. Uchebnoe posobie. – M.: Izdatelstvo «Delo i servis», 2018
10. Pod red. I.I.Eliseevoy. Sotsialnaya statistika. Uchebnik. – M., 2019 g.
11. Selsovskiy V.A. Sovershenstvovanie analiza effektivnosti vneshney torgovli. Vestnik statistiki. 2017. №3.
12. B.Maxmudov Milliy hisobchilik asoslari. O'quv qo'llanma. – T., «Akademiya», 2020 y.
13. G'oyibnazarov B.K. Milliy hisoblar tizmi. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, Toshkent 2018.
14. V.N.Salin, I.V.Dobashina. Birjevaya statistika. Ucheb. posobie. – M., 2019 g.
15. V.P.Komeva. Chelovecheskoe razvitie: novoe izmenenie sotsialno – ekonomicheskogo progressa: Ucheb. Posobie. – M., 2017.

16. B.T.Ryabushkin, E.YU.CHurilova. Metodы otsenki tenevogo i neformalnogo sektorov ekonomiki. – M., 2018 g.
17. I.I.Elisseva, M.M.Yuzbashev. Obhaya teoriya statistiki. Uchebnik. – M., 2018 g.
18. Sharipov U.A. O‘zbekiston Respublikasi kimyo sanoati mahsulotlari eksportini iqtisodiy-statistik o‘rganish. Magistrlik dissertatsiyasi. TDIU, 2015.
19. Nosirov R.X. O‘zbekiston Respublikasini iqtisodiy salohiyatini iqtisodiy-statistik o‘rganish. Magistrlik dissertatsiyasi. TDIU, 2015.
20. [europa.eu.int](http://europa.eu.int)
21. [europa.eu.int/comm./relays/index\\_en.htm](http://europa.eu.int/comm./relays/index_en.htm)
22. [www.euireland.ie](http://www.euireland.ie)
23. [www.cec.org.uk](http://www.cec.org.uk)
24. [www.eurunion.org](http://www.eurunion.org)
25. [www.euoparl.ie](http://www.euoparl.ie)
26. [www.euoparl.org.uk](http://www.euoparl.org.uk)

## **«XALQARO STATISTIKASI» FANI BO‘YICHA TESTLAR**

1. Birinchi xalqaro statistika kongressi nechanchi yili bo‘lganq
  - 1) 1906
  - 2) 1903
  - 3) 1853
  - 4) 1849
  - 5) 1861Javoblar: 1); 2); 3); 4); 5).
2. BMT ning statistik organlari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:
  - 1) YUNESKO, FAO, MOT;
  - 2) Statistik komissiya, statistik byuro;
  - 3) YUNESKO, statistik komissiya va statistik byuro;
  - 4) FAO va MOT;
  - 5) 1 va 2.Javoblar: 1); 2); 3); 4); 5).
3. Xalqaro statistika instituti nechanchi yili tuzilganq
  - 1) 1880
  - 2) 1900
  - 3) 1885
  - 4) 1891
  - 5) 1875Javoblar: 1); 2); 3); 4); 5).
4. Iste‘mol baholari indeksi nimani ifodalaydi?
  - 1) xayot qiymatini
  - 2) turmush darajasini
  - 3) inflyasiyani
  - 4) 1 va 2
  - 5) 2 va 3Javoblar: 1); 2); 3); 4); 5).

5. Tashqi savdo baho indeksi quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$1) I_p = \frac{\Sigma P_1}{\Sigma P_0}; \quad 4) i_p = \frac{P_1}{P_0}$$

$$2) I_p = \frac{\Sigma P_1 q_1}{\Sigma P_0 q_1}; \quad 5) I_p = \frac{\Sigma P_1 q_0}{\Sigma P_0 q_0}$$

$$3) I_p = \sqrt{\frac{\Sigma P_1 q_1}{\Sigma P_0 q_1}};$$

Javoblar: 1); 2); 3); 4); 5).

6. Tug'ilish koeffitsienti quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$1) K_r = \frac{T * 1000}{\bar{A}}; \quad 4) K_r = \frac{T * 1000}{\bar{Y}}$$

$$2) K_r = \frac{T_1 + T_n}{2}; \quad 5) K_r = \frac{T * 100}{\bar{A}}$$

$$3) K_r = \sqrt{TK};$$

Javoblar: 1); 2); 3); 4); 5).

7. Tashqi savdo fizik hajmi indeksi quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$1) I_q = \frac{\Sigma q_1}{\Sigma q_0}; \quad 3) I_q = \frac{\Sigma p_1 q_1}{\Sigma p_1 q_0};$$

$$2) I_q = \frac{\Sigma p_0 q_1}{\Sigma p_0 q_0}; \quad 4) i_q = \frac{q_1}{q_0};$$

$$5) I_q = \frac{\Sigma p_1 q_1}{\Sigma p_0 q_1}$$

Javoblar: 1); 2); 3); 4); 5).

8. Aholi soni to'g'risidagi ma'lumotlarni olishning quyidagicha manbalari mavjud:

- 1) aholi ro'yxati, joriy uchyot
- 2) aholi ro'yxati joriy uchyot va prognoz
- 3) aholi ro'yxati, hisobot
- 4) hisobot va joriy uchyot
- 5) maxsus uyushtirilgan tekshirishlar va aholi ro'yxatlari

Javoblar: 1); 2); 3); 4); 5).

9. Aholining vafot etish koeffitsienti quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$1) K_B = \frac{B * 100}{A}; \quad 3) K_B = \frac{B * 1000}{A};$$
$$K_B = \frac{(T - B) * 1000}{A}; \quad 4) K_B = \frac{\sum B_t}{\sum t};$$
$$5) K_B = \frac{\frac{1}{2} B_0 + \frac{1}{2} B_n}{A}$$

Javoblar: 1); 2); 3); 4); 5).

10. Maxsus tashkil etilgan statistik kuzatishga quyidagilar kiradi:

1. ro'yxatlar.
2. bir yo'lakay uchyotlar va maxsus statistik tekshirishlar.
3. har yilgi koramollar ro'yxati.
4. ko'p yillik daraxtlar ro'yxati.
5. yil boshidagi aholi sonini aniqlash.

Javoblar: 1); 2); 3); 4); 5).

11. Vazirlikka qarashli avtoxo'jaliklarda avtomashinalarning bir yo'lakay uchyoti o'tkazilayapti bunda kuzatish ob'ekti quyidagilar hisoblanadi:

1. avtomashinalar;
2. har bir avtomashina;
3. avtoxo'jalik;
4. avtoxo'jaliklar;
5. xaydovchilar.

Javoblar: 1); 2); 3); 4); 5).

12. Quyidagilar bir yo'lakay kuzatish hisoblanadi:

1. talabalarning vaqt byudjetini tekshirish;
2. aholining joriy uchyoti;
3. pasajerlarning shahar transportidan foydalanishini o'rganish;

4. ko'p yillik daraxtlar ro'yxati.
  5. yil boshidagi aholi sonini aniqlash.
- Javoblar: 1); 2); 3); 4); 5).

13. Kuzatish maqsadidan kelib chiqib, gurublashning quyidagi turlari mavjud:

1. oddiy va kombinatsion;
2. birlamchi va ikkilamchi;
3. tipologik, analitik, strukturaviy (tuzilma);
4. atributiv, miqdoriy;
5. atributiv va tipologik.

Javoblar: 1); 2); 3); 4); 5).

14. Atributiv belgilarga quyidagilar kiradi:

1. mamlakat shaharlari bo'yicha aholi soni;
2. viloyat tumanlaridagi do'konlar soni;
3. talabalar soni;
4. millatlar;
5. mehnat resurslari soni.

Javoblar: 1); 2); 3); 4); 5).

15. Jadvallar eganing tuzilishiga qarab, quyidagi turlarga bo'linadi:

1. strukturaviy;
2. analitik;
3. tipologik;
4. oddiy, guruh, kombinatsion;
5. analitik va oddiy.

Javoblar: 1); 2); 3); 4); 5).

16. Guruh o'rtachalaridan (guruhlarning salmog'i bir xil emas) umumiy o'rtachani aniqlash uchun quyidagi o'rtacha qo'llaniladi:

1. oddiy arifmetik;
2. tortilgan arifmetik;
3. oddiy garmonik;

4. tortilgan garmonik;  
 5. geometrik o'rtacha.  
 Javoblar: 1); 2); 3); 4); 5).

17. Agar belgining barcha individual qiymatlarini besh birlikka osbirsak, u holda o'rtacha qanday o'zgaradi?

1. besh marotaba oshadi;
2. besh birlikka oshadi;
3. o'zgarmaydi;
4. o'rtacha o'zgarishini aytish mumkin emas;
5. besh marotaba kamayadi.

Javoblar: 1); 2); 3); 4); 5).

18. Agar belgining barcha qiymatlari vaznlarini etti marotaba ko'paytirsak, u holda o'rtacha qanday o'zgaradi?

1. ko'payadi;
2. kamayadi;
3. o'zgarmaydi;
4. o'rtachani qzgarishini aniq aytib bo'lmaydi;
5. etti marotaba ko'payadi.

Javoblar: 1); 2); 3); 4); 5).

19. Kuzatish dasturi deganda nima tushiniladi?

1. kuzatish davomida qayd qilinishi lozim bo'lgan belgilar to'plami;
2. aholi ro'yxati;
3. kuzatilayotgan to'plamning bitta birligini;
4. qoganilayotgan xodisa va jarayonlar to'plami;
5. bir yo'lakay kuzatishlar.

Javoblar: 1); 2); 3); 4); 5).

20. Kuzatish birligi deganda nima tushiniladi?

1. kuzatish davomida qayd qilinishi lozim bo'lgan belgilar to'plami;
2. aholi ro'yxati;

3. kuzatilayotgan to'plamning bitta birligini;
  4. qoganilayotgan xodisa va jarayonlar to'plami;
  5. bir yo'lakay kuzatishlar;
- Javoblar: 1); 2); 3); 4); 5).

21. Statistika moda deganda nima tushiniladi?

1. to'plamda eng katta songa yoki salmoqqa ega bo'lgan ko'rsatkich;
2. to'plamni teng ikkiga bqluvchi ko'rsatkich;
3. to'plam birliklarini qzgaruvchangligi;
4. qator o'rtacha darajasi;
5. eng katta belgi qiymati.

Javoblar: 1); 2); 3); 4); 5).

22. Statistika mediana deganda nima tushiniladi?

1. to'plamda eng katta songa yoki salmoqqa ega bo'lgan ko'rsatkich;
2. to'plamni teng ikkiga bqluvchi ko'rsatkich;
3. to'plam birliklarini qzgaruvchangligi;
4. qator o'rtacha darajasi;
5. eng katta belgi qiymati.

Javoblar: 1); 2); 3); 4); 5).

23. Variatsiya koeffitsienti quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$1) \bar{x} = \frac{\frac{1}{2}x_1 + x_2 + \dots + \frac{1}{2}x_n}{n-1}; \quad 2) V = \frac{\delta \cdot 100}{x}$$

$$3) K = \sqrt{TK}; \quad 4) \bar{x} = \frac{\sum x^2}{n}; \quad 5) R = x_{\max} - x_{\min}$$

Javoblar: 1); 2); 3); 4); 5).

24. Tanlanma kuzatish quyidagi maqsadlar uchun o'tkaziladi:

1. vaqt va mablag'ni tejash;
2. kuzatish ob'ektini tahlil qilish;



3. ma'lumotlarni guruhlash uchun;
  4. yoppasiga kuzatish ma'lumotlarini bosh to'plamga tarqatish;
  5. to'plamdagi qzgaruvchanlikni tekshirish.
- Javoblar: 1); 2); 3); 4); 5).

25. Reprezentativlik xatolari quyidagi turga bo'linadi:

1. tasodifiy va muntazam xatolar;
2. muntazam va kuzatish xatolar;
3. kuzatish va tasodifiy xatolari;
4. variatsion va o'rtacha xato;
5. o'rtacha va kuzatish xatosi.

Javoblar: 1); 2); 3); 4); 5).

26. Bosh to'plamdan birlıklar ma'lum interval bo'yicha olinib, tanlanmaga kiritilsa, bunday tanlash ... deb ataladi.

1. tasodifiy tanlash;
2. mexanik tanlash;
3. seriyalab tanlash;
4. tipologik tanlash;
5. variatsion tanlash.

Javoblar: 1); 2); 3); 4); 5).

27. Belgilar qotasidagi bog'lanishlar xarakteriga qarab, ular quyidagi turlarga bo'linadi:

1. funksional va korrelatsion bog'lanish;
2. korrelyasion va kombinatsion bog'lanish;
3. kombinatsion va variatsion bog'lanish;
4. variatsion va kombinatsion bog'lanish;
5. tipik va variatsion bog'lanish.

Javoblar: 1); 2); 3); 4); 5).

28. Regression va korrelyasion tahlil quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

1. ikki bosqichdan;

2. uch bosqichdan;
3. to'rt bosqichdan;
4. besh bosqichdan;
5. olti bosqichdan.

Javoblar: 1); 2); 3); 4); 5).

29. Mustaqil O'zbekistonning yangi «Davlat Statistikasi to'g'risida»gi qonun nechanchi yili qabul qilindi

1. 2000 yil;
2. 1999 yil;
3. 2001 yil;
4. 2002 yil;
5. 2003 yil.

Javoblar: 1); 2); 3); 4); 5).

30. Statistik kuzatishning quyidagi usullari mavjud:

1. bevosita kuzatish, xujjatli, savol-javob va korrespondensiya;
2. bilvosita kuzatish va korrelyasion;
3. regression va korelyasion;
4. regression va funksional;
5. funksional va tipologik;

Javoblar: 1); 2); 3); 4); 5).

31. Kuzatish ob'ekti deganda nimani tushunasizq

1. kuzatish davomida qayd qilinishi lozim bo'lgan belgilar to'plami;
2. aholi ro'yxati;
3. kuzatilayotgan to'planning bitta birligini;
4. o'rganilayotgan xodisa va jarayonlar to'plami;
5. bir yo'lakay kuzatishlar.

Javoblar: 1); 2); 3); 4); 5).

32. Svodkashlash tashkil etilishi jihatidan quyidagi turlarga bo'linadi:

1. markazlashgan, markazlashmagan, kombinatsiyalashgan;

2. atributiv, tipologik;
3. markazlashgan, markazlashmagan;
4. oddiy va murakkab;
5. tor va keng.

Javoblar: 1); 2); 3); 4); 5).

33. Belgilar ifodalanishiga qarab quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Miqdoriy, atributiv va alternativ;
2. Muhim va muhim bo'lmagan;
3. Miqdoriy va miqdorsiz;
4. Omil va natijaviy;
5. Omil va miqdoriy.

Javoblar: 1); 2); 3); 4); 5).

34. O'rtacha arifmetik miqdor quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$1) \bar{x} = \frac{\frac{1}{2}x_1 + x_2 + \dots + \frac{1}{2}x_n}{n-1}; \quad 2) \bar{x} = \frac{\sum x}{n}; \quad \bar{x} = \frac{\sum xf}{\sum f};$$

$$3) K = \sqrt{\overline{K^2}}; \quad 4) \bar{x} = \frac{\sum x^2}{n}; \quad 5) \bar{x} = x_{\text{max}} - x_{\text{min}}$$

35. Dinamika qatorlarini tahlil qilish quyidagi ko'rsatkichlar yordamida amalga oshiriladi:

1. Mutloq qo'shimcha o'sish, o'sish sur'ati, qo'shimcha o'sish sur'ati, 1 % qo'shimcha o'sishning absolyut mohiyati;
2. Variatsion kenglik, o'sish sur'ati;
3. O'sish sur'ati, korrelyatsiya koeffitsienti;
4. Qo'shimcha o'sish sur'ati, o'rtacha xatolik;
5. 1 % qo'shimcha o'sishning absolyut mohiyati, variatsiya koeffitsienti, nisbiy miqdor.

Javoblar: 1); 2); 3); 4); 5).

36. Dinamika qatorlarida qator o'rtacha darajasi quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$1) i_s = \frac{\sum q_t}{\sum q_0}; \quad i_s = \frac{P_1}{P_0} \quad 2) R = x_{\text{max}} - x_{\text{min}}; \quad \bar{y} = \frac{\sum y}{t};$$

$$3) K = \sqrt[n]{PK}; \quad 4) I_p = \frac{\sum P_t \cdot T \cdot 1000}{A_{15-49\text{ml}} \text{uzunlik}}$$

$$5) \bar{y} = \frac{\sum y}{n}; \quad \bar{y} = \frac{\frac{1}{2}y_1 + y_2 + \dots + y_{n-1} + \frac{1}{2}y_n}{n-1}; \quad \bar{y} = \frac{\sum y}{t};$$

Javoblar: 1); 2); 3); 4); 5).

37. Dyuto nechanchi yili umumiy baho indeksini  $\sum r_1 G \cdot \sum r_0$  shaklida hisoblashni taklif qilgan

1. 1738 yil;
2. 1740 yil;
3. 1880 yil;
4. 1842 yil;
5. 1735 yil.

Javoblar: 1); 2); 3); 4); 5).

38. Laspeyres agregat baho indeksiga qachon asos soldiq

1. 1871 yil;
2. 1870 yil;
3. 1800 yil;
4. 1850 yil;
5. 1861 yil.

Javoblar: 1); 2); 3); 4); 5).

39. Paasbe quyidagi indeksga asos soldi:

$$1) I_p = \frac{\sum P_1}{\sum P_0}; \quad 4) i_p = \frac{P_1}{P_0}$$

$$2) I_p = \frac{\sum P_1 q_1}{\sum P_0 q_1}; \quad 5) I_p = \frac{\sum P_1 q_0}{\sum P_0 q_0}$$

$$3) I_p = \sqrt{\frac{\sum P_1 q_1}{\sum P_0 q_1}}$$

Javoblar: 1); 2); 3); 4); 5).

40. Aholining harakati quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Muntazam va o'zgaruvchan;
2. Turg'un va o'zgaruvchan;
3. Tabiiy va mexanik;
4. Davriy va mavjud;
5. Ichki va tashqi.

Javoblar: 1); 2); 3); 4); 5).

41. Maxsus tug'ilish koeffitsienti quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$1) I_{x+1} = I_x \cdot P_x \quad 2) \bar{y} = a_0 + a_1 x \quad 3) R = x_{\max} - x_{\min}$$

$$4) K = \sqrt[3]{\pi K} \quad 5) K_r = \frac{T \cdot 1000}{A_{15-49 \text{ yil}} \text{ aholisi}}$$

Javoblar: 1); 2); 3); 4); 5).

42. MHTda quyidagi jamlanma hisoblamalar tizimi mavjud:

1. 2 ta;
2. 3 ta;
3. 4 ta;
4. 5 ta;
5. 7 ta.

Javoblar: 1); 2); 3); 4); 5).

43. Aholining bandlik ko'rsatkichi quyidagicha hisoblanadi:

$$1. K = \frac{\text{Mehnat yoshidagi aholi soni}}{\text{o'rtacha aholi soni}}$$

$$2. K = \frac{\text{band bo'lgan aholi soni}}{\text{o'rtacha aholi soni}}$$

$$3. K = \frac{\text{o'rtacha aholi soni}}{\text{Mehnat yoshidagi aholi soni}}$$

$$4. K = \frac{\text{o'rtacha aholi soni}}{\text{Band bo'lgan aholi soni}}$$

$$5. K = \frac{\text{Band aholi}}{\text{Mehnat yoshidagi aholi}}$$

Javoblar: 1); 2); 3); 4); 5).

45. Mehnat yoshidagi aholi salmog'i quyidagicha hisoblanadi:

$$1. K = \frac{\text{Mehnat yoshidagi aholi soni}}{\text{o'rtacha aholi soni}}$$

$$2. K = \frac{\text{band bo'lgan aholi soni}}{\text{o'rtacha aholi soni}}$$

$$3. K = \frac{\text{o'rtacha aholi soni}}{\text{Mehnat yoshidagi aholi soni}}$$

$$4. K = \frac{\text{o'rtacha aholi soni}}{\text{Band bo'lgan aholi soni}}$$

$$5. K = \frac{\text{Band aholi}}{\text{Mehnat yoshidagi aholi}}$$

Javoblar: 1); 2); 3); 4); 5).

46. MXT tarmoqlararo balansi asosan... kvadrantlardan iborat.

1. 2 ta;
2. 3 ta;
3. 4 ta;
4. 5 ta;
5. 6 ta.

Javoblar: 1); 2); 3); 4); 5).

47. Mahsulot tannarxi 4 % ga oshdi, mahsulot hajmi esa 5 % ga oshdi, mahsulot xarajatlari qanday o'zgaradi:

1. 20 % ga oshdi;
2. 20 % ga kamaydi;
3. 1 % ga oshdi;
4. 9,2 % ga oshdi;
5. 15 % ga oshdi.

Javoblar: 1); 2); 3); 4); 5).

48. Yoshni siljitish usulida aholining istiqboldagi sonini hisoblash quyidagi formula yordamida amalga oshiriladi:

$$1) l_{x,t} = l_x \cdot P_x \quad 2) \bar{y} = a_0 + a_1 x \quad 3) R = x_{max} - x_{min}$$

$$4) K = \sqrt[3]{PK} \quad 5) \bar{y} = \frac{\sum x t}{\sum t}$$

Javoblar: 1); 2); 3); 4); 5).

49. Joriy davrda baho 5 % ga oshdi, mahsulot fizik hajmi esa 3 % ga oshsa, mahsulot qiymati qanday o'zgaradiq

1. 15 % ga oshdi;
2. 8,15 % ga oshdi;
3. 8 % ga oshdi;
4. 2 % ga oshdi;
5. 0,6 % ga oshdi.

Javoblar: 1); 2); 3); 4); 5).

50. Mahsulot qiymati 20 % ga oshib, fizik hajmi esa 10 % ga kamaysa, mahsulot bahosi qanday o'zgarganq

1. 20 % ga o'sadi;
2. 20 % ga kamaydi;
3. 10 % ga kamaydi;
4. 10 % ga o'sdi;
5. 9 % ga o'sdi.

Javoblar: 1); 2); 3); 4); 5).

AKBAROVA B.SH.

# XALQARO STATISTIKA

*O'quv qo'llanma*

*"IQTISODIYOT" – 2022*

*Muharrir:*  
*Yaxshiyev H.T.*

*Musahhih va sahifalovchi:*  
*Matxo'jayev A.O.*

*Texnik musahhih:*  
*Tairov A.A.*

Litsenziya raqami: №10-4286 14.02.2019. Bosishga 15.01.2022 da ruxsat etildi. Bichimi 60x84 1/16. Raqamli bosma usuli. Tayms garniturası. Shartli bosma tabog'i: 20,4. Adadi 30 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

«ZARAFSHON FOTO» XK matbaa bo'limida chop etildi.  
100066, Toshkent sh. Islom Karimov ko'chasi, 49-uy.